

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 262.1.408.3.

Boymurodov Zohid Shokirovich
**Diffuziya va interferensiya yuksak va
ommaviy madaniyatlar o'zaro ta'sirining
ikki tendensiyasi sifatida**

Mavzusida
magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

5A 111601 – Ijtimoiy –gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi
(*Ma'naviyat asoslari*)

Ilmiy rahbar:

dots. X. Maxmanova

Qarshi 2016

M U N D A R I J A

	Kirish	8
I bob.	Ommaviy madaniyat tushunchasining kelib chiqishi va shakllanishi.	
1.	Ommaviy madaniyat shakllanishining jamiyat industirlashuvi va urbanizatsiyalashuvi bilan bog'liqligi.....	8
2.	Ommaviy madaniyatning postindustrial jamiyatda ijtimoiy fenominga aylanishi	20
	I bob bo'yicha xulosa	38
II bob	Ommaviy madaniyatning ijtimoiy funksiyalari va inson ma'naviyatiga ta'siri	
1.	Ommaviy madaniyatning inson va jamiyatni real ijtimoiy voqelikdan chalg'itishi va uning ongini boshqarishi	41
2.	Iste'molchilik psixologiyasini shakllantirish....	54
	II bob bo'yicha xulosa.....	62
III bob	Yuksak va ommaviy madaniyatlar dialektikasi va jamiyat ma'naviyati	
1.	Diffuziya yuksak va ommaviy madaniyatlar o'zaro ta'sirining bir ko'rinishi va tendensiyasi sifatida	64
2.	Interferensiya yuksak va ommaviy madaniyatlar o'zaro ta'sirining diffuziyasiga qarama-qarshi tendensiyadir.....	73
	III bob bo'yicha xulosa.....	90
	Xulosa	92
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	97

K I R I S H

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asolanishi va uning dolzarbligi:

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurishdan iborat. Bu jarayonda moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligiga erishishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki Prezident Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganidek: "insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylaymanki o'rinni bo'ladi.¹ Ular uyg'un va mutanosib rivojlanmas ekan jamiyat taraqqiyoti bir yoqlama bo'ladi va turli kamchiliklarga olib keladi.

Ilm-fan, texnika taraqqiyoti jadallashishi bilan birga, ming afsuski, insoniylik qoidalariga zid bo'lgan "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi turli illatlar ham kuchayib borayotgani bugungi kunda hech kimga sir emas. Mustaqillik yillarida milliy madaniyatimiz tarixini o'rganish, rivojlantirish va yosh avlodga yetkazish maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan davr mobaynida madaniyat masalasiga, jumladan ommaviy madaniyatni tahlil qilishga oid ko'plab monografiyalar, risola va maqolalar chop etildi, ilmiy amaliy konferensiyalar o'tkazildi. Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "ommaviy madaniyat degan niqob ostida axloqiy buzqlik va zo'ravonlik, individualizm, egosentizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik ortirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'parishga qaratilgan tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi-degan teran fikrlari ilmiy jamoatchilik diqqat masalasini har tomonlama xolis va tanqidiy o'rganishga qaratdi. Ammo bugungi kunda ommaviy madaniyatni kelib chiqishi va shakllanishini, uning ijtimoiy fenominga aylanishini, vazifalari, diffuziyasi va interferensiyasini hamda inson ma'naviyatiga ta'sirini o'rganishda ko'plab

¹**Islom Karimov.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008 y., 67-b.

ziddiyatli fikrlarga, chalkash munosabatlarga duch kelamiz. Zamonaviy ommaviy madaniyatning shaxsga ta'sirini bir xilda baholash unchalik ham to'g'ri bo'lmaydi. To'g'ri, ayrim o'zbek olimlarining ko'pgina asarlari va maqolalarida bu ta'sir nuqul negativ nazardan talqin qilinadi.¹ Ushbu asar va maqolarda talqin qilinishicha zamonaviy ommaviy madaniyat shaxsga va jamiyat ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, umumta'lim maktablarining 7-sinf uchun o'qitilayotgan 'Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari' darsligida ham xuddi shunday munosabatni ya'ni urg'u faqat uning salbiy tomonlariga qaratilganini ko'rishimiz mumkin.² Bunday bir yoqlama xulosaga kelishning sababi shuki, tadqiqotlarning aksariyat qismi ommaviy madaniyat fenomenini negativ reallik sifatida ta'riflaydilar. Ta'rifning noto'g'riligi esa fenomen mazmunini, uning shaxsga ta'sirini obektiv tasvirlashga xalal beradi.

O'tgan asrning oxirlarida mafkuraviy jarayonlarning murakkablashuvi va intensivlashuvi, axborot texnologiyalari sohasida inqilobiy o'zgarishlar ommaviy madaniyat mazmunini ham chetlab o'tmadi. Mohiyatan neytiral xarakterga ega mafkuraviy manfaatlarni ifodalovchi, vayronkor g'oyalarni targ'ib qiluvchi elementlar paydo bo'ldi. Natijada mazkur fenomenning shaxsga ta'siri xarakteri yanada murakkablashdi. Bunga mamlakatimiz rahbari ham o'z asar va ma'ruzalarida bir necha bor e'tiborini jalb etib o'tdi.³

Yuqoridagilardan kelib chiqib mavzuning **dolzarbligini** quyidagilar bilan belgilash mumkin:

Birinchidan, "ommaviy madaniyat" tushunchasining kelib chiqishi va shakllanish jarayoni haqida fikrlar haligacha mavhumlik kasb etmoqda. Turli tadqiqotlar natijasida yuzaga kelayotgan tariflar ikkilanish va chalkashliklarni yuzaga keltirmoqda;

¹ Sh. Odilxonova . "Ommaviy madaniyat" tahdidi.- Toshkent : Muharrir , 2010.- 67-b.

² M. Qarshiboyev, S.Nishonova, O.Musurmonova, R.Qo'chqorova. milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari:7-sinf: darslik. Toshkent: M'anaviyat, 2015.-62-65-b.

³ Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish.\\ Vatanimiz bosqichma bosqich va barqaror rivojlanishni ta'minlash-bizning oliy maqsadimiz. J.17.-Toshkent:O'zbekiston, 2009.-137-b.

Ikkinchidan, “Ommaviy madaniyat” hayotimizning barcha sohalariga kirib kelib ulgurgan bir paytda unga nisbatan ko’p hollarda faqat salbiy munosabatning uchrayotgani biryoqlamalikni olib kelayotir;

Uchinchidan, Ommaviy madaniyat insonni real voqelikdan, hayotning real muammolaridan chalg’itadi. Natijada insonda vatan va jamiyat taraqqiyoti kelajak avlod oldidagi yuksak ma’suliyat hissi pasayadi. Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish biz tanlagan mavzuni alohida o’rganishni taqazo etadi

Tadqiqot obyekti . Ommaviy madaniyatning turli ko’rinishlari va ularning inson va jamiyat turmushiga ta’siri.

Tadqiqot predmeti. Ommaviy madaniyat tushunchasining jamiyat tomonidan, olimlar tomonidan va tadqiqotchilar tomonidan qay darajada anglab olinayotgani va baholanayotgani.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Globallashuv sur’atalari ortayotgan, xalqaro raqobat kuchayayotgan, axborot texnologiyalari tez rivojlanayotgan, G’arb ommaviy madaniyati tez tarqalayotgan hozirgi sharoitda milliy mintalitetimizni, ma’naviy xususiyatlarimizni asrab-avaylash, mustahkamlash va rivojlantirishga oid mavjud yutuqlarni va muammoli masalalarni aniqlash.

Ushu maqsaddan kelib chiqib tadqiqot oldiga quyidagi ***vazifalar*** qo’yildi:

___ “Ommaviy madaniyat” ning shakllanishini jamiyat industirlashuvi va urbanizatsiya jarayoni bilan bog’liq hodisa ekanligi tadqiq qilish ;

___ “ommaviy madaniyat”ning ijtimoiy vazifalarini har jihatdan to’g’ri tushuntirish va asoslab berish;

___Yuksak va ommaviy madaniyatlar o’zaro ta’siri yuz berayogan ayni davrda ushbu jarayoning salbiy va ijobiy tomonlarini xolis va obyektiv baholash;

___ Milliy madaniyatimizni ommaviy madaniyatning salbiy ta’siridan himoyalash uni yanda boyitish, zamon talablari asosida rivojlantirishga oid muammolarni aniqlash, tegishli xulosalar berish va takliflar bildirish.

Ilmiy yangiligi: Yuksak va ommaviy madaniyatlarning o’zaro diffuziyasi va interferensiyasi yurtimizda ham xojirda ham ilmiy tadqiq etilmagan. Mazkur ishda ommaviy madaniyat bilan bog’liq masalalar va uning inson va jamiyat hayotidagi

salbiy ta'sirini minimallashtirish uchun nazariy va ilmiy - metodik xarakterdagi xulosalar chiqarishga urinilgan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:

1-faraz Ommaviy madaniyat tahdidi ortayotgan hozirgi sharoitda milliy mintalitetimizni, ma'naviy xususiyatlarimizni asrab-avaylash, mustahkamlash va rivojlantirishga oid yutuqlar va muammolarni aniqlashga yordam beradi;

2-faraz. Ommaviy madaniyat" ning shakllanishini jamiyat industirlashuvi va urbanizatsiya jarayoni bilan bog'liq hodisa ekanligi va uning postmoderen jamiyatda fenominga aylanganligini asoslashga yordam beradi;

3-faraz. Yuksak va ommaviy madaniyatlar o'zaro ta'siri yuz berayotgan ayni davrda ushbu jarayoning salbiy va ijobiy tomonlarini xolis va obyektiv baholashga va milliy madaniyatimizni zamon talablari asosida rivojlantirishga oid muammolarni aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqot ishi bo'yicha adabiyotlar tahlili. Ommaviy madaniyatga oid masalalar turli yondashuvlar asosida har tomonlama o'rganilmoqda. Ommaviy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari xorijiy mamlakatlarda XIX asrning oxirlaridan buyon tadqiq va talqin qilib kelinadi. Uning mazmunini ifodalashga ilk bor A. de Tokvili qo'l urgan.¹ Ammo u ommaviy madaniyatning mazmun mohiyatini to'liq ochib bera olgan emas. Ba'zi olimlar zamonaviy ommaviy madaniyat mazmuni tanqidiy jihatdan baholaydilar.² O'zbekistonda ham turli xildagi matbuot, raidio va televideniye maxsus ko'rsatuv va eshittirishlar boshqa ko'plab maqola, ilmiy risola, monofrafiyalar hamda ilmiy konferensiya materiallari chop etilmoqda. Aksariyat o'zbek olimlari ommaviy madaniyat xususiyatlarini tanqidiy nuqtayi nazardan o'rganadilar yoki ommaviy madaniyat niqobi ostidagi aksil madaniyat bilan chalkashtiriladi.³ Zamonaviy ommaviy madaniyatning ham

1..Де Токвили А. Демократия в Америке.-М.: Прогресс,1994.

² Андрю Г. Негативная диалектика.-М.: Научный мир,2003

³ Odilxonova Sh. "Ommaviy madaniyat" tahdidi.- Toshkent: Muharrir, 2010; Odilxonova Sh. "Ommaviy madaniyat nima"?// Tafakkur.- 2011.-№2.-85-86-b.; Primov B. Axborot oqimining axloqiy qadriyatlarga ta'siri.// Jamiyat va boshqaruv.-2011.-№2.- 20-22-b.; Quronov M., Esonov F. Gibrid olmadan gibrid odamgacha.- Toshkent: Muharrir, 2010.

ijobiy, ham salbiy jihatlarini xolis baholagan ilmiy ishlar esa ozchlikni tashkil etadi¹

Tadqiqotda qo'llanilgan metodika tavsifii. Dissertatsiyaning ilmiy metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asrlari birinchi galda "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" asari tashkil etadi. Tadqiqotda respublikamiz va xorijiy olimlarning nazariy, ilmiy-uslubiy asarlari, maqolalaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodlari: tizimlilik, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, ob'yektivlik va vorisiylik, qiyoslash va umumlashtirish, milliylik va umuminsoniylik kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotni sinab ko'rish maqsadida Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi 5-umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-9 sinf o'quvchilari o'rtasida hamda Koson Pedagogika - iqtisodiyot kollejidagi amaliyotlar olib borildi.

Tadqiqot ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur ish:

Birinchidan, "ommaviy madaniyat" tushunchasining turli talqinlari, ta'riflari, yuksak va ommaviy madaniyatning o'xshash va farqli jihatlarini, madaniyatni o'rganishga nisbatan mavjud turli yo'nalarlashlarni, ilmiy metodologik pozitsiyani aniqlashga yordam berishi mumkin;

Ikkinchidan, aniqlangan kamchiliklar hisobga olinganda, madaniyatni yanada takomillashtirish va o'rganish uchun foydali bo'ladi.

Uchinchidan, Ommaviy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi, uning ijtimoiy vazifalari hamda milliy madaniyatimizda yuzaga kelayotgan yutuq va kamchiliklarni o'rganishda va tahlil qilishda mazkur ishdan va uning tavsiyalaridan foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining qisqacha tavsifi: Dissertatsiya kirish, uch bob, olti faslni o'z ichiga olgan, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ilmiy ish matning umumiy hajmi 103 betni tashkil qiladi.

¹ Erkayev A. Globallashuv: axborot huruji va ommaviy madaniyat.// Tafakkur.- 2008.-№4.-4-15-b; Erkayev A. Kurashadi ikki to'lqin... yoxud madaniyatlar interferensiya.// Tafakkur.- 2014.-№3.-; Erkayev A. Kurashadi ikki to'lqin... yoxud madaniyatlar interferensiya.// Tafakkur.- 2014.-№4.-;12-18-b.

Dissertatsiyaning ***kirish*** qismida mavzuning asoslanganligi va uning dolzarbligi, tadqiqot obyekti va predmetining belgilanishi, tadqiqot maqsad va vazifalari, tadqiqot farazi, qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqotning ilmiy yangiligi va dissertatsiya tarkibi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "***ommaviy madaniyat tushunchasining kelib chiqishi va shakllanishi***" deb nomlanib, unda "ommaviy madaniyat" tushunchasining mazmuni, tarkibi va uning industirlashuv va urbanizatsiya jarayonlarida shakllanishi va postindustrial jamiyatda ijtimoiy fenominga aylanishi bilan bog'liq tomonlari tadqiq qilinadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "***Ommaviy madaniyatning ijtimoiy funksiyalari va inson ma'naviyatiga ta'siri***" deb nomlandi. Unda ommaviy madaniyatning ijtimoiy funksiyalari xususan, inson va jamiyatni real ijtimoiy voqelikdan chalg'itish va uning ongini boshqarish, iste'molchilik psixologiyasini shakllantirish hamda inson ma'naviyatiga ta'siri bilan bog'liq masalalar tadqiq qilinadi.

Dissertatsiyaning "***Yuksak va ommaviy madaniyatlar dialektikasi va jamiyat ma'naviyati***" deb nomlangan uchinchi bobida diffuziya va interferensiya hodisasi va uning yuksak va ommaviy madaniyatlar bilan o'zaro ta'siri masalasi tadqiq qilindi.

Dissertatsiyaning ***xulosa*** qismida tadqiqotdan kelib chiqadigan asosiy xulosalar va amaliy tavsiyalar bayon etilgan

1-bob OMMAVIY MADANIYAT TUSHUNCHASINING KELIB CHIQISHI VA SHAKLLANISHI.

1.1 Ommaviy madaniyat shakllanishining jamiyat industirlashuvi va urbanizatsiyalashuvi bilan bog'liqligi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini e'lon qilgach, jahon hamjamiyatiga jadallik bilan integratsiyalasha boshladi. Natijada hamkorlik aloqalari kuchayib, barcha sohada, shu jumladan madaniyat va ma'naviyat sohasida ham harakat erkinligi yuzaga keldi. Bu esa ijtimoiy hayotning muayyan sohalarida o'ziga xos muammolar paydo bo'lishiga olib keldi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov qayd etganidek: "Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. Ya'ni, kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilgandan so'ng, jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishini unutmaslik kerak.

Tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egosentizm, g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi"¹

Hozirgi kunda ma'naviy va moddiy mazmundagi hodisalarning qandaydir mavhum majmuyi emas, balki XIX-XX asrlar bo'sag'asida industrial jamiyatda vujudga kelgan hamda "ommaviy madaniyat" deb atalgan konkret hodisa oldingi marraga chiqmoqda. Bu esa masalaga jiddiy yondashishni va ilmiy o'rganishni taqozo qilmoqda.

Bizga ma'lumki ommaviy madaniyat ijtimoiy hodisa sifatida o'z-o'zidan birdan vujudga kelib qolgan emas. U evalutsion asosda yuzaga keldi va shu yo'sinda rivojlanadi va bu jarayon hamon davom etmoqda. Uning kelib chiqishi va

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: "Ma'naviyat", 2008. 117-b.

shakllanish jarayoni esa uzoq tarixiy davrlar bilan bog'liq. Ommaviy madaniyat ko'p qirrali, rang-barang hodisa bo'lib, bizning davrimizda uni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'pligiga qaramay, uning mohiyati to'g'risidagi savolga hali ham qoniqarli javob berilmagan. Chindan ham, ushbu masala bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar ommaviy madaniyat nima ekanligi va uning shakllanishi haqida hozirga qadar ma'lum darajada bir xil ma'noga ega ta'rifni ishlab chiqa olmagan bo'lsalar, uning mohiyati va asosiy xususiyatlari borasidagi yagona fikr mohiyati haqida gap yuritib bo'lmaydi.

Yuqorida qayt etilganidek ommaviy madaniyatning shakllanishi qadim zamonlardayoq jamiyat munosabatlari tizimiga ta'sir o'tkaza boshladi. Temir qurollarga o'tilgach odamlarning turmush tarzi farovonligi o'z ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari o'rtasida farq kuchayib ijtimoiy tabaqalashuv yuz berdi. Mehnat qurollarining takomillashuvi natijasida esa ishlab chiqarish samaradorligi oshdi, yollanib ishlovchi mehnatkash va ish beruvchi o'rtasida ijtimoiy tegsizlik kuchayib bordi. Bu jarayonda tabaqalarning o'ziga xos madaniyatlari vujudga keldi. Bunda birinchi galda aqliy mehnatni jismoniy mehnatdan ajralib chiqishi mulkiy tabaqalanish bilan birga katta rol o'ynadi. Ibtidoiy jamiyat parchalanishi tufayli mehnat taqsimotida, ma'naviy faoliyatning moddiy faoliyatdan ajralishi, mulk, maqom va boshqa alomatlarga ko'ra tabaqalashuv jarayonlari ro'y bera boshlagan qadim o'tmishda nafaqat boylar va kambag'allar, balki biron - bir jihatdan mo'tabar tutilgan kishilar-maxsus muqaddas bilimlar egalari, diniy-marosim izdohomlari tashkilotchilari, urug'-qabila boshliqlari va aslzodalari ham ajralib chiqa boshladi. Aytish mumkinki o'sha vaqtlarda xos madaniyat vakillari juda ozchilikni tashkil qilgan. Asta-sekin xos va avom madaniyatlari orasida farq kuchayib, o'rta asrlarda Sharqda keyinchalik G'arbda olimlar, mutafakkirlar madaniyatni ikkiga-elita (xos) va omma (avom) madaniyatlariga bo'la boshlaganlar. Ba'zi xollarda "elita" va "omma" so'zlaridan aniqlovchi yasalib, atamalar elitar va ommaviy madaniyat shakliga qo'llanilgan.

Mumtoz falsafada biz aynan shunday yondashuvni kuzatamiz. Ammo tushunchalarga mumtoz faylasuflar tomonidan batafsil ta'rif berilmagan, ular ilmiy tahlil etilmagan. Masalaga ilk bor A. de Tokvil e'tiborini qaratdi. U o'zining "Amerikadagi demokratiya" nomli asarida ma'naviy madaniyatda ommalashuv tendensiyalari qaror topayotganini qayt etadi. Standartlashgan, stereotiplashgan artifaktlarni ishlab chiqilishi va yoyilishi oqibatlariga olib kelishi mumkinligi haqida mulohaza yuritadi¹.

Lekin A. de Tokvil mulohazalari ilmiy-nazariy va sistemaviy xarakterga ega emas edi. U jamiyatning ma'naviy hayotida yangi tendensiyalar yuzaga kelayotganini his eta olgan, xolos. Masalani to'la-to'kis ta'riflab bergan emas.

Xos-elitar madaniyat jamiyat kiborlari, o'qimishli ziyolilar didi, ta'bi, ma'naviy qiziqish va ehtiyojlariga mo'ljallangan yuksak professional adabiyot va san'at namunlari, oliy tabaqalarning ijtimoiy xulq-atvori va muomila-muloqoti bilan bog'langan. " Elitar madaniyatning mohiyati elita tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, odatda, xalq, omma madaniyatiga qarshi qo'yiladi. Shunga qaramasdan elitar madaniyat jamiyatning katta qismiga tarqalgan emas. Ushbu tipdagi madaniyatni ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchi bo'lmish elita, sotsiologlar hamda madaniyatshunoslar nuqtai nazariga ko'ra, boshqaruv, ishlab chiqarish va madaniyatni rivojlantirish vazifasini amalga oshiruvchi oliy, imtiyozli qatlamlar, guruhlar, sinflar vakillari hisoblangan"². Omma madaniyati esa oddiy xalqning ehtiyojlarini qondiruvchi ma'naviy mahsulot hisoblangan. Xalq madaniyati madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ancha keng tushunilib, uning uzoq o'tmishda taalluqli bo'lgan tarixiy qatlami bilan chegaralanmaydi. U o'tmishda folklor tarzida mavjud bo'lgan. Hozirgi vaqtda bevosita munosabat (birgalikdagi mehnat, rasm-rusm, bayram tadoriklari) jarayonida ajdodlardan avlodlarga o'tkaziladigan og'zaki an'anadagi ixtisoslashmagan (professional bo'lmagan) soha sifatida qaraladi. Folklor, xalq amaliy-bezak san'ati, urf-odat va an'analar ham omma

¹ Де Токвили А. Демократия в Америке.-М.: Прогресс,1994.

² Sh.G'oyibnazarov.ommaviy madaniyat.-T.;"O'zbekiston", 2012.10-b.

madaniyatiga kiritilgan. Ushbu madaniyat turidan foydalanuvchi va unga murojaat etuvchilar soni nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan. Chunki u odamlar turmush tarzi va madaniy hayoti bilan to'g'ridan –to'g'ri bog'langan hamda odamlarning orzu-istaklari, qiziqishlari ideallarini o'zida aks ettirgan. Bu esa uning qiziqarli va tushunarli bo'lishiga hamda oson qabul qilinishini ta'min etgan. Ushbu madaniyatga jo'n hodisa deb bir muncha bepisand qarashlar uchrasa-da, aslida umumiy munosabat unchalik salbiy bo'lmagan. Xalq og'zaki ijodiga esa ko'p xollarda, ayniqsa mumtoz adabiyotda ijobiy munosabatni kuzatamiz. Masalan, buyuk rus shoiri A.S.Pushkin folklorni juda sevgan. U hatto xalq og'zaki ijodining bir nechta na'munalarini qayta ishlab, original asarlar yaratganini ko'rishimiz mumkin. Ulug' nemis shoiri H.Hayne xususida ham shunday deyish mumkin. 1830-48 yillarda Yevropada ro'y bergan inqiloblar H.Haynenini cho'chitib yuborgan, K.Marks bilan do'stlik rishtasini bog'lagan va kommunistik g'oyalardan durst xabardor bo'lgan bu ijodkor 1854 yilda bunday deb yozgadi: “otabobolarimizning ko'p asrlik olijanob mehnati evaziga qo'lga kiritilgan bugungi sivilizatsiya yutuqlari kommunizm g'alabasi sababli xavf ostida qolishini xayolga keltirgan har bir san'atkor va olim qalbini qamrab oladigan qo'rquv hissi meni ham domiga tortadi”¹

Shopenhauer o'zining “Olam iroda va tasavvur sifatida” asarida bayon etgan nuqtai nazarga ko'ra, insoniyat azaldan ikki guruhga: oliy- estetik mushohada hamda badiiy-ijodiy faoliyatga qobil zakovatli kishilar va quyi-taqdiriga sof amaliy, utilitar faoliyat bilan shug'ullanish bitilgan, foyda keltiruvchi kishilarga bo'lingan. F. Nitshe ham “Insoniy bag'oyat, insoniy”, “Zardusht tavallosi” va boshqa asarlarida yuksak madaniyat majburiy mehnat tabaqasi hamda mehnatning, eng avvalo, badiiy faoliyatda, san'atda “ommalashuviga” qarshi turgan erkin mehnat tabaqasi bo'lgan joydagina bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan. X.Ortega-i-Gasset jamiyatni “buyuk kishilar jamiyati va o'rtamiyona kishilar jamiyati sifatida ko'radi. Xalq esa ijtimoiy tuzulma elementlaridan birgina, tarixiy jarayoning qotib

¹ Бухарин Н. Избранные произведения. М., “Ролитиздат”, 1988, стр. 370-71.

qolgan materiyasi, borliqning ikkinchi darajali tarkibiy qismignina, xolos, deb hisoblaydi¹.

Yuqorida tilga olingan olimlarning nuqati nazarida ham aynan madaniyatni ikki turi elitar va ommaviy madaniyat tafovutlanadi. Bilish mumkinki madaniyatning shakllanishi doimiy ravishda shu asnoda kechgan.

XIX-XX asrlar faylasuflari asarlarida elita tushunchasini kengaytirish hamda uni axloqiy va estetik hislatlar ato etilgan qismi sifatida belgilash tendensiyasi ko'zga tashlanadi. Xo'sh, bugungi kunda ommaviy madaniyatni o'rganish va tahlil etish nima uchun dolazablik kasb etmoqda? O'ziga xos bo'lgan bu "ommaviy madaniyat"ni uning genizisini hamda hozirgi jamiyatdagi rolini ilmiy tadqiq etish shuning uchun ham dolzarbki, yosh davlatlarda XX asr so'nggi o'n yilligida sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda jamiyat hayotining ko'p tomonlari tijoratlashuvi, ayniqsa, badiiy va kundalik madaniyatda tuturuqsiz, be'mani, axloqqa zid jihatlar bag'oyat kuchayib borishini rag'batlantiradi. Bu esa yuksak madaniyatni degradatsiya bo'lishiga olib kelmoqda. Albatta, bu o'z-o'zidan sodir bo'lgan emas, iqtisodiy –ijtimoiy, madaniy va siyosiy jarayonlar taqazosi o'laroq shakllana boshladi.

XIX asrda Yevropada ijtimoiy-sinfiy qarama-qarshiliklar avj olib, inqiloblar yuz bera boshlagach, avom xalqda bunyodkorlikka nisbatan vayronkorlikka moyllik kuchliligi ayonlashdi. Sinfiy ustunlikning berilishi quyi va o'rta tabaqa vakillarda davlat va jamiyat ishlariga nisbatan ishonsizlik tuyg'usini keltirib chiqardi. Bunday kayfiyat XVIII asr oxir XIX asr boshlarida ishchilarning ilk kurashlari anarxistik ko'rinishlari ro'y bera boshlashi bilan yanada yorqinroq namoyon bo'la boshladi.

Shunday qilib, madaniyatni ikkiga-elitar (yuksak) va ommaviy (tuban) madaniyatga bo'lish an'anasi bizning davrimizgacha saqlanib qoldi. Ammo ommaviy madaniyat tushunchasi mazmuni biroz torayib, konkretlashdi. Endi u quyi ijtimoiy qatlamlar madaniyatini emas, ko'proq ommaviy ravishda industrial

¹ Ортега-и –Гассет. Естетика. Философия культур.- М.:Filosofiya kultur.- М.:1981.-С.222

(sanoat) usullarida ishlab chiqiladigan va ommaviy axborot vositalari yordamida tarqatiladigan zamonaviy texnologiyalar va qulayliklar sharoitidan vujudga kelgan madaniyatni anglata boshladi.

Jamiyatning industirlashuvi va urbaniztsiyalashuvi G'arb mamlakatlarida XIX oxirlaridayoq hayot sur'atlarini tezlashtirib, madaniy turmushni ham keskin o'zgartirib yubordi. Tezkorlik bilan sanoatlashishga o'tilishi va ishlab chiqarishning rivojlanishi hunarmand va kosiblar mehnatini yo'qqa chiqara boshladi. O'z uyida yoki kichik ustaxonasida mehnat qilayotgan inson endi katta zavod va fabrikalarda mehnat qilishga, vaqtini shunga qarab rejalashtirishga majbur bo'la boshladi. Sanoat ushida ishlab chiqarilgan mahsulotlar qo'l mehnati bilan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni siqib chiqara boshladi. Natijada qishloq aholisining shaharlarga ko'chib ketishiga to'g'ri kela boshladi. Muammo bu bilan hal bo'lib qolgani yo'q. Qishloqdan kelib shahar muhitiga moslashishga qiyinalayotgan odamlarni ko'plab qarama-qarshiliklar kutmoqda edi. Minglab ishchilarni korkona va fabrikaga yaqin joylarga joylashtirish maqsadida ishchilar uylari vujudga kela boshladi. Ko'p qavatli uylarning kichik kvartiralarida yashab, zavod-fabrikalarda kuni bilan ishlaydigan kishi ish joyiga borib kelish uchun transportda ancha vaqt sarflay boshladi. Mehnat bozorida esa raqobat kuchli-ishsiz qolish xavfi ancha yuqori edi. Aholi tig'iz joylashgan shaharlarda o'zini yolg'iz sezadigan, jamiyatdan bir qadar begonalashgan, qishloqdan kelib o'z ildizlaridan ajralgan kishilar, shungdek, ularning keyingi avlodlari do'konlardan shosha-pisha zarur mahsulotlarni sotib olishga ko'ngilochar xavoyi tamoshalarga, konsert, kafe hamda kulublarga borib yoki uyda gramplastinkalar tinglab (keyinchalik televizor va videodisklar ko'rib) yengil-yelpi komikslar va shu kabilarni o'qib biroz dam olishga ham o'rgandi. Bu esa odamlarning bir-biri bilan bo'lgan munosabatlarining yemirilishiga olib keldi. Odamlarning jamiyatdan va bir-biridan begonalashuvi muhitida ko'ngilochar madaniy va sport o'yinlari, tamoshalar, bir turdagi madaniy mahsulotlardan foydalanish, muyayyan sport jamoalari, mashhur sportchilar, artistlar va boshqa "yulduz"larga ishqibozlik omiliga, identlik belgisiga aylandi.

Shu tariqa asta-sekin yangi ijtimoiy-ruhiy kayfiyat va yangi madaniy voqeliklar qaror topdi.

Ushbu kayfiyat va voqelik o'tmishdagi avom xalq madaniy voqeligidan, muhitdan keskin farq qildi. Buni quyidagi omillar bilan asoslash mumkin: ***birinchidan***, madaniy mahsulotlar sanoat usulida iste'mol tovari sifatida ishlab chiqarila boshlandi. Ular takrorlanmas individuallikka, orginallikka ega emas edi. Korxona va fabrikalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar standartlashgan edi va ko'p nusxada ishlab chiqarilgan. Bu esa uning keng yoyilishi va ommalashuviga xizmat qilgan. ***Ikkinchidan***, ayni mahsulotlar iste'molchi yashayotgan asl-hayotiy voqelikni emas, balki xayol va baxtli gipervoqelikni yaratdi. Bu bilan iste'molchini ancha ovutdi, xayolan bo'lsa-da bir dam o'zini baxtiyor sezishga ko'maklashdi. Urbanizatsiya jarayonining shiddat bilan rivojlanishi va kapitalning hal qiluvchi kuchga aylanib borishi odamlar o'rtasidagi munosabatlarni nisbiy qilib qo'ydi. Xususan, odamlar o'rtasida jonli muloqot kamaya boshladi u endi o'zi yaratgan kichik olamida yashashga odatlana boshladi. ***Uchinchidan***, aholi turli qatalamlarining didi va ehtiyojiga, shu jumladan, bioinstinklariga muvofiq behayolik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi mahsulotlarni chiqarishni asta-sekin "qonuniylashtitib"oldi. Ekranlarda va komikislarda aks topgan superqahramonlar mehnat qilib jisman ezilgan, asablari charchagan, o'zini nohaq tahqirlangan va aldangan deb his etuvchi kishilar uchun taskin vazifasini o'tadi. Bir vaqtlar o'z xoxshi va ehtiyojiga ko'ra mehnat qilayotgan kishi bugun korxona rahbarining buruqlarini so'zsiz bajarishga to'g'ri kela boshladi. Bir so'z bilan aytganda insoning erkinligi boshqariladigan rejimga o'ta boshladi. Masalan, aniq ish vaqtining belgilanishi, dam olish vaqtining chegaralanishi va h.k.

U xayolan superqahramon bilan birga "dushmanlari" dan o'ch olar, junbushga kelgan xirsini qondirar, shu tariqa yig'ilib qolgan alamlari biroz tarqalgandek bo'lardi. Ushbu tendensiya bugungi kunda davom etib, hattoki kuchayib bormoqda. Chunki industirlashtirish va urbanizatsiya jarayonlari mutassil rivojlanib bormoqda.

Industirlashuv natijasida katta zavod va fabrikalar yuzga keldi uni boshqarish va ishni tashkil etish uchun esa ishchi kuchini talab qilar edi, oqibatda Yevropaning

barcha mamlakatlariga jadal urbanizatsiya jarayoni boshlanib ketdi: qishloq joylaridan shaharlarga jud ko'p kishilar ko'chib kela boshladi. Mutaxassislarni tayyorlash uchun esa o'qitish tizimi shakllana boshladi. Aholining tig'iz yashashi va bir joyda ko'plab odamlarning ishlashi ularning sog'lig'ini saqlash masalasini ham taqazo qila boshladi. Korxonlar qoshida davolash punkutlari ham yuzaga kela boshladi. Shu tariqa sanoatlashuv jarayonlari ko'plab hunarmandlarni mehnatini sinishiga va ularning shahar hayotiga kirib kelishiga sabab bo'ldi. Oqibatda xalq xo'jaligida yangi kasb-korlar yuzaga keldi. Shahar aholisining ortib borishi shaharlardagi qurilish ishlarini avj oldirib shahar qiyofasini o'zgartirib yubordi. Bunday o'zgarishlar odamlarning ijtimoiy turmush tarzi va madaniy munosabatlariga ham katta ta'sir o'tkazdi. Savodxonlik darajasining oshib borishi odamlarning adabiyot va san'atga qolaversa madaniyatga bo'lgan ehtiyojini ham oshishiga olib keldi.

Natijada, XVII-XVIII asrlar Yevropa adabiyotida shu vaqtgacha noma'lum bo'lgan yani sarguzasht, detektiv, avantyura roman janrlari yuzaga kelib, ko'p nusxda chop etilgani bois kitobxonlar doirasi kengaydi. XX asrning 20-yillarida" ommaviy madaniyat" tushunchasi Yevropada dastlab to'liq salbiy mazmun kasb etdi deyish mumkin. Bunga industrial jamiyat rivojlanib, turli mamlakatlar o'rasida ziddiyatlar kuchaygani oqibatida Birinchi jahon urushiga olib kelgani, urushdan keyin esa mavjud ziddiyatlar saqlanib qolgani, boz ustiga, Rossiyada sotsialistik inqilob yuz berib, vayronkor "jahon revalutsiyasi" g'oyalari dunyo bo'ylab tarqalgani,"Proletkult" kabi o'tmish madaniyatini yo'q qilishga chog'langan tashkilotlar vujudga kelgani sabab bo'ldi. Ular mumtoz gumanizm va ratsionalizm inqirozga uchraganidan, qadriyatlar tizimi ostin –ustun bo'lganidan dalolat edi.

Olimlar, ijodkorlar injener -texnik xodimlar, ziyolilar avom ongi va intilishlarida anaximizmga, buzg'unvchilik va vayron etishga moyillik ustunligini payqadi. "Proletkult "(proletar madaniyat) atamasining o'zi elitar madaniyatga qarshi turadigan yangi, o'ta tajovuzkor sinfiy ommaviy madaniyatni anglatar edi. U xatto xalq (dehqonlar) madaniyatini ham inkor etardi.

Shu o'rinda V. Maykovskiy kabi ulug' iste'dod egalari ham Rafaellarni kelajakka qarab suzayotgan inqilob kemasidan uloqtirib tashlashga chaqirib she'r

bitganini, buyuk rejissyor V.Meywrxoldning akademik teatrlar mulkini (dekaratsiya va kostyumlarigacha) musodara qilib, xalq teatrlariga bo'lib berishga chaqirib, hukumatga xatlar yozganini eslash kifoya. To'g'ri, madaniy sohadagi stixiyali vayronkorlikning oldini olishga bolshivik raxbarlari urindi. V.I.Lenin VLKSMning III syezdida o'tmish madaniy merosini o'zlashtirmasdan haqiqiy kommunist bo'lish mumkin emas, "o'qish, o'qish va yana o'qish", deya xitoblar qildi. Agar bolshivelar hukumatida Lunacharskiy va Chichirin kabi yuksak madaniyatni qadrlaydigan kishilar bo'lmaganida, san'at sohasidagi inqilobiy avangardsitlarni bir qadar jilovlab turmaganda, vayronkorlik miqyoslari qanday bo'lishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin. O'sha davrda proletariat nazariyachilari yetakchilardan hisoblangan N.Buxarinning "Leninizm va madaniy inqiloblari" ma'ruzasida, bir qator nutq hamda asrlarida "elitar" va "ommaviy" madaniyat masalalari yuzasidan G'arb olimlari murosasiz siyosiy baxslar olib borilgan.

Lekin "ommaviy" tushunchasi bugungi mazmunda emas, balki xalq madaniyatini ham o'z ichiga oladigan an'anaviy mazmunda qo'llangan. Buxarin ham, tabiiyki, safdoshlarini vayronkorlikka undamagan. Aksincha, ishonch bildirgan. U Leninning sotsialistik qurilishi nazariyasida madaniy inqilobini amalga oshirish asosiy talablaridan haqida zavq-shavq bilan yozgan.

Ammo ko'pchilik yevropalik ziyolilarni Birinchi jaxon urushi va Oktabr inqilobi oqibatlarini tushkunlikka solib qo'ygan edi. Ular omma tashabbuslari va madaniyatining bunyodkorlik kuchiga, jamiyatni tubdan ijobiy mazmunda qayta qurish g'oyalariga ishonmay qo'ygan edilar.

Ommaviy madaniyatga industrial jamiyatdagi shahar turmush tarzi va istemolchilik psixologiyasi bilan bog'liq xodisa sifatida qarash asosan XX arsning 30-yillarida shakllanadi. Mazkur qarashlarning tizimga keltirilishi va ommaviy madaniyatning alohida tadqiqot yo'nalishiga aylanishi "ommaviy madaniyat" nazariyasi ta'sirida keyinchalik yuz berdi. Industrial jamiyat kapitalizm rivojlanishi jarayonida o'rta asrlar jamiyatiga xos tuzilmalar, xunarmand-kosiblarning kasbiy guruhlarini, korporativ tashkilotlari va shu kabilarni yakson etdi. Zavod va fabrikalarda endi bir-biridan ajratilgan individlar ommasi mehnat qila boshladi. Shahar aholisi ham endi biron

kasbga ixtisoslashgan emas, ko'p qavatli uylardan iborat ishchi kvartiralarda istiqomat qilardi. Kasbiy jihatdan birlashgan jamoaviylik individlar ommasi bilan almashdi. Jamiyatning ommaviylashuvi, jamoaviylikning individualizm bilan almashishi boshlandi. Ushbu holat tanqidi E.Berk, J.De.Mestr, L.T. Bonald asrlarida XIX asrning birinchi yarimidayoq o'z aksini topdi. Ularning asarlarida ommaviy jamiyat konsepsiyasining ilk namunalarini uchratamiz. Ommaviy jamiyat xuddi o'ziga o'xshagan bir xil andozali, bir xil qiyofali ommaviy madaniy mahsulotlarga, bir qolipli turmush tarziga ehtiyoj tug'dirdi. Mazkur ehtiyoj asosida standartlashgan mahsulotlar ishlab chiqarish avj oldi. Ilgari har bir usta yasagan buyum takrorlanmas bo'lib, ustaning mahoratini, didini, dunyoqarashini o'zida aks etar edi. Endi esa fabrikada ishlab chiqilgan buyumlar bir-biridan farq qilmas, ustaning hech qanday mahorat yoki didini ifodalamas edi. Moddiy madaniyatda boshlangan ommaviylik ma'naviy madaniyatga ham tezda tarqalib ketdi. Fanda ommaviy madaniyat ommaviy jamiyatning ichki xususiy belgisidir(immanentidir), degan qarash qaror topdi. F.Nitshe, O.Shpeengler, Ortega-i-gasset, Adorno, N.Berdyaev kabi faylasuflar o'z davri madaniyatini ommaviy jamiyat konsepsiyasi bilan bog'ladi. Ularning xulosasi tushkun edi yuksak madaniyat omma va olomon bilan to'qnashuvda vayron bo'ladi! Takidlash joizki, kapitalizm rivojlanishi jarayonida ommaviy jamiyat nazariyasi ham rivojlandi. U endi ijobiy talqin qilina boshlandi. Nazariya "xalq kapitalizmi", "umumiy farovonlik davlati", "yagona o'rta sinf", konsepsiyalari ta'sirida o'zgardi. Ushbu konsepsiyalarga binoan, ommaviy jamiyatga ijtimoiy-sinfiy farqlar yo'qoladi, odamlarga teng imkoniyatlar yaratildi. Kapitalistik jamiyatda aristokratiya va boshqa elitar tabaqalarning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy mavqeyi tushib ketdi. "Elitar madaniyat" tushunchasi odamlar ongida sobiq aristokratiya madaniyatini anglatuvchi atamaga aylana boshlandi. Shu bois endi fanda ko'proq "yuksak madaniyat" tushunchasi qo'llanila boshlandi. Ommaviy madaniyat atamasi mazmuni ham o'zgardi. Yuqorida ta'kidlanganidek, u zamonaviy texnologiyalar va OAV yordamida yaratiladigan madaniyatni, ko'ngilochar industriya va xordiq chiqarish hamda axborot olish (birja kotirovkalar, narx-navo, jahondagi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy yangiliklar, tovarlar va

xizmatlar reklamasi, turli “yulduzlar” va siyosatchilar hayoti, sport yangiliklari va x.k) va turmushning boshqa qulayliklarini anglata boshladi.

Shunday qilib, ilm-fanda mumtoz olimlar qarashlari ham nazarda tutilsa, ”ommaviy madaniyat” tushunchasini keng (an’anaviy) va tor (zamonaviy) mazmunda qo’llanildi deyish mumkin. Keng an’anaviy mazmunda ”ommaviy madaniyat-bu jamiyatning barcha tabaqalari o’z ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun foydalaniladigan (ist’emol qiladigan) axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, diniy va boshqa g’oyalar, me’yorlar, qoidalar, adabiyot va san’at asrlari, boshqa madaniy mahsulotlardir. U, shuningdek, xalq madaniyati, milliy urf-odatlar, an’analar, marosimlar, folklor, xalq amaliy-bezak san’atini hamda turli ijtimoiy guruhlarning submadaniyatini o’z ichiga oladi.

Zamonaviy mazmundagi ommaviy, madaniyatga hozirgi davr siviliztasiyasi vujudga keltirgan mazmunan sayoz, milliy va ijodiy-individual xususiyatlari xaminqadar, shaklan va mazmunan standartlashgan, sxematik, iste’mol tovariga aylangan madaniyat mahsulotlari, OAV yordamida jamiyat keng tarqalgan, aholi ongiga singdirilgan stereotip (andozaviy) g’oyalar, qarashlar mansubdir. Vaholanki, ”ommaviy madaniyat- madaniyatning murakkab, hamma vaqt bir xil tadqiq qilinmaydigan o’ziga xos shakli. Ommaviy madaniyatni G’arb madaniyati bilan bog’liq hodisa deb tushunish, shuningdek, uni g’yasizlik, sifatsizlik va didsizlik namunasi sifatida baholash keng tarqalgan. Ayni paytda folklor, xalq madaniyati ham ommaviy madaniyat ko’rinishlari sifatida talqin qilinadi. Ommaviy madaniyat chuqur ijtimoiy va madaniy ildizlarga ega”¹ Zamonaviy mazmundagi ommaviy madaniyatga xalq madaniyati kirmaydi, chunki unga yorqin ifodalangan milliy va ijodiy individuallik xos. Xalq madaniyati o’zi mansub bo’lgan mamlakat va mintaqadagina tarqaladi. Zamonaviy ommaviy madaniyat esa milliy va mintaqaviy chegaralardan osongina oshib o’tib, global miqyosda tarqalishga intiladi, kosmopolitik tabiatga ega bo’ladi. U bir qolipdan chiqadi va cheksiz adadlarda ko’paytiriladi. Bu mahsulotlarni ushbu sohaga ixtisoslashgan professionallar guruhi-yozuvchi, stenariynavis, rejissor, bastakor, reklamachi, dizayner, aktyor va

¹ Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug’ati.- T.: Gafur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.- 460-b.

xokazolar yaratsa-da, u o'zining betakror ijodiy qiyofasiga ega emas, balki seriyalab chiqarilgan mahsulotlardir.

Xalq og'zaki ijodining esa aniq muallifi yo'q. Folklor asarlari esa asrdan asrga, avloddan avlodga o'tib keladi. Har bir avlod uni o'zicha talqin qiladi. O'z davri va ijtimoiy-tarixiy zaruratga maqbul variantlarni yaratadi. Umumiy mazmun-mohiyati, syujet barqaror qolaveradi. Bunday asarlar turli versiyalarda tarqalsa-da, ularning har biri boshqasidan ozmi-ko'pi farq qiladi, takrorlanmas xususiyatlarga ega bo'ladi, chunki o'zida baxshining, ijrochining ijodiy individualligini aks ettiradi. Shu bois folklorning har bir varianti va versiyasi nusxa emas, original asar hisoblanadi. Ommaviy madaniyat mahsulotlari esa, faqat oddiy nusxa bo'lib, hech qachon asllikka da'vo qilolmaydi. Ommaviy kommunikatsiya vositalari- matbuot, radio, kinoning (keyinchalik televidenie, internet va x.k) vujudga kelishi, komikslar, ko'ngilochar asarlar, gramplastinkalar (keyinchalik video va audiodisklar) hamda boshqa madaniy iste'mol buyumlarining sanoat usulida ulkan miqdorda ishlab chiqarilishi oqibatida moddiy buyumlar qatorida ma'naviy mahsulotlarning ham standartlashuvi yuz berdi. Ma'naviy-madaniy mahsulotlar iste'mol tovariga aylandi. Ularning shakli va mazmuni mahalliy, mintaqaviy va milliy qiyofalarini, xususiyatlarini yo'qota boshladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlari ommaviy madaniyat rivojlanishining yangi tipi, ommaviy jamiyatni shakllantirishning bosh omillari bo'lgan industirlashtirish hamda urbanizatsiya jarayonlari bilan bog'liq bo'ldi.

1.2. Ommaviy madaniyatning postindustriyal jamiyatda ijtimoiy fenominga aylanishi.

Biz yuqorida ommaviy madaniyat shakllanishining jamiyat industirlashuvi va urbanizatsiya jarayoni bilan bog'liq jihatlarini ko'rib chiqdik. Zamonaviy ommaviy madaniyatning shakllanishi industriyal jamiyatda boshlanib, alohida ijtimoiy fenomen (hodisa) ga aylanishi postindustriyal jamiyatda yuz berdi. Uning vujudga kelishining, tabiiyki, o'z moddiy-iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy omillari bor. Eng avallo, bu jarayonga jamiyat rivojlanishining umumiy tendensiyalari to'g'risida gapirish lozim.

Kapital milliy chegaralardan chiqib, transmilliy kompaniyalar vujudga keldi. Bank-kredit, savdo-sotiq, statistik va buxgalter hisobotlarining, ishlab chiqarish texnologiyalarining, iste'mol buyumlarining birxillashuvi, standartlashuvi yuz berdi. Bu dunyo miqyosida odamlar turmush tarziga, jamiyat hayotining boshqa sohalariga, jumladan madaniy hayotga ham ta'sir ko'rsatdi, jahon miqyosida urbanizatsiyaning yanada kuchayishiga olib keldi. Shaharlarda standartlashgan turmush tarzi qaror topa boshladi. Turmush uchun zarur ro'zg'or buyumlarining standart jamlanmasi bo'lishiga ehtiyoj tug'uldi. Hozir deyarli barcha shaharlar kvartiralarida va qishloq xonadonlarining aksariyatida shunday jamlanmalar-mebel, muzlatgich, gaz (elektr) plitasi, mikroto'lqinli pech, TV, radio, telefon, kompyuter va x.k.lar bor.

Yigirmanchi asrning 70-yillaridan boshlab, ommaviy madaniyat biroz o'zgacha nazariy pozitsiyadan o'rganila boshlandi. Bu davrga kelib jamiyatning industirlashuv bosqichdan postindustrial bosqichga o'tishi madaniyatning ham ommalashuviga olib kelishini isbotlab berildi. Postindustrial jamiyat qaror topa borgani sayin avvallari faqat elitar madaniyatga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zida mujassam qila boradi.

“1760-1830 yillardagi ishlab chiqarish sharoitini o'zgartirib yuborgan, natijada rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti tarkibining tashkiliy-iqtisodiy darajasida tub o'zgarish bo'lishiga olib kelgan, ya'ni manufakturalardan fabrikaga o'tilgan, texnik ixtirolar turkumini anglatadigan, sanoat to'ntarishi deb atalmish jarayonga asos solindi”¹. Bu esa zamonaviy turmush tarzi va madaniyatlarning ommalashishiga keng yo'l ochdi. Birxillashgan turmush tarzi, sanoat usulida behisob miqdorda ishlab chiqiladigan rang-barang standart tovarlarni, xizmatlarni iste'mol qilish ommaviy jamiyatni, u bilan birga zamonaviy ommaviy madaniyatni vujudga keltirdi. Ushbu madaniyatning asosiy belgilari-uning mahsulotlari sanoat usulida ko'p nusxada ishlab chiqiladi, texnologik jihatdan qulay, standartlashgan, mazmunan sodda va sayoz, shaklan ixcham, yaltiroq va ommabop, milliy va ijodiy individual xususiyatlari o'ta zaif yoki tamomila yo'q. Ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalari orqali tarqatilishga moslashtirilgan. Deyarli barcha olimlar zamonaviy ommaviy madaniyatning vujudga kelishi va yashashi, faoliyat ko'rsatishi, o'zgarib borishi va

¹ Sh.G'oyibnazarov.ommaviy madaniyat.-T.;”O'zbekiston”, 2012.27-b.

rivojlanishini bevosita ommaviy axborot vositalari, axborot texnologiyalari shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'laydilar. Masalan, A. Erkayev "Ommaviy madaniyat juda tez va keng tarqaladi. Ommaviy madaniyatda ba'zi ijobiy jihatlar bilan bir qatorda salbiy jihatlar ham ko'p. Eng avallo, ommaviy madaniyat insonni barcha sohalarida, jumladan, madaniyat va dam olish, bo'sh vaqtni tashkil qilish borasida ham individualligini yo'qotgan iste'molchiga aylantirib qo'yadi"-deb ta'kidlaydi.¹ Ommaviy madaniyat mahsulotlari ko'proq bir marta foydalanishga mo'ljallangan. Tez unitiladi, bozor va moda talabi asosida o'zgarib turadi. Shu sababdan tinimsiz yangilanib, ko'payib, texnologik jihatdan zamonaviylashib, modernizatsiyalashib boraveradi. Uning ushbu jihati ham moddiy buyumlarnikiga o'xshaydi. Texnologik eskirganlari yoki modadan chiqqanlari ikkilanmasdan tashlab yuboriladi. Masalan, bugungi kunda gramplastinkalarning, patefon va radiolarning, mexanik yozuv mashinalarining vaqti o'tdi. Ular o'rnini raqimli texnologiyalardan foydalanadigan yangi buyumlar egalladi. Bugungi uyali telefon apparatlarining axborot saqlash xotirasi va har xil opertasiyalarni bajarish tezligi o'n-o'n ikki yil burungi kompuyertlardan qolishmaydi.

Sanoat to'ntarishining va industirlashtirishning rivojlanishi nafaqat iqtisodiyotga, balki amalda Yevropadagi barcha davlatlar ijtimoiy strukturasi ham jiddiy o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.

O'zbekistonda ommaviy madaniyatni ko'pchilik olimlar salbiy mazmunda qo'llaydilar. Masalan, F. Madrahimova zavolga eltuvchi "madaniyat" maqolasida ommaviy madaniyatning faqat salbiy tomonlarini tahlil qilganligini ko'rish mumkin.² Urg'u asosan ommaviy madaniyatning kamchiliklariga beriladi yoki ommaviy madaniyat uni niqob qilib olgan aksilmadaniyat bilan chalkashtiriladi. Ba'zi olimlar ommaviy madaniyat tushunchasiga shunchalik tor va salbiy yondashadilarki, xatto uni olomon yoki to'da madaniyati sifatida hozirgi zamon siviliztasiyasining ijtimoiy hayotda voqe bo'lishining, faoliyat ko'rsatishining asosiy shaklidir degan tariflar ham ucharydi. Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi B. Primovning

¹ Erkayev A.-T.: "Ma'naviyat" 2011. 215-216-b

² F. Madrahimova. Tafakkur, 4/2013.88-89-b.

“Olomon madaniyati” - g’ayriaxloqiy hodisa maqolasida aynan shunday yondashuvni kuzatish mumkin.¹ Yana shu nuqtayi nazarni davom ettiradigan bo’lsak, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo’yicha qo’mitaning 483-sonli xulosasi asosida tayyorlanib chop etilgan internetga in qurgan “o’rgimchaklar” nomli kitobda ommaviy madaniyat bekorchilik ba buzqlik ruknida olomoncha madaniyat iskanjasi deya munosabat bildirilgan.² Maqolada biryoqlama yondashuvni ko’rish bilan bir qatorda msalaning mohiyatini din asosida izohlashga harakat qilingan. Chindan ham, yaqin orada ommaviy madaniyatga nisbatan yomonlashtirilgan madaniyat namunalari yig’indisi sifatida qaray olmas ekanmiz, uni o’zining rang-barangligi jihatidan ko’rib chiqishimizga tog’ri keladi. Radio, TV, internet, zamonaviy axborot vositalari, muloqot, aloqa, hisob-kitob qulayliklari va x.k.barcha zamonaviy ommaviy madaniyatga daxldor. Olomon, to’da- barqaror ijtimoiy guruh yoki birlik emas. Ijtimoiy jihatdan rang-barang. U qisqa muddatga va tasodifdan shakllanadi. Unga turli ijtimoiy tabaqalarga, guruhlarga mansub kishilar kirib qolishi mumkin. Masalan, metro yoki avtobus bekatida to’planib qolgan yo’lovchilar, futbol matchini ko’rishga kelgan ishqibozlar, teatr spektakli tomoshabinlari bunga misol bo’la oladi. Ularni faqat muayyan xizmat turidan foydalanish ehtiyoji to’plagan.

Ko’rinib turibdiki, olomonda yoki to’dada barqaror tizimli manfaatlar, strategik ijtimoiy maqsad va vazifalar bo’lmaydi. Binobarin, ularni qondirish, yuzaga chiqarish, amalga oshirish kabi tizimli g’oyalar, qarashlar, mafkuraviy va madaniy vositalar ham bo’lmaydi. Bu yerda gap jamiyat a’zolari, fuqarolarning umumiy ehtiyojlari, qiziqishlari haqida ketayapti. Jamiyatga futbol ham kerak, futbol ishqibozlari ushbu sport turi rivojlanishidan ma’naviy manfaatdor. Teatr yoki transport rivojlanishi haqida ham shunday deyish mumkin. Bu yerda gap bekatda, stadionda, teatrdan o’sha damda to’plangan kishilar yig’indisi haqida ketmoqda. Ommaviy madaniyatning olomon va to’da madaniyati emasligi zamonaviy sivilizatsiya, zamonaviy jamiyatning usiz faoliyat ko’rsata olmasligida yaqqol ko’rinadi. Ommaviy madaniyat nafaqat zamonaviy

¹ B. Primov. Tafakkur. 3/2012. 108-109-b.

² A.Tulepov. internetga in qurgan “o’rgimchaklar”. T.: ”Movorounnahr” 2015.-36-37 b.

sivilizatsiyaning mahsuli, shuningdek, uning ijtimoiy-madaniy negizi hamdir. Ommaviy madaniyat tushunchasining ilmiy mazmuni aynan ushbu yo'nalishda, ya'ni posindustrial jamiyat, axborot texnologiyalari, globallashuv asri hodisasi sifatida konkeratlashib, barqarorlashib bormoqda.

Ommaviy madaniyatni bugungi kundagidek tushunishning shakllanish bosqichlari, elitar va ommaviy madaniyatga doir klassik, postklassik va zamonaviy falsafa-yu sotsiologiyadagi turli oqimlarga mansub qarashlar A.Kostinaning "ommaviy madaniyat postindustrial jamiyat fenomeni sifatida" degan kitobida ancha batafsil va ilmiy jihatdan xolis yoritilgan.¹ Ushbu mavzu – tadqiq qilingan asarlarning ko'pi uni fenomen sifatida tahlil qilishga, uning Yangi davr Yevropa madaniyatida yuzaga kelish sabablarini aniqlashga hamda hozirgi ko'rinishlarining o'ziga xosligini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Binobarin, nuqtayi nazarlar ko'p, ularning har birini bayon etuvchilar esa shu nuqtayi nazarlar foydasiga oqilona va ishonarli dalil-isbotlar keltirishadi.

Xullas, zamonaviy "ommaviy madaniyat" tushunchasi asosida madaniy mahsulotlarning standartlashuvi va iste'mol tovariga aylanishi, seriyalab chiqarilishi, OAV orqali tarqalishi, milliy va mintaqaviy chegaralardan oshib o'tib, kosmopolitik shakl va mazmun kasb etishi yotadi. U, folklordan farqli ravishda, milliy an'ana asosida emas, xalqaro moda va bozor talabi asosida rivojlanadi. Bilimi va saviyasi o'rtamiyona bo'lgan keng ommaga mo'ljallangan madaniy mahsulotlar shaklan va mazmunan soda, oson tushuniladigan bo'lishi talab etilar edi. Ana shu omillar ularni jo'n, sxematik andozalarga, qoliplarga mos tarzda sanoat usulida ishlab chiqarishga qo'l keldi. Masalan, Amerika kinofilimlarida "yaxshi" yigitlarning "yomon" yigitlarga qarshi kurashi g'alabasini tasvirlash markaziy o'rin egallaydi. Sarguzasht yoki deduktiv, fantastik yoki triller filmlari, sevgi mavzusidagi melodirammalari-barchasida bosh badiiy konflikt "yaxshi" va "yomon" yigitlar o'rtasidagi kurshdan iborat. Hayotda o'z o'rnini topish, muvaffaqiyatga erishish- boylik orttirish va shon-shuhratga ega bo'lish kabi mavzular ham muayyan bir sxema bo'yicha yoritiladi.

¹ Костика А. .Массовая культура как феномен постиндустриального общества. изд.5-ое. М., изд-во ЛКИ ., 2011

Zamonaviy ommaviy madaniyatning yana bir muhim xususiyati to'g'risida shartli ravishda bunday deyish mumkin: madaniyatni o'zlashtirish "kitobiy shakl"dan ko'proq "vizual shakl"ga, ya'ni o'qib-o'rganishdan, aqliy mehnat qilishdan ko'ra ko'proq TV, kino, video, internet orqali ko'rishga, tomosha qilishga, dam olish bilan birlashtirishga o'tib ketdi. Bu juda muhim belgidir. Zero, bunda ommaviy madaniyatning, bir tomondan, aholining keng qatlamlarini o'z ta'siri ostida saqlash, ular ustidan hukmronlik qilish, tez sur'atda tarqalish qudrati aks etsa, ikkinchi tomondan, inson ongi, tafakkuri yuksalishi uchun ahamiyati pastligi namoyon bo'ladi. Odamlar bo'sh vaqtini ko'proq TV ekrani qarshisida o'tkazadi. Ba'zan kafe, klub yoki stadionga borib turadi. Lekin ular o'zaro kam muloqot qilib, bir-biridan va jamiyatdan tobora begonalashib borayotir. Kamayib ketgan jonli muloqot o'rnini ko'proq internet yordamida amalga oshiriladigan muloqot to'ldirmoqda. Vizual ommaviy madaniyat inson tafakkurini, fantaziyasini, tasavvurlarini, mavhum tushunchalarni qabul qilish, taxlil etish va eslab qolish qobiliyatini rivojlantirmaydi. Buni hozirgi ayrim yoshlarning kitob o'qimay qo'yganida, o'z fikrini tushunarli qilib yozma ifoda qila olmasligida, og'zaki nutqning g'alizligida ko'rish mumkin. Vizual madaniyat tayyor stereotip (andozaviy) fikr va g'oyalarni singdirib, inson dunyoqarashini, ongini boyitmaydi, balki boshqaradi. Postmodernizm nazriyachilari- F.Djeymisson, R.Bart, J.Bodriyar, U.Eko va boshqalar vizual madaniyatning ushbu jihatlarini tashvish bilan qayt etib, u chinakam hayotiy reallikka emas, balki o'zi yaratgan suniy reallikda yashashini, "iroda etiladigan omma" ni shakllantirishini, bu fenominga nisbatan klassik uslubdagi taxlilni qo'llab, qadriyatlar nuqtai nazaridan baho berib bo'lmasligini takidlaydi. Vizual jarayonlarning ustunlik qilish tendensiyasini birinchilar qatorida payqagan D. Rismen ommaviy madaniyat "odam- lokator" ni shakllantirishini aytgan edi.

Kitob o'qish jarayonida inson asar tilining, har bir so'zining mazmunini chaqishga, voqea va personajlar munosabatini esda tutib, asarni tahlil qilishga, baho berishga intiladi. Kitobning "matniy" mazmuni inson tafakkuri, tasavvuri va fantaziyasini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi, dunyoqarashini boyitadi. Masalan, badiiy adabiyotni kompyuter orqali o'qish orqali bilan uni kitob orqali

o'qish o'rtasida farq mavjud. Chunki badiiy adabiyotda emotsionallik mavjud bo'lib u insonning tuyg'ulariga ta'sir o'tkazadi uning tasavvur va dunyoqarashini peshlashga yordam beradi. TVning "vizual tasviri" esa insonni chuqur o'ylashga, tafakkur va fantaziyasini rivojlantirishga ko'p ham undamaydi. Aniqrog'i bunga imkon qoldirmaydi. Chunki TV orqali namoyish etilayotgan manzara va voqealar tomoshabin ko'z oldiga tayyor. Ularning efirga uzatilishi sur'ati shunchalik tezki, inson ko'rayotgan va eshitayotganlarni tahlil qilib, anglab yetish va mustaqil xulosa chiqarishga ulgurmaydi. Uning tayyor xolda sindirilayotgan xulosa va fikrlarini o'ylamay-netmay qabul qilishdan boshqa iloj yo'q. Vizual madaniyat inson duyoqarashini, ongini boyitmaydi, balki boshqaradi. "Uchinchi to'lqin" nomli mashhur kitob muallifi E.Toftler vizual madaniyatni qabul etishning "zepping" shakli vujudga kelganini ta'kidlaydi. TV o'z ko'rsatuvlarini tinimsiz ravishda reklama roliklari bilan bo'lib turushi tufayli, reklamani ko'rmaslik maqsadida inson pult tugmalarini bosib, telekanallarni to'xtovsiz almashtirishi oqibatida uning ongida quruq, uzuq-yuluq axborot va taasurolardan hosil bo'lgan o'ziga xos obraz shakllanadi. Bu obraz aqlni, xayolotni ishlatishni, xabarni anglab olishni talab qilmaydi. Inson uzluksiz ravishda axborotni "yangilash", "almashtirish" bilan band. Industirial jamiyat umuman madaniyatga, shu jumladan, yuksak madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Postindustirial, postmodern, axborot jamiyatlarning ta'siri esa yanada kuchaydi. Birinchi galda bu hol madaniyatlarning nisbatan keng tarqalishi, ya'ni ommalashuvi uchun shart-sharoit yuzaga kelganda, ommaning umumiy saviyasi o'sganda ko'rinadi. Shu sababdan amerikalik satsiolog T.Parsons va boshqa bir guruh olimlar ommaviy madaniyatni himoya qilib chiqqan edi. Ularning fikricha, OAV orqali millionlab kishilar jamiyatda kechayotgan voqealardan xabardor bo'ladi, adabiyot, san'atning yuksak na'munlari, ilm-fan yutuqlari bilan tanishadi, bilimi va saviyasini o'stiradi, dunyoqarashini kengaytiradi.

Biroq, ushbu holat aslini olganda "ommaviy madaniyat" tushunchasiga emas, ko'proq "madaniyat ommalashuvi" tushunchasiga daxldordir. To'g'ri, zamonaviy axborot vositalari-TV, internet, audio, videomagnitafon va DVDlar mumtoz san'at durdonalaridan aholining keng qatlami baxramand bo'lishi, madaniyat ommalashuvi

uchun tobora qulay shart-sharoit yaratmoqda buni inkor etib bo'lmaydi. Ammo masalaning murakkab va ziddiyatli boshqa jihati ham bor. "Ommaviy madaniyat" ni madaniyatning ommalashuvi tushunchasidan farqlay bilish lozim. Ommalashuv umuman madaniyat, jumladan, yuksak madaniyat mahsulotlari keng tarqatilishi uchun jamiyatda obektiv zaruriyat va shart-sharoitlar, vosita. Muhit hamda subyektiv intilishlar vujudga kelishi tufayli yuz beradi. Ommalashuv tendensiyasi yuksak va ommaviy madaniyatlarning har ikkisi taalluqli. Madaniyatning ommalashuvi industrial jamiyatda boshlanib, hozirgi postmodern jamiyatida tendensiyaga aylandi. Industrial jamiyat XIX asr oxirlaridayoq sanoat korxonalaridagi ishchilarning savodxon, texnikaviy bilimlar va malakalarga ega bo'lishini taqozo etdi. Bilim va malakaga bo'lgan talab ishlab chiqarish texnologiyalari murakkablashgan, mehnat bozorida esa raqobat kuchaygan sayin ortib boraveradi. Dastlab ommaviy savodxonlikka, keyinchalik esa kasb-hunar va texnik ta'lim paydo bo'lishiga, pirovardida aholining bilimlari, madaniy saviyasi va ehtiyojlari o'sishiga yo'l ochildi. Ommaviy tirajlarda gazetalar, kitoblar chop etildi, gramplastinkalar chiqarildi. Radio va televidenie, kino, internet paydo bo'lgach, ulardan ham ma'rifiy- mafkuraviy, ham tijoriy maqsadlarda foydalanildi. O'quvchi va tomoshabinlarni jalb qilish uchun adabiyot va san'at asrlariga murojaat etildi. Mashhur xonadalar qo'shiqlari yozilgan gramplastinkalarni sotish, taniqli aktyorlar rol o'ynagan kinofilimlarni namoyish etish mo'maygina daromad keltirishi yangi vositalar orqali mumtoz san'at va, umuman, madaniyat ommalashuviga xizmat qildi. Lekin, ta'kidlash lozimki, yuksak san'at asrlarining texnik vositalar orqali ommalashuvi ularning jozibasi, noyoblik xususiyati va sehri pasayishiga, xatto yo'qolishiga olib keladi. Musavvir yagona nusxada yaratgan kartinaning reproduksiyasini ko'rgan kishi asrning tashqi jihatlari, kompozitsiyasi, syujeti to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi. Ammo unga asarning botiniy sehri ta'sir qilmaydi. Ba'zi xofizlarning betakror ovozda ijro etgan qur'on tilovatalari audio, videodisklar orqali tarqatilmoqda. Uni xarid qilgan kishi mashinasida yo'lda ketayotganda yoki uyda choy ichib, suxbatlashib turganda bemalol eshitaveradi. Aslida diniy marosimda jonli ijro etiladigan tilovat tinlovchini ruhiyatiga muqaddas, sirli ta'sir ko'rsatadi. Yaratgan bilan uni bog'laydi. Diniy marosimdagi

muhitning o'zi tilovatgacha tegishli ruhiy xolatni hosil qiladi. Kompakt disklarga yozilgan tilovatning nojoiz vaziyatlarda tinglanishi uning sehrli, muqaddas ta'sirini yo'qqa chiqaradi, tinglovchi va Yaratgan o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlamaydi. Balki maishiy suhbatning o'ziga xos "musiqaviy", "ovozi" foniga aylanadi. Real diniy marosim, ibodat o'zining sun'iy tashqi obrazi bilan almashtiriladi, tinglovchi qalbining ichki tug'yoni darajasiga ko'tarilmaydi. U iste'mol tovariga (ushbu xolatda din bilan bog'liq iste'mol tovariga) aylanadi. Garchi raqamli texnologiyalar tez rivojlanib, rangtasvir janrining juda aniq, originalidan deyarli farq qilmaydigan nusxalarini imkoni bo'lsa-da, ular kartinaning yagonaligi, noyobligi, muqaddas xilqatligi aks etmaydi. San'at maskanidagi, teatr yoki filarmoniyadagi ruhiyat, kayfiyat esa asrlar osha buyuk ijodkor bilan muloqot qilayotgandek his uyg'otadi kishida. Televideniye orqali ko'rsatiladigan teatr spektakli, simfonik konsert yoki muzeylar va arxitektura yodgorliklari, tabiat manzalariga bag'ishlangan ko'rsatuvlarda ham asr jozibasi ancha kamayadi.

Kartinalar galereyasi durdonalarini, mashhur muzeylar osori atiqalarini ommalashtirish niyatida har xil kitob-albomlar nashr etilmoqda, telefilimlar, teleko'rsatuvlar efirga uzatilmoqda. Videodisklar sotuvga chiqarilmoqda. Lekin ular hech qachon galeriya va muzeyga borib, bevosita asar bilan aloqa bog'lashning o'rnini bosa olmaydi. Jonli muloqot, noyoblik yo'qolgan joyda san'atning muqaddasligi, sehri ham yo'qoladi. Shu sababdan ommaviy madaniyat mahsulotlari nafaqat noyob va original emas, balki, ular sehr va muqaddaslik jozibasidan ham mahrum. Ayni payta, alohida ta'kidlash lozimki, dunyoning barcha yetakchi galeriyalariga, muzeylariga borishning, mashhur teatrlar spektakllarini bevosita ko'rishning, simfonik, kamer orkestrlarning jonli ijrosini eshitishning iloji yo'q. Shu sababdan TV orqali ularning ko'rsatilishi, albomlar, DVD disklar, buklet va boshqa vositalar orqali ommalashtirilishi qisman bu kemtikni to'ldiradi. Kishida mazkur durdonalar to'g'risida ancha-muncha tasavvur hosil qiladi. Agar u ko'rgan, eshitgan asarlar, san'atga olib kirgan yangiliklar to'g'risida ilmiy-ommabop, ilmiy-tanqidiy va maxsus maqolalar, risolalar o'qigan, san'atdan xabardor kishi bo'lsa, nusxalardan va teleko'rsatuvlardan olgan ular to'g'risidagi taasuroti, tasavvurlari ancha boy va teran

bo'lishi aniq. Ushbu jihatdan yuksak madaniyatning ommalashuvi ulkan marifiy ahamiyatga ega. G'arb mamlakatlarida uzluksiz davom etayotgan siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy, ijtimoiy-sinfiy kurashlar, turli guruhlarining hokimiyatga intilib, o'zaro olib borgan raqobati asta-sekin qonun ustuvorligi tamoyili va demokratik me'yorlar, qoidalar qaror topishiga olib keldi. Demokratiya tizimining rivojlanishi saylovchilar ovozi uchun kurashni avj oldirdi. Shunga muvofiq, omma ongiga ta'sir ko'rsatish usullari takomillashdi. Mahsulot reklamasi bilan bir qatorda siyosiy reklama va tashviqot ham rivoj topib, rang-baranglik kasb etdi. Nomzodlarni qo'llab-quvvatlab reklama mazmunidagi siyosiy roliklar, bukletlar, plakatlar, bannerlar chiqarilishi, ommaviy konsert va aksiyalar o'tkazilishi rusm bo'ldi. Bularning bari g'arb ommaviy madaniyatining uzviy tarkibiy qismiga aylandi. Z. Bjezinskiy, D. Makdonald, G. Gens, M. Maklyuen va boshqalar ommaviy madaniyat shaxs rivojlanishida va demokratik siyosiy institutlar qaror topishida ijobiy rol o'ynashi har tomonlama asoslashga urinadi. D. Bell ommaviy madaniyat tufayli AQSHda mafkuraviylikdan xoli g'oyalar, obrazlar va ko'ngilxushlik qilishning barchaga baravar tizimi vujudga kelayotganini bundan yarim asr burun e'tirof etgan edi. Chunki ommaviy madaniyat mahsulotlari muayyan bir tabaqaga, sinfga emas, balki jamiyatning barcha a'zolariga mo'ljallangan. Ushbu xolat ommaviy madaniyatning o'ziga ham demokratik xususiyat bag'ishlashini ko'pchilik olimlar qayt etadilar. Shu sababdan, yuqorida qayt etilganidek, g'arbning ba'zi olimlari uni to'liq oqlab, universal ahamiyatini, hozirgi zamon jamiyatidagi yetakchiligini, demokratik xarakterini, ijtimoiy tenglikni e'tirof etadi. G'arbning boshqa bir guruh olimlari esa, bu fikrga qo'shilgan holda, ommaviy madaniyatni qattiq tanqid ostiga olmoqda. Yana bir guruh olimlar uning kuchli va zaif, ijobiy va salbiy jihatlarini baravar yoritishga urinmoqda. Keyingi yillarda ushbu ijtimoiy hodisani himoya qilish, oqlash tendensiyasi tadqiqotchilar orasida kuchayib borayotir. Ammo masalaga bir yoqlama yondashib bo'lmaydi. Masala haqiqatan ancha murakkab. Chunki ommaviy madaniyat juda ko'pqirrali, rang-barang, ziddiyatli hodisadir. U jamiyat hayotining barcha sohalarini- siyosat va davlat idoralari, jamoat tashkilotlari faoliyatidan to alohida fuqarolarning dam olishi, bo'sh vaqtini o'tkazishigacha, ishlab chiqarilish- iste'molgacha, davlat boshliqlarining norasmiy

“galstuklarsiz” uchrashuvlardan - oddiy odamlarning turistik sayohatlarigacha kirib borgan. Ommaviy madaniyat odamlar hayotining aksariyat ehtiyojlarini ta'minlanishi bilan umuman olganda ijobiy rol o'ynaydi. Ularni davr va jamiyat talablariga moslashtiradi.

Zamonaviy iste'mol, turmush tarzi, yashash sifati, maishiy qulayliklar, TV, radio, internet, OKV, elektron aloqa turlari va shakllari ko'proq ommaviy madaniyatga mansubdir. Ba'zi bir demokratik siyosiy va fuqarolik institutlari, ayrim demokratik qoida, me'yorlar va amaliyot, fuqarolarning davlat idoralari, jumladan, oliy davlat organlari bilan kompuyetr va elektron vositalar orqali aloqa qilishi, taklif va mulohazalarini bildirishi, elektron parlamentlar va hukumatalarning tashkil etilishi ham ommaviy kommunikatsiya vositalari va u tufayli vujudga kelgan zamonaviy madaniyat bilan bo'g'liq hodisalardir. Jismoniy va yuridik shaxslarning elektron vositalar yordamida har xil buyurtmalar berishi, savdo –sotiq qilishi, soliq va turli to'lovlarni amalga oshirishi, moliyaviy va statistik hisobotlarni (jismoniy shaxslar daromadlari haqidagi deklaratsiyalarini) tegishli idoralarga topshirishi ham zamonaviy ommaviy madaniyatning iqtisodiy- ijtimoiy shakllaridir. Bugun bank va birja operativlarining barcha turlari masofadan elektron vositalar orqali amalga oshirilishi, har xil shartnomalar imzolanishi mumkin. 2013 yilga kelib, mamlakatimizda ushbu sohada alohida ko'rsatilayotgan xizmatlar yo'nalishi soni yigirmadan oshdi. "Elektron hukumat" tizimining joriy qilish ishlari qizg'in boshlanib ketdi. Elektron kutubxonalardan, internetga ulangan dunyoning istagan kutubxonasi, arxivi, muzeyi va boshqa madaniy yoki ilmiy muassasasidan kerakli axborotni olish imkoniyati, masofadan o'qitish, ilmiy va amaliy konferensiyalar o'tkazish-bular hammasi axborot va madaniyatning ommalashuviga daxldordir. Bu, shuningdek, ommaviy madaniyatning ba'zi zamonaviy ko'rinishlari yuksak madaniyatdan tobora kam farq qila boshlaganidan hamda uning inson hayoti va faoliyatining yangidan yangi sohalariga kirib borishi davom etayotganidan dalolatdir. Madaniyat ommalashuvi jarayonida elitar va ommaviy madaniyatlar o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatib, ba'zi xollarda o'rtachalashgan madaniyat vujudga kelishi mumkin. Ayniqsa, o'rta sinfning turmush tarzi, maishiy hayoti, qiziqishlar doirasi, iste'mol qiladigan moddiy va

madaniy buyumlar bunga misol bo'la oladi. Jamiyat rivojlanishi jarayonida bir zamonlar elitar madaniyatga mansub hodisalar ommaviy madaniyat unsuriga aylandi. Masalan, bundan uch-to'rt asr muqaddam savodxon kishi jamiyatning yuqori tabaqalariga mansub hisoblangan. Jilla qursa, ruhoniylar yoki ijodkor ziyolilar qatoriga kiritilgan. 1870 yili Buyuk Britaniyada umummajburiy savodxonlik to'g'risidagi qonun kuchga kirgan. Endilikda rivojlangan mamlakatlarda butun aholi yoppasiga savodxon. O'zbekiston esa majburiy o'n ikki yillik o'rta maxsus ta'lim joriy etildi. Boshqacha aytganda, O'zbekistonda o'rta maxsus ta'lim ommaviy madaniyat unsuriga aylanmoqda. Lekin ommaviy madaniyat insonga ko'plab qulayliklar yaratishi bilan birga, uning ongiga ziddiyatli, ayrim xollarda ancha salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ommaviy madaniyat mahsulotlari odamlarning iste'mol ehtiyojlarini qondirsa-da ularning ma'naviy dunyosi rivojlanishiga kam ta'sir ko'rsatishini adabiyot va san'at asarlari misolida ko'rib chiqish mumkin.

Ma'lumki, adabiyot va san'at asrlari uch xil ijtimoy vazifani bajaradi: 1)olamni obrazli bilish; 2)odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirish; 3) tarbiyalash. Adabiyot va san'atning pedmeti – inson. Uning ichki dunyosi, tafakkuri va tuyg'ulari olami, hayotga, voqelikka munosabati, ruhiy kechinmalari va x.k. Badiiy asar orqali inson tabiat, jamiyat to'g'risidagi, o'zi, hayotining mazmuni, ma'nosi haqidagi tasavvurlarini, bilimini boyitadi, ranglar, ohanglar, tuyg'ular, ruhiyat kechinmalari xilma- xilligi, nozikligini, inja jilolarini, o'zining yaratuvchanlik salohiyatini kashf etadi va rivojlantiradi. Yuksak san'at kishiga, shunday qilib, ko'pdan ko'p bilimlar beradi. Olamni konkret obrazli bilishda qanchalik buyuk ahamiyat kasb etmasin, adabiyot va san'atning bosh vazifasi, alabtt, odamlarining estetik ehtiyojlarini qondirishdir. Inson- ehtiyojlari uzluksiz rivojlanadigan mavjudot. Aynan shu xususiyat uni hayvonot olamidan ajratib olgan va odamga aylantirgan. Hayvonot olamida biologik ehtiyojlardan, ya'ni yashash va nasl qoldishdan tashqari ehtiyojlar yo'q. Odamalarda esa biologik ehtiyojlardan tashqari turfa xil ijtimoiy ehtiyojlar mavjud. Ular avlodan - avlodga, bir avlod umri davomida ham yildan yilga ortib va o'sib boradi. Ularni moddiy va ma'naviy ehtiyojlarga bo'lish mumkin. Bir ehtiyojning qondirilishi yangi, yanada yuksakroq ehtiyojni vujudga ketiradi. Qorni to'q, o'zini

xavf- xatardan xoli sezgan kishi qo'shiq hirgoyi qilgisi, raqsga tushgisi, biron o'yinchoq yoki buyum yasagisi, surat chizgisi- umuman huzur- halovat va zavq-shavq olgisi keladi. U qushalarning sayrashiga, suvning jildirashiga- tabiat ovozig quloq tutadi. Gullar xididan, chiroyidan, rangidan baxra oladi. O'zi ham tabiatga taqlidan ijod qila boshalaydi: surat chizadi, haykalcha yasaydi, kuy to'qiydi (san'at ana shunday tug'uladi). Bu jarayonda inson tabiatni, shu jumladan, o'z insoniy tabiatini yanada chuqurroq va kengroq bilib oladi. Uning ongi, shuuri, tuyg'ulari o'tkirlashadi, sayqal topadi. Go'zallikka intilish, undan zavq- shavq tuyish, baxra olish, o'zining mazkur sohadagi yaratuvchanlik imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyoji insonda hech qachon intixo topmaydi, ma'lum bir chegarada to'xtab qolmaydi. U ushbu ehtiyojni turli usullarda qondiradi. Xalq og'zaki ijodi va amaliy bezak san'ati, adabiyot va san'atning barcha turlari, janrlari uni qondirishga qaratilgan insonning maxsus ijodiy faoliytidir. Adabiyot va san'at asrlarini o'zlashtirish, yuqorida ta'kidlanganidek, insoning ma'naviy yuksalishiga, tuyg'ulari, dunyoqarashi teranlashishiga, noziklashishiga, ezgulik va go'zallik bilan yo'g'rilishiga barakali ta'sir ko'rsatadi. Natijada odamlar o'rtasidagi munosabatlar yaxshilanadi, mehr-oqibat kuchaydi. Ular o'z hayotini, faoliyatini, muhitini "go'zallik qonunlari bo'yicha qayta yarata boshlaydi", yuksak ideallarni o'zlashtiradi. Shunday qilib, adabiyot va san'at nafaqat insonga bilim beradi va uning ma'naviy, estetik ehtiyojlarini qondiradi, shuningdek, uni tarbiyalaydi, unda asl insoniylikni, ezgulik va nafosatni shakllantiradi. Ayonlashmoqdaki, adabiyot va san'atning bu uch vazifasi uzviy, biri biridan ajralmasdir.

Ommaviy madaniyat mahsulotlarida biz bunday uzviylikni ko'rmaymiz. Boz ustiga, uning bilish, estetik va tarbiyaviy vazifalari o'ta zaiflashib ketganini, biri biridan ajralib qolganini guvohi bo'lamiz. Iste'mol tovari sifatida ular insonning bo'sh vaqtini to'ldiradi, axborotga, xordiq chiqarishiga, tinglash va tamosha qilishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Ma'naviyatiga esa ijobiy jihatdan kam ta'sir ko'rsatadi. Ayrim xollarda, aksincha, ba'zi tuban tuyg'ularini, ehtiroslarini qo'zg'atib, unda tajovuzkorlikni yoki nafs va xirsni uyg'otishi mumkin. Ommaviy madaniyatga mansub asralar, yuksak adabiyot va san'atdan farqli, voqelikni badiiy taxlil qilmaydi,

uning turli nozik jihatlarini ochib bermaydi. Binobarin, teran aks ettirmaydi va ifodalamaydi, balki illyuziyaga asoslangan, sun'iy, notabiiy voqelik yaratadi. Ularning qahramonlari sxematik, biryozqlama, zimmasiga muallif tomonidan yuklatilgan vazifalarni bajarishga "dasturlashtirilgan", jonli insondan ko'ra, ko'proq qo'g'irchoqqa, ramzga, majozga o'xshaydi. U o'yinchoq misoli kishini ovutadi. Jan Bodriyar ommaviy madaniyat mazmunini tashkil etuvchi tushunchaviy birlikni g'oya deb emas, balki "simulyakr" deb atagani bejiz emas. Agar g'oya voqelikning mavhum tushunchaviy yoki badiiy obrazli inikosi bo'lsa, simulyakr inikosning voqelikdan to'liq uzulgan semanti belgisi, ya'ni jonli hayot soyasining soyasidir. Simulyakr ifodalaydigan har xil andozaviy obrazlar, ideallar, munosabatlar, hodisalar yordamida o'ziga xos shartli bo'rtirilgan voqelik- gipervoqelik yaratiladi. Haqiqiy voqelik uni ifodalovchi simulkayakr- obraz, ramz, belgi bilan alamashtiriladi. Simulyakrga nisbatan, olimlar fikricha, haqiqiy yoki soxta degan baholarni qo'llab bo'lmaydi, chunki u voqelikdan to'liq ajralgan. Simulyakr voqelik bilan emas, balki voqelik ramzi bilan munosabatga kirishadi. Shunday qilib, voqelik uni ifodalovchi belgilar bilan to'liq alamashtiriladi. Inson haqiqiy voqelikda emas, simulyakr- suniy ramzlar, shartli belgilar, virtual hodisalar, hayoliy obrazlar va sxemalar olamida yashay boshlaydi. Ommaviy madaniyatning boshqa bir turi- bu targ'ibot- tashviqot adabiyoti va san'ati asrlaridir. Ular ommaviy madaniyatga xos barcha asosiy belgilarga ega: ko'plab nusxalarda ko'paytiriladi, yangi bilim bermaydi, ma'naviy estetik ehtiyojlarni qondirmaydi. Ular insonni tarbiyalashga emas, balki boshqarishga, odamlar ongiga tayyor xulosalarni, fikr va g'oyalargani singdirishga mo'ljallangan. Shu sababli eng qadim zamonlardayoq targ'ibot-tashviqot asarlari ko'plab nusxalarda ishlab chiqarilgan. Masalan, qadimgi Naxshab (Qarshi) joylashgan Yerqo'rg'onda olib borilgan qazilmalar paytida antik davrga oid aholi sig'inadigan ba'zi ma'budlar sopol haykalchalarning qoliplari topildi. Demak ular ommaviy nusxalarda ishlab chiqilgan. Qadimgi Yunonistonda ham ba'zan ayrim xudolar haykali mis va bronzadan bir necha nusxalarda qoliplar yordamida quyilib, turli shaharlar ibodatxonalarida o'rnatilgan.

Zamonaviy reklamaning barcha turlari va shakllari ommaviy madaniyatning yorqin na'munalaridir. Nafaqat jahon bozoridagi, yetakchi birjalardagi ahvol, tovarlar va

xizmatlar to'g'risida, shuningdek, siyosiy partiyalar, ularning nomzodlari to'g'risida ham teleroliklar, TV va matbuot materiallari, axborot beriladi, plaktlar, bukletlar, bannerlar chiqariladi, ommaviy tadbirlar, aksiyalar, dasturlar prezintatsiyasi o'tkaziladi. Bir so'z bilan aytganda, siyosiy reklama yordamida saylovchilar ovozi uchun kurash olib boriladi. Odamlarning ongini avvalambor ommaviy madaniyatning targ'ibot- tashviqot adabiyoti, reklama, ko'ngilochar ommaviy tadbir (shoylar) kabi turlari orqali boshqariladi. Targ'ibot - tashviqot adabiyoti va san'atni yangi bilim (axborot) bermasligi borasida mavjud axborotdan, dalillardan o'ziga keraklilarini tanlab, ularni muayyan siyosiy va mafkuraviy manfaatlarni ko'zlab noxolis, bir – yoqlama talqin qiladi. Zarur xollarda, haqiqatga zid xulosalar chiqaradi. Hatto oqni qora, qorani oq, deb ko'rsatish uchrab turadi. Saylovchilar ovozi uchun turli siyosiy guruhlar, partiyalar o'rtasida kurashning kuchayishi, iqtisodiy raqobat bilan bir qatorda, omma ongiga, didiga va qarashlariga, qabul qiladigan amaliy qarorlari qanday bo'lishiga ta'sir ko'rsatish usullarini takomillashtirmoqda. Siyosiy hayotda ham ommaviy madaniyat sun'iy gipervoqelikni yaratmoqda. Bu, ayniqsa inson huquqlarini ta'minlash va demokratiya tushunchasini talqin qilishda, ushbu masalalar bo'yicha ijtimoiy fikr bilan manipulatsiya qilishda yaqqol sezilmoqda. Jamiyat rivojlanishi jarayonida texnologik imkoniyatlar bilan bir qatorda o'rta sinfnining moddiy – iqtisodiy salohiyati ortmoqda. Bu o'ziga to'q odamlar ommaviy seriyali mahsulotlarni emas, balki buyurtma berib ko'ngliga, didiga mos eksklyuziv mahsulotlarni iste'mol qilishga sharoit yaratmoqda. O'z vaqtida E.To'ffler ushbu xolat orqali ommaviylik va andozaviylik kelajakda yengib o'tiladi, madaniyat ommaviysizlanadi, deya bashorat qilgan edi. Oradan salkam 40 yillik vaqt o'tib zamonaviy ruhdagi eksklyuziv mahsulotlar sifat jihatidan seriyali mahsulotlarga nisbatan ancha durst bo'lsa-da, g'oyaviy, falsafiy mazmun, ijtimoiy vazifalari jihatidan ulardan kam farq qilishini ko'rsatadi. Chunki eksklyuziv mahsulot ham zamonaviy modaga mos bo'lishi lozim. Ba'zi olimlarning yaqin kelajakda dunyodagi ko'plab siyosiy, ijtimoiy, diniy va boshqa ziddiyatlar orta qoldi, chunki har bir shaxs OKV yordamida o'ziga ma'qul individual voqeligini yaratib oladi, degan bashoratlariga ham ishonish qiyin. Chunki jamiyat hayoti alohida olingan

odamalarning individual hayoti jamiyat hayotining faqat bir kichik qismi, xolos. Jamiyatni-ku, qo'ya turaylik, hatto bir oilaning turmushi, oilaviy iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy- maishiy, tarbiyaviy va boshqa ehtiyojlari uning alohida olingan a'zolari ehtiyojlari yig'indisi emas, balki yangi, sifat jihatdan yuqoriroq tashkillashgan sotsium ehtiyojlaridir. Oila to'rt- besh kishi yashaydigan umumiy yotoqxonaga emas, balki mushtarak ijtimoiy organizmdirki, uning o'z yashash va faoliyat ko'rsatish qonuniyatlari bor.

Jamiyat – oilaga nisbatan ham nihoyatda murakkab, ko'ptarmoqli va ko'pqatlamli tuzilma. Birgina iqtisodiyotni olsak, uning qanchalar tarmoqlari, sohalari borligiga, rang – barang institutlardan tashkil topganiga amin bo'lamiz: ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, taqsimot, almashuv, iste'mol, moliya- kredit, soliq – byudjet va h.k. Ishlab chiqarishning o'zi sanoat va qishloq xo'jaligining minglab turlariga bo'linadi. Bundan tashqari, logistika masalalarini hal qilish – korxonalarga xomashyo, butlovchi qismlar yetkazib berish, tayyor mahsulotlarni olib chiqish va iste'molchilarga yetkazib berish lozim. Ularning hech biri o'z – o'zidan faoliyat ko'rstamaydi, balki odamlar tomonidan ishlatiladi va ularning o'zaro xilma – xil, murakkab, ziddiyatlardan hosil bo'lmagan aloqalarga kirishishini taqazo etadi. Boshqacha aytganda, ishlab chiqarish, umuman iqtisodiyot individual emas, balki ijtimoiy xarakterga ega. Jamiyat hayotining har bir sohasi, yo'nalishi ana shunday o'ziga xos murakkab tuzilma. Ularning faoliyat ko'rsatishi alohida olingan insonlar harakati emas, u o'zaro muvofiqlashgan, uyg'unlashgan jamoaviy harakatni, turli tarmoqlarda mehnat qilayotgan jamoalar faoliyatining o'zaro muvofiq yuritilishini taqazo etadi. Odamalarning turmushi va faoliyati, shunday qilib, nafaqat individual, shungdek, ijtimoiy (jamoaviy) xarakterga ega. Aslida mustaqil individual hayotining boshlanishidan avval inson bolasi oilada voyaga yetadi, ota- onasi qaramog'ida bo'ladi, ya'ni uning hayoti eng boshdanoq jamoaviy hayotning bir bo'lagidir. Bog'cha va maktabdan boshlab bola hayotiga jamiyat aralasha boshlaydi. Ishlab chiqarish (ham moddiy, ham ma'naviy) esa, vujudaga keladigan to shu davrgacha ijtimoiy (jamoaviy) mohiyatini saqlab qolgan. Bundan keyin ham shunday bo'ladi. Faqat uning usullari, texnologiyasi, tashkiliy shakllari o'zgaradi. Hozirgi zamon

sivilizatsiyasi sharoitida raqamli texnologiyalar va OKV orqali kimdir o'zining real hayotdan, boshqalardan ajralib turadigan sun'iy voqeligini yaratib olganida ham, bu uning hayotining faqat bir qismi, mehnat faoliyatidan keyingi qismi bo'lib qolaverdi. Yuqorida aytilganlardan ayonlashadiki, ommaviy madaniyat va zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari yaratadigan sun'iy voqelikdan real voqelikni bekor qilolmaydi. Binobarin, jamiyat hayotidagi ziddiyatlar to'liq yo'qolmaydi. Faqat hayot va taraqqiyot xususiyatlaridan kelib chiqib yangilanib, ba'zan mo'tadillashib, kamayib, ba'zan o'tkirlashib, ko'payib turadi. O'tgan asrning 60 – yillarida mashhur amerikalik sotsiolog D.Bell ommaviy madaniyat muayyan tabaqalarga, sinflarga emas, barchaga mo'ljallangani uchun u mafkuraviylikdan, hamma uchun umumiy g'oyalar, obrazlar, ko'ngilochar mahsulotlar tizimini yaratishi to'g'risida olg'a surgan fikrini faqat nisbatan va qisman to'g'ri deyish mumkin. Buni o'tgan davr amaliyoti ancha – muncha tasdiqladi. Ammo umuman olganda, ommaviy madaniyat shaklan mafkuraviysizlashgan bo'lsa- da, odamlar ongini boshqarishga, “bir o'lchovli” konformist, loqayad odamlarni hamda virtual elektron o'yinlar, kompyuter va musiqa bandilariga aylangan yoshlarni, jamiyatda iste'molchilik psixologiyasini shakllantirishga ko'ra, mavjud siyosiy tuzumga va hukumron sinflarga xizmat qiladi. Bu G'arb olimlari tomonidan ko'plab marta qayt etilgan va dalillangan. Ommaviy madaniytning deideologizatsiyalashuvi, ya'ni mafkurasizlashuvi, nisbiy xarakterga ega, ko'proq ichki teran ijtimoiy funksional oqibatlariga emas, balki tashqi jihatlariga – shaklan va yuzaki utilitar, amaliy vazifalariga taalluqli. Globallashuv va axborot texnologiyalari tez rivojlanayotgan bugungi kunda G'arb ommaviy madaniyati va tartg'ibot- tashviqotining “madaniy mustamlakachilik” xuruji kuchaymoqda. Zamonaviy sivilizatsiya yaratgan ommaviy kommunikatsiya va axborot vositalaridan, binobarin, ular orqali milliy chegaralarni osongina bosib, jahon bo'ylab tarqalayotgan ommaviy madaniyatning insonga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ayrim mahsulotlaridan ixotalanib bo'lmaydi. Bu esa alohida, ayniqsa yoshlarda mafkuraviy va ma'naviy – madaniy immunitetni hosil qilishni o'ta dolzarb muammoga aylantiradi.

Shunday qilib ommaviy madaniyat – bir o'lchamli hodisa emas. U o'ziga xos tur va darajaga egadir. Hozirgi zamon madaniyatshunosligida, odatda, “ommaviy madaniyat”ning uchta asosiy darajasini ko'rsatadilar:

1. Kitch – madaniyat (past darajadagi, vulgar, behayolar madaniyati)
2. Mid – madaniyat (“o'rtamiyona” madaniyat);
3. Art – madaniyat (ma'lum badiiy mazmun va estetik qiymatga ega madaniyat).

“Kitch” nemischa “kitschen” olmoshidan hosil bo'lgan va saviyasi past, arzon va jo'n asar yaratib, sotishni bildiradi. Bunday asarlar haqiqiy san'at durdonalari soyasida paydo bo'ladigan bo'sh, tez unutiladigan madaniyat mahsulotlaridir.

Muammolarni cheklangan, hayotdan uzoq qilib tasvirlash, obrazlarni, g'oya va syujetlarni qolipga solish, mayda turmush tashvishlariga o'ralashib qolgan qatlamga mo'ljallangan madaniyat asarlarini yaratish.

Mid - madaniyatining qamrovi keng, darajasi ancha baland. U an'anaviy madaniyatning ayrim xususiyatlarini aks ettirsa ham, “ommaviy madaniyat”ga bevosita taalluqlidir.

Art madaniyati odatda, aholining bilimli qismiga mo'ljallangan “ommaviy madaniyat”dir. Uning vazifasi ommaviy madaniyatni maksimal darajada an'anaviy madaniyat standartlariga yaqinlashtirishdan iborat.

Umuman ommaviy madaniyatni darajalarga bo'lish tendensiyasi alohida ma'noga ega bunday bo'lish, bir tomondan, bizga ommaviy madaniyatning murakkabligi hamda ziddiyatlilikini namoyish qilsa, boshqa tomondan, o'zimizni qiziqtiruvchi hodisani biryoqlama (keskin tanqidiy) emas, balki birmuncha obektiv o'rganish imkonini beradi.¹

Bundan tashqari ba'zi bir mutaxassislar ommaviy madaniyatning yana ikki alohida turini – popmadaniyat va rokmadaniyatni ham ko'rsatadilar, chunki hayot ularning ham yashovchanligini hamda muayyan tabaqadagi kishilarning ongini egallaganligini ko'rsatdi.

¹ Sh ,G'oyibnazarov. Ommaviy madaniyat. T.:“O'zbekiston” NMUI, 2012, 17-b.

Biz ma'naviy hayotimizda faqat zamonaviy sivilizatsiya ta'sirida milliylik qiyofasi xiralashib ketgan, standartlashgan, sxematik, iste'mol tovariga aylangan madaniy mahsulotlardangina iborat bo'lib qolmasligining, unda mumtoz va zamonaviy yuksak adabiyot, san'at asarlari ham munosib o'rin egallashining chorasini ko'rishimiz lozim. Aksariyat yoshlarda kitob o'qishga, o'zbek va jahon adabiyotiga, san'atiga qiziqish uyg'otish, jamiyatda ayniqsa ta'limning barcha bosqichlarida estetik va axloqiy tarbiya saviyasini ko'tarish kerak. Ushbu munosabat bilan respublikamiz oliy o'quv yurtlarida etika va estetika fanlarini alohida predmetlar sifatida o'qitilmay qo'yilgani afsus va tashvish uyg'otadi. Axir ushbu fanlar ma'naviy tarbiyaning fundamental asosini tashkil etadi. Ular o'qitilmasa, tarbiya jarayoni qashshoqlashib qoladi, biryoqlamalikka yuz tutadi. Bo'lajak mutaxassis texnokratga, o'qituvchi va tarbiyachi nasixatgo'y sabsatabozga aylanadi. Ta'lim – tarbiya jarayonida biz milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un, mushtarak o'zlashtirishga urinar ekanmiz, etika va estetika fanlarini umuminsoniy qadriyatlar va qarashalarni o'zida mujassamlagan, o'z predmetlari doirasida inson ma'naviy olami shakllanishi va rivojlanishi qonuniylari, muammolari, zaruriyatlari, ularni hal qilish usullari to'g'risidagi fanlar ekanligini unitishga haqimiz yo'q. Mafkuraviy va ma'naviy – madaniy immunitet chaqiriqlar, nasixatlar, tashviqotlar orqali emas, balki eng avvalo pozitiv bilim berish, uni insoning ichki ishonchiga, e'tiqodiga aylantirish, odamlarda asl insoniy tuyg'ularni tarbiyalash orqali hosil qilinadi. Ommaviy madaniyatga nisbatan odamlarda to'g'ri munosabatni shakllantirish uchun uning barcha ijobiy va salbiy jihatlarini, funksional xususiyatlarini xolis o'rganib, tarbiya jarayonida hisobga olish lozim.

O'zbekistonda ham ommaviy madaniyatga ta'riflar, yondashuvlar mavjud, maqolalar va risolalarlarda uning ko'p qirrali fenomini yoritilmoqda, munosabatlar bildirilmoqda.

1-bob bo'yicha xulosa

1) Industirial jamiyat odamlar turmush tarzini jamiyat iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotini, ijtimoiy-sinfiy tuzulmasini tubdan o'zgartirib yubordi. Sanoat gurkirab o'sdi, urbanizatsiya jarayoni tezlashdi, turmush farovonligi yuksaldi, tabaqaviy mtiyozlar bekor qilindi, asta-sekin umumiy majburiy boshlang'ich ta'lim joriy bo'ldi. Lekin insonni eksplutatsiya qilish, odamlarning o'zaro begonalashuvi, raqboti va individualizm ham kuchaydi. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov qayt etganidek: "Hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyotdan ikki maqsadga- ezigulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin"¹ Dunyoda urbanizatsiya jarayonlarining kechishi nafaqat aholining turmush tarziga, balki odamlarning fel-atvori va mintalitetiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shahar aholisi orasida jamoadan uzoqlashish va begonalashish kayfiyatining yoyilishi, egosentiristik yondashuvning hayot tarziga aylanishi, boshqalarga do'st, hamkor emas, balki, g'anim, raqobatchi deya munosabatda bo'lishning chuqurlashuvi kabi nomaqbul holatlar yuzaga keldi. Hamma narsa, jumladan madaniyat mahsulotlari va madaniy xizmat ko'rsatish ham tovarga, daromad va foyda olish manbayiga aylandi. Mazmunan sayoz, sanoat usullarida katta hajmda ishlab chiqiladigan, lekin bozori chaqqon madaniyat mahsulotlari va xizmatlari ko'paya boshladi. Ular keng ommaga mo'ljallangan estetik va badiiy qimmatini past mahsulotlar edi. Shunday qilib, industirial jamiyatda ommaviy madaniyat deb ataladigan madaniyatning yangi tipi yuzaga keldi.

2) Zamonaviy posindustirial jamiyatda u yirik ijtimoiy fenominga aylandi va dunyoga tarqalmoqda. Ommaviy madaniyat zamonaviy OAV va AKT yordamida milliy chegaralarni osongina o'tib barcha xalqlarni qamrab olmoqda. Buning ustiga ommaviy madaniyatni niqob qilib olgan aksil madaniyat ham keng yoyilib borayotir.

3) Darhaqiqat, globallashuv sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongini zaharlaydigan, ma'naviy dunyosiga xavf soladigan mafkuraviy tahidlar kirib kelishi kuchaymoqda. Natijada ayrim yoshlarimiz to'g'ri yo'ldan chalg'ib, adashib

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'anvaiyat – yengilmas kuch.- T.: "Ma'naviyat", 2008. 112-b.

qolmoqdalar. Ularning ma'naviyatini izdan chiqarib, o'zlarini xudbin va johil qilib qo'yayotgan ommaviy madaniyatning ba'zi jihatlari hamda uning niqobidagi aksil madaniyat bezovtalik uyg'otmoqda. Aslini olganda ommaviy madaniyat juda murakkab va ziddiyatli hodisa. Unga nisbatan o'ta salbiy va bir tomonlama munosabatda bo'lish, nazarimizda nohaqlik bo'ladi. Uni faqat ijobiy baholash (aksilmadaniyat ko'zda tutulmayotir. U shubhasiz, o'ta salbiy hodisadir) ham biryoqlamalilik bo'ladi. Ommaviy madaniyatni kelib chiqishiga oid fikrlarni turli faylasuf va olimlar, jamiyatshunoslar har qaysi davrda o'sha davr nuqtayi nazariga asosan tahlil qilgan. Kimdir ommaviy madaniyatni yaqin davrda paydo bo'ldi (Yelena Smolskaya) deb hisoblasa, yana qaysidir olimlar uning ming yilliklarga (D.Uayt) taqaydilar.

4) Hozirgi davr nuqtai nazaridan qaraganda, ommaviy madaniyat zamonaviy jamiyat mahsuli deyish mumkin. Gap uning kelib chiqishi va shakllanishi haqida ham emas, aslida davr o'tishi bilan ommaviy madaniyatning asosini ijobiy jihatlardan ko'ra salbiy jihatlari ko'proq tashkil etayotganidadir. Ilgari uning milliy mintalitetga moslashishi kuzatilgan, bugun esa uning aksi ro'y bermoqda. Ommaviy madaniyat milliy chegaralardan osongina o'tib, odamlar ongi va ma'naviy hayotini o'ziga moslashtirishga, ikkinchi darajaga tushurishga, hatto ba'zi hollarda an'anaviy qadriyatlarning yo'qolishiga olib kelmoqda. Chunki u inson ongini turmush tarzinini, butun jamiyatni standartlashtirishni ko'zlaydi. Bugun ko'p narsa ommaviylik kasb etmoqda. Bunga asosan texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, mahsulotlarning industrial usulda ishlab chiqarilishi va urbanizatsiya jarayonlari sabab bo'lmoqda.

5) Ommaviy madaniyat o'z taraqqiyotida uch bosqichni bosib o'tdi. Birinchi bosqichda fan va texnika taraqqiyoti ommaviy madaniyatning ilk artefaktlarini yuzaga keltirdi. Bu bosqich XIX asrning ikkinchi yarmidan ikkinchi jahon urushi boshlanishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqichda (ikkinchi jahon urushi tugagan paytdan boshlab o'tgan asrning 70-yillarigacha qadar) rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy o'sish, iste'molchilik kayfiyatining shakllanishi ommaviy madaniyatni ijtimoiy ahamiyatga molik fenomen sifatida

shakllantirdi. Uchinchi bosqichda (XX asrning 70-yillaridan boshlab) G'arbda postindustrial jamiyatning rivojlanishi va ommaviy kommunikatsiya vositalari taraqqiyoti ommaviy madaniyatning ko'payishiga va funksional jihatdan o'zgarishiga, shuningdek jahon bo'ylab yoyilishiga zamin yaratdi.

2-bob Ommaviy madaniyatning ijtimoiy vazifalari va inson ma'naviyatiga ta'siri

2.1 Ommaviy madaniyatning inson va jamiyatni real ijtimoiy voqelikdan chalg'itishi va uning ongini boshqarishi.

Yuqorida ommaviy madaniyat tushunchasi uning kelib chiqishi, shakllanishi va ijtimoiy fenominga aylanishi bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etdik. Demak ommaviy madaniyat deganda omma uchun yaratilgan, uning orzu-umidlari, hoyu-havaslari, ehtiyoj va manfaatlariga mutanosib ravishda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni tushunamiz. Uning mahsulotlari ishlab chiqarish, tarqatish va iste'mol qilish o'zining tijorat xarakteridaligi bilan ajaralib turadi. Ommaviy madaniyat odamlarni va jamiyatni real ijtimoiy-siyosiy muammolardan chalg'itadi va uning ongini boshqaradi (manipulatsiya). Bu orqali odamlarda davlat va jamiyat ishlariga nisbatan loqaytlik va befarqlik kabi illatlar rag'batlantiriladi.

Bugun mutaxassislar soxta "ommaviy madaniyat" ongli insonni ijtimoiy muammolardan, jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan uzoqlashtirish, chalg'itishga qaratilganini qayt etmoqdalar. AQSHlik sotsiologlar R.Mitz va L.Gurkoning fikriga ko'ra, bu illat tafakkurda real hayotdan uzoq, syujetlar, miflar bilan yashashga ishtiyoq uyg'otadi deb hisoblaydilar. Ammo shunga qarmasdan Amerkalik olimlar zamonaviy ommaviy madaniyatning asosiy "oqlovchi" laridir (albatta, amerikaliklar orasida tanqid qiluvchilar ham bor). Ular hatto ommaviy madaniyat aslida amerikacha hodisadir deyishadi (masalan, Z.Bjezinsskiy).

Yevropalik olimlar go'yoki ularga ma'qullaydi. Chunki AQSHda hech qachon aristokratlar madaniyati bo'lmagan, elitar madaniyat o'z ildizlariga ega emas deb hisoblaydi. Bu fikrlarda jon bor. Ommaviy madaniyatning ijobiy pozitsiyada talqin qila boshlanishining ma'lum sabablari bor, albatta. Yigirmanchi asrning 70-yillariga kelib, G'arb mamaktlarida va AQSHda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish sezirali darjda rivojlandi. Natijada iste'molchilik jamiyat taraqqiyotining muhim manbayi sifatida baholana boshlandi. Zikr etilganlarga yana shuni qo'shimcha qilish zarurki, Yevropadagi keskin sinfiy kurashlar hamda Birinchi va Ikkinchi jahon urushlarining vayrongarchiliklari, ularga barxam berishga katta vaqt va ulkan mablag'lar sarflangani, aholining bu davrda qashshoqlanib qolib, xarid qobiliyati pasayib ketgani iste'molchilikka asoslangan ommaviy jamiyat to'liq shakllanishini AQSHga qaraganda ancha ortga surdi. Bundan tashqari, ommaviy ishlab chiqariladigan narxi arzon amerikacha ko'ngilochar madaniy mahsulotlarga ehtiyojni oshirdi.

Soxta "ommaviy madaniyat" aql zid lavhalar, zo'ravonlik, behayolini targ'ib etishi, o'ta jo'n, didsiz va axloqsiz qarashlarni yangilik sifatida, badiiy-estetik kashiyot sifatida targ'ib qilishi orqali inson va jamiyat ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday madaniyat "sohiblari" uchun to'siq yo'q deb hisoblaydilar. Shunday ruhda yozilgan asrlar esa insonlarda yovuzlik va zo'ravonlikni uyg'otmay qo'ymaydi.

Z.Bjezinskiy mashxur "Buyuk shoxmot taxtasi" asrida Amerikaning jahonda hukumronligining to'rta tarkibiy qismini keltiradi. U harbiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy qismlar bilan birga, madaniyatni ham ajartib ko'rsatadi. Jumladan u bunday deb yozadi: "Amerika madaniyat sohasida, uning birmuncha soddaligiga qaramay, ayniqsa, butun jahon yoshlari orasida benazir jozibadorligidan foydalanadi. Madaniy ustunlik Amerikaning globall qudratining yetarlicha baholamagan jihatidir. O'z estetik qadriyatlari haqida kim nima desa desin, amerika ommaviy madaniyatni, ayniqsa, butun jahondagi yoshlarni ohangrabodek

o'ziga tortadi. Uning jozibadorligi o'zi targ'ib etadigan hayotni sevishdan kelib chiqadi, biroq uning jahon bo'yicha jozibadorligi shak-shubhasizdir"¹

Urushlardan keyin ruhan majruh va jisman toliqqan, och-yupun, baxtiqaro, yaqinlaridan ayrilgan odamlarga go'zal orzu-havaslariga to'la, xayoliy baxtli turmushni ko'rsatuvchi, sevgi-muhabbatni kuylovchi asarlar zarur edi. Urush vayrongarchiliklari va asoratlarini bartaraf etish bilan ovora Yevropa bunday mahsulotlarni yetarli miqdorda ishlab chiqara olmasdi. Amerika ommaviy madaniyati bechora yevropaliklar qalbiga go'yoki "malxam" bo'ldi, dinga o'xshab ruhiy kompensatorlik vazifasini bajaradi. Shu sababdan 30-50- yillarda yevropalik olimlar o'rtasida ommaviy madaniyatni tanqid qilish tendensiyasi ustunroq edi. O'tgan asrning 70-yillaridan ommaviy madaniyatni oqlash butun G'arbda, jumladan, Yeropada ham kuchaydi. Bu davrga kelib Yevropa o'zini to'liq tiklab olgan (50-yillar o'rtalarida) va ommaviy jamiyatga to'liq o'tib bo'lgan edi. Ammo ikkinchi jaxon urushidan keyin-XX asrning 50- yillaridan Yevropada ommaviy madaniyatni liberal gumanizm nuqtai nazaridan keskin tanqid qilishni kuzatamiz. Bu Yevropa ilmiy an'analarga, aholisi psixologiyasiga mos edi. Chunki, Yevropada bir yarim asr burun XVIII asr oxirlaridan burjua jamiyatini, u bilan bog'liq ijtimoiy hodisalarni, inson ekspulatsiyasini tanqid qilish ilg'or ziyolilar orasida qaror topgan edi. XIX asr davomida badiiy adabiyot va san'atda, ijyimoiy-siyosiy fanlarda kapitalistik jamiyat illatlari ayovsiz fosh etildi. Hatto, XIX asr adabiyotining yetakchi badiiy usuli tanqidiy realizm, deb ataladi. Yevropaning aksariyat ijodkor ziyolilari ishchilar va xalq ommasining inqilobiy kurashiga xayrixox edi. Ular ezgulik, insonparvarlik va adolat tuyg'ularidan kelib chiqib, ezilgan va jabrdiyda xalq tomonida turardi. XIX asr ijodkorlari sotsialistik talimotlardan ancha- muncha xabardor edilar. Bu ta'limotlardan ayrim radikal xarakterdagi ularni biroz cho'chitsada, utopik va mo'tadil mazmundagilari ularda xayrixoxlik uyg'otadi. XX asr o'rtalariga kelib, tanqidiy ruh va munosabat Yevropada ijtimoiy fikrning aralmas bo'lagi sifatida hali yo'qolmagan edi. Yevropalik lebiral gumanistlarning ko'pchiligi, ayniqsa avlodi yoshlik yillari

¹ Бжезинский З. Великая шахматная доска.-М.,2000.-С. 36-38.

marksizmning ma'lum darajada ta'sirida ham bo'lib ulgurgan edi. Liberal gumanistlar ommaviy madaniyatni axoli ongini boshqarish, shaxsni ma'naviy qaramlikdan saqlash, odamlarni o'zaro begonalashtirish, zulm o'tkazish vositasi deya baxoladi. Ularni qo'llab - quvvatlovchilar turli ilmiy yo'nalishlarga oid olimlar orsida ham kam bo'lmadi. Hozir, ham bu fikrlarni qo'llab – quvvatlovchi tanqidchilar oz emas. Shu o'rinda ularning ayrim baholarini eslash maqsadga muvofiq: sarob baxt mafkurasi(Moran), shaxs harakatini tashqaridan boshqarish (Rismen),”Bir o'lchovli inson”ni shakllantirish (Markuze), erzast- tuyg'ularning (yasama, soxta tuyg'ularning) maftunkor olami (Veblen),klip-madaniyat(Toffler). Hali internet tarmog'i, zamonaviy DVD,”uyali” aloqa va ba'zi axborot texnologiyalari kashf etilmagan 60- yillarda faransus sotsiologi A.Mol bunday deb yozgan edi: “Bugun oddiy ishchi aqlini “to'ldirish” da uning metro afishasida o'qigani, radiodan tinglagani, kino yoki hamkasblari, qo'ni-qo'shnilaridan eshitgani ko'proq rol o'ynaydi; maktabdan esa yarimnut bo'lgan tuhunchalar qoladi, xolos”.¹ Endilikda-chi? Kompuyeter va internet zamonida IT yordamida axolining ongini boshqarish, “ma'qul bo'lmagan” mamlakatlarda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni izdan chiqarish, xatto davlat to'ntarishlari qilish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Buni 2011 yili qaror topgan arab davlatlarida yuz bergan voqealar tasdiqlaydi. O'shanda internet orqali g'alayonchilarning harakatlari muvofiqlashtirilgan edi. “Bizning davrimizda bilimlar asosan ta'lim tizimi orqali emas, balki OAV orqali shakllanadi”², deganida A.Mol haq edi. Bunga qo'shimcha qilib “ongi ham boshqariladi “ deyish mumkin. 60-yillarning ikkinchi yarimi va 70- yillardan boshlab G'arb yoshlarining “ikkiyuzlamachi” burjua madaniyatiga qarshi noroziligini, o'ziga xos isyonkorligini ifodolovchi submadaniyat yuzaga keladi. Unga G'arb olimlari “kontkultura” (qarshimadaniyat) degan nom berdi. Qarshimadaniyat AQSHda ko'proq Vetnam urushiga, irqiy notenglikka, odamlarning o'zaro begonalashuviga, byurakatizmga qarshi yo'naltirilgan edi. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida esa u burjua axloqning, oila va

¹ Мол А. Сотсиодинамика култур .М., 1973, стр.45.

² O'sha asar

nikoh me'yorlarining "ikkiyuzlamachiligi" ga, erkin jinsiy aloqalarning ta'qiqlanishiga, molparastlik va hashamatli boy turmush tarziga hamda davlat siyosatidagi ikki xil standartlarga qarshi qaratildi. 1968 yilda yuz bergan talabalar g'alayoni oqibatida Fransiya prezidenti de Gol iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. Yoshlar norozichilik harakatining o'z nazriyachilari, taqlid uchun namunaga aylangan "dohiy" lari bor edi. Olimlar fikricha, postindustrial jamiyat marksistik tushunchadagi sinfiy kurashlar, sinfiy inqiloblarni inkor qiladi. Ular endi jamiyatning asosiy inqilobiy kuchi proletariat emas, balki lyupenlar, turli marginal qatlamlar, ayniqsa yoshlardir degan g'oyalarni olg'a suruvchi "yangi so'llar" to'g'risidagi ta'limotni yaratishga urindilar.

Ommani ijtimoiy aloqalar vositasida, jumladan, ommaviy madaniyat vositasida nazorat qilish uchun, ushbu ijtimoiy nazoratni amalga oshiradiganlar yoki amalga oshirishga intiladiganlar ixtiyoriga ijtimoiy buyurtma singari qudratli vosita mavjud. Shuni qayt etish zarurki, ommaviy madaniyatni boshqarish metodi bo'lgan ijtimoiy buyurtma barcha jamiyatlarda mavjud, biroq jamiyat tipiga qarab turlicha ish olib boradi. Ommaviy madaniyat usiz mavjud bo'la olmaydi, chunki bu madaniyatni ishlab chiqarish ham siyosiy targ'ibotni ta'minlash bilan, ham davlat va xususiy kompaniyalarni ko'plab moliyaviy hamda moddiy mablag'larni jalb etish zarurati bilan bog'liq.

Fransiyada chiqadigan "Tel kel" jurnali va yoshlarga mo'ljallangan boshqa nashrlarning mualliflari ularga qo'shilib, haqiqatan, hozirgi zamon sharoitida inqilobiy yangilovchi kuch- bu yoshlardir, endi an'anaviy tushunchadagi siyosiy inqiloblar davri o'tdi, ular o'rnini barcha sohalar- tilda, insonlararo munosabatda, badiiy tasvir va ifoda vositalarida, ko'ngilxushlikda va hokazolarda inqiloblar yasash kerak, mavjud me'yor va qoidalardan voz kechish lozim, degan da'vo bilan chiqdi. Yoshlar o'z g'oyaviy rahnamolari sifatida siyosiy ekstrimizm nazariyachisi fransus R.Debre va siyosiy zo'ravonlikni birdan bir masad deb e'lon qilgan F.Fanonni tan oldi. Odatdagidek, nazariyachilar olg'a surgan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-estetik g'oyalar amaliyotchilar tomonidan yanada buzib talqin qilindi, mavjud tuzumni va barcha an'anaviy qadriyatlarni to'liq inkor etib, tugal

niglizimga va be'manilikka aylandi. Ular lisoniy, axloqiy, ayniqsa seksual inqilobiy yasash, yoshlarning turli xil kommunalarini yaratish, narkomaniyani yoyish "burjua dunyoqarashi, ongi" ni yengishning, insonga haqiqiy erkinlik ato etishning birdan bir yo'lidir, deya yoshlarni chalg'itdi. Che.Gevara "inqilobiy yoshlar yoshlar"ning ramziy idealiga aylandi. Yoshlar, talabalar g'alayonlarining ishtirokchilari Che,Gevara surati tushurilgan "futbolka"larni kiyib olib ko'chalarda ommaviy tartibsizliklarni boshladi. G'alayonlar tingach norozilik boshqacha ko'rinishlarda davom etdi. 60-yillar oxirida "xippi", 70-yillarda "panklar" harakati vujudga keldi ayni fenomen 80-yillar oxirida bir muddat yana jonlandi. Ular qarshimadaniyat (kontkultura) aksilmadaniyatga (antikultura) aylandi. Aksilmadaniyat unsurlari va shu kabi insonning hayvoniy tabiatini ochiq ko'rsatadigan kino, video va bosma mahsulotlar legallashib oldi va egalariga katta daromad keltira boshladi. "seksual inqilob" oxir- oqibatda guruhliy nikohga asoslangan asoslangan "shvedcha oilalar" va bir jinsli nikohlarga asoslangan oilalarning paydo bo'lishiga, geyparadlar va shu kabi xodisalarga olib keldi. Qarshimadaniyat va aksilmadaniyatning ijobiy mazmundagi madaniyatga, jumladan, ommaviy madaniyatga bevosita aloqasi yo'q. Aslida ular G'arb jamiyatining ma'naviy inqiroziga tajribasiz yoshlarning g'orlarcha noadekvat noroziligi natijasidir. Uni madaniyatlar interfirensiyasi sifatida baholash mumkin(bu haqda uchinchi bobda to'xtalamiz). 60-70-yillar qarshimadaniyati va aksilmadaniyati bugun tarix sahnasidan tushib ketdi. Qisman shaklan madaniyatsizlashgan submadaniyatga va pornoindustriyaga aylandi. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas edi. Ammo ularning ba'zi unsurlaridan boylik orttirish ilinjida bo'lgan korchalonlar hamon foydalanmoqda. G'arb mamlakatlari yirik shaharlarda seks-shoplar, toples-barlar, striptiz-klublar (shu jumladan ayollar uchun ham) gey-klublar ancha ildiz otib ketdi. Postindustriya biznesning alohida turi sifata qaror topdi.

Binobarin, ommaviy madaniyat, bir tomondan, keng ommaning oddiy didini qondirgani holda, ayni mahalda uning ongiga miflar (xayolot) yig'indisini shakllantiradi, kishilar esa undan foydalanib, biron-bir turmush tarzining to'g'ri

yoki noto'g'ri ekanligi haqida hukm chiqarishadi. Hozirgi zamonda ommaviy ongni boshqaruvchilar televideniye sharofati bilan qanday samaralarga erishish mumkinligini yaxshi tushinib qolishdi. Shuning uchun ham hozirgi televideniye ekranlariga biri ikkinchisiga o'xshaydigan teleseriallar tobora ko'proq chiqarilmoqda. Ularga singdirilgan andazalar umuminsoniy xulq-atvor normalari rolini o'ynashga da'vo qiladi, ularning mustahkamligini qaror toptirishning asosiy didaktik usuli, modalar tez-tez alamshib turushini olgan xolda, bir xil mazmundagi mahsulotni cheksiz variantlarda taqdim etishdan iborat. "Teleekran juda muhim axborot manbayiga aylanayotgan ekan,- deb yozadi Obberreyter,-bilimdonlik hissiga ega bo'lish uchun o'qish va yozishni o'rganish shart emas. Va bu hisni turli-tuman kechinmalar, ularning harakatlanayotgan suratlar vositasida yengil va soda tasvirlanayotgani rag'batlantiradi"¹

Bugun ommaviy madaniyatning globallashuv tendensiyasi kuchayib, uning butun dunyoda, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda "madaniy mustamlakachilik" funksiyasi ortib bormoqda. merikacha ommaviy madaniyatning xalqaro vazifasi sifatida buni Z.Bjezinskiy ham qayt etgan. Olimning fikricha, amerikacha ommaviy madaniyatni jozibador qiladigan omillar uning demokratizmi va ijtimoiy tenglikni ifodalashidir. Bu madaniyatni to'xtatishning iloji yo'q, u butun jahon bo'ylab tarqalmoqda va amerikanacha turmush tarzining, dekokratiya g'oyalarining ustunligini go'yoki "tasdiqlamoqda". Z.Bjeziniskiy mulohazalaridan ko'rinib turibdiki, ommaviy madaniyat G'arb, birinchi navbatda, AQSH manfaatlarini ifodalaydi va o'ziga xos "madaniy bosqinchilik" ni amalga oshiradi. Amalda ham shunday bo'lmoqda. Hatto Yevropa mamlakatlari olimlari va siyosatchilari bundan tashvishga tushib qoldi. Yevropa mamlakatlarida namoyish etilayotgan filmlarning uchdan ikki qismi Xollivudda ishlab chiqilgan. Ba'zi mamlakatlarda Amerika filimlari 80-85% ekran vaqtini egallab olgan. Biroq ommaviy madaniyatga biryoqlama yondashmaslik darkor. Unda kamchiliklardan tashqari, ijobiy jihatlar ham mavjud. Hozirgi zamon sharoitida u bir qator ijtimoiy vazifalarni ado etadiki, bu uning madaniy hayotda yetakchilik qilishini, asosiy rol

¹Обберпейтер Х..Uebermacht der Medien.Zuerich,Оснабрюеск, 1982.-P.61.

o'ynashi, universal ijtimoiy hodisaga aylanishini belgilaydi. A.Kostina ilm-fandagi mavjud funksiyalarni umumlashtirib, ommaviy madaniyatning quyudagi funksiyalarini alohida ajratib ko'rsatadi: 1) odamlarni jamiyat talablariga, turmush tarziga, mavjud voqelikka moslashtirish ya'ni adaptatsion funksiyasi; 2) illiyuziyalar (hayoliy orzular) makonini yaratish; 3) himoyalash va rekreatsion (xordig'ini chiqarish va o'yin bilan band qilish) mexanizmni yaratish; 4) iste'molchilik mafkurasini shakllantiradigan tizimni yaratish.

Ommaviy madaniyat jamiyatda qator funksiyalarni bajaradi bu esa uning hayotiyligini va keng ko'lamda tarqalishini ta'min etadi. *Birinchidan*, ommaviy madaniyat shaxsning turli kundalik ehtiyojlarini qondiradi. Ma'lumki, shaxs turmush darajasi, xususan, uning kundalik hayotiga qo'llanilayotgan moddiy va ma'naviy ne'matlar miqdoriga qarab belgilanadi. Jamiyatlardagi moddiy va ma'naviy ne'matlarning shaxs uchun maqbullligi, ularga ega bo'lish imkoniyatlarining mavjudligi shaxsning hayotdan, ijtimoiy tuzumdan rozilik darajasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu nuqtayi nazardan fikrlaganda, ommaviy madaniyatning ushbu funksiyasi ancha pozitiv xarakterga ega.

Yigirmanchi asrdagi demografik o'sish ommaviy madaniyatni shaxs kundalik ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq funksiyasining bemisl kengayishiga olib. Jahon aholisi miqdorining mutassil o'sib borishi ommaviy madaniyatga taalluqli artefaktlar sonini ham ko'paytirib yubordi. Natijada ommaviy madaniyat shaxs ideallarini, voqelikka munosabatini, qadriyatlar sistemasini shakllantiruvchi qudratga aylandi¹. Bugungi kunda ommaviy madaniyat shaxs ma'naviy ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, shu ehtiyojlarni shakllantirishda, ularning xarakterini belgilashda ham katta rol o'ynamoqda.

Ikkinchidan, ommaviy madaniyat shaxsni ijtimoiylashtirish mexanizimi vazifasini o'taydi. Ma'lumki, milliy va umuminsoniy madaniyat insoniyat tarixi davomida shakllangan qadriyatlar ni shaxs "mulkiga" ayaniradi, uning e'tiqodi va fazilatlarining qaror topishiga xizmat qiladi. Unadan farqli o'laroq, ommaviy madaniyat shaxsni ijtimoiy voqelikka moslashtiradi, u yoki bu guruh miqyosida

1

faoliyat ko'rsatish imkonini yaratadi. To'g'ri, ijtimoiy voqelikka moslashtrish mexanizimi madaniyatning boshqa shakllariga ham xos. Lekin ommaviy madaniyatda bu funktsiya asosiy tarkibiy elementlardan biri sanaladi.

Odatda bunday moslashuv jarayoni jamiyatda mavjud bo'lgan turmush tarzi, norma va prinsiplarlarga bo'ysunish orqali bo'ladi. Ommaviy madaniyatning bu funktsiyasi jamiyatda yuzaga kelayotgan yangi norma va prinsiplarni keng jamoatchilikka singdirishga ham imkon yaratadi.

Uchinchidan, ommaviy madaniyat rekreatsion (lonincha “gesreare” – “tiklanmoq”, xordiq chiqarmoq”, “sog'aymoq” so'zlaridan) funktsiyani bajaradi. Shaxsni ruhiy tushkunlikka yetaklovchi omillar ko'payib borayotgani bugungi kunda ushbu funktsiyaning roli ayniqsa oshib bormoqda. Jadallik bilan rivojlanib borayotgan axborot tizimi, globallashuv jarayonlari insonda yolg'izlik hissini kuchaytirmoqda. Ommaviy madaniyat uni ana shu yolg'izlikdan qutqaradi. Inson u yoki hammabop mahsulotlarni xarid qilar ekan, o'zini ko'pchilikning biri sifatida his etadi.¹

“Ommaviy madaniyat xordiq chiqarish, ko'ngil ochish, turizm, sport, o'yin komplekslari industiriyasini yaratar ekan, insonga dam olish, kasbiy faoliyatdan biroz chalg'ish, ma'naviy kuchlarini tiklash, ruhiy barqarorlikka erishish imkonini beradi”.² Jadallashib va murakkablashib borayotgan hozirgi zamon sivilizatsiyasi sharoitida xordiq chiqarish va kasbiy faoliyatdan bir oz chalg'ish malakasi va imkoniyatlari katta ahamiyatga ega. Bu, bir tomondan, shaxsning kasbiy malaksiga, ikkinchi tomondan esa, ijtimoiy kayfiyatiga ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, ommaviy madaniyat gnosologik funktsiyani bajaradi. Axborot jamiyati shakllanib borayotgan, xususan axborotlar hajmi yil sayin kengayayotgan, qadr-qimmati oshayotgan bugungi kunda mazkur funktsiyaning ahamiyati ayniqsa e'tiborli. U turli ta'lim sandartlari asosida amalga oshirilayotgan o'rta va oliy ma'lumot, turli lug'atlar, ensklopediyalar, ma'lumotlar bazasi, Internet, OAVlari orqali va shu kabilar orqali namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa yangi axborot

¹Буристин Д.Амереканс:демократическая опит.-Изд. Группа Прогресс- Литера,. 1993.-с.183

² Климова Л Е Массавая культура И Личност.Дисс. канд филос н- Ставрол., 2005.-с.32.

texnologiyalarining rivojlanishi axborot olish va undan foydalanish, o'z ma'lumotlarini oshirish, uzoq masafadan turib ta'lim olish, gnosologik ehtiyojlarni qondirish uchun katta imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Yangi asr arafasida ommaviy axborot vositalari ham keskin rivojlandi. Bugungi kunda turmush va xalq xo'jaligi barcha sohalari maxsus ommaviy axborot vositasi orqali yoritib boriladi. Internetning rivojlanishi shaxsning u yoki bu sohaga dior ma'lumotlarini olish imkoniyatini yanda kengaytirdi. Oqibatda, ommaviy axborot vositalari shunchaki ma'lumot yetkazish vositasi emas, shaxsning didini, axloqiy qadriyatlarini, e'tiqodini rivojlantiruvchi manbaga aylandi.

Yangi asr arafasida kishilik jamiyatining muarkkab tus olishi, turmush tashvishlarining ko'payishi, negativizmning ildiz otishi shaxsning eskapizmga(voqelikdan orzular dunyosiga qochib o'tish xoxshi) intilishini kuchaytiradi. Odamlar hayolan o'zini ermak teleseriallar qahramonlariga o'xshatadi, raqiblar yoki yomon ko'rgan kishilarini ulardagi salbiy personajlarga qiyoslaydi, yomonlik baribir jazolanadi, deb o'zini ovutadi.

Ommaviy madaniyat kishilar hayotining turli tomonlarini o'ziga bo'ysundirib, zamonaviy jamiyat kishilarining turmush tarzi va uslubini shakllantirib, ijtimoiy muammolar hamda antagonizmlarni anglash yo'lida kuchli to'siqqa aylandi. Biz yuqorida turli munosabatlar bilan ommaviy madaniyatning boshqa funksiyalari haqida gapirib o'tdik. Ularning har biri to'g'risida batafsil fikr yuritish, turli vaziyatlarda turlicha namoyon bo'lishi, inson va jamiyatga ta'sir ko'rsatishini ochib berish mumkin. Ba'zi xollarda jamiyatda qanday qilib sun'iy ravishda ommaviy psixozlar, har xil ksenofobiyalar OAV va siyosiy texnologiyalar orqali vujudga keltirilishi haqida gapirish mumkin. Lekin biz yuqorida aytilganlar bilan cheklanib, faqat bir narsanini qo'shimcha qilmoqchimiz: zamonaviy axborot texnologiyalari shu darajada rivojlanib ketdiki, hatto aholini ham yoppasiga nazorat qilish, odamlarning xususiy hayoti va muloqotlarini kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'ldilar. 2013 yil iyun oyida AQSH maxsus xizmati vakilki Edvard Snouden butun dunyoni bu haqda ogohlantirib, AQSH maxsus xizmatlarini bunday ish bilan shug'ullanayotganini fosh etganini eslash kifoya. Demak,

zamonaviy ommaviy madaniyatning odamlar ongi bilan manipulatsiya qilishi, uni boshqarish yangi texnik imkoniyatlar va vositalar bilan boyimoqda. Zamonaviy sivilizatsiyaning texnik qulayliklaridan voz kechib bo'lmaganidek, u yaratgan ommaviy madaniyatning ham ko'pchilik turlaridan voz kechib bo'lmaydi, albatta. Biroq ushbu madaniyatning ba'zi ko'rinishlari, qimor yoki narkotiklar kabi, insoning ma'naviy dunyosini yemirishga qodir, ayniqsa yosh bolalar va o'smirlar psixologiyasiga juda tez ta'sir ko'rsatadi. Bugun ko'cha-kuyuda qulog'iga "uyali" telefonning "shnur"ini taqib olib, musiqa tinglab ketayotgan yoshlarni har qadamda uchratish mumkin. Kompyuter o'yinlariga o'rganib, uning bandisiga aylanib qolganlar bolalar o'rtasida anchagina topiladi. Chet ellarda hatto kompyuterga tobeklik kasallik sifatida davolanmoqda. Bizga ham musiqa bandiligi, kompyuter bandiligi dardiga duchor bo'lgan yoshlar yoshlar soni yildan yilga ko'paymoqda. Hatto dars payti ayrim o'quvchilar, ba'zi talabalar jimgina qulog'iga "shnur" tiqib musiqa tinglayotganiga yoki yoki "uyali" telefoni yordamida elektron o'yinlar bilan mashg'ulligiga guvoh bo'lasiz. Yozma adabiyot, badiiy saviyasidan qat'i nazar, bir vaqtlar faqat elitar madaniyatga mansub hisoblangan. Bugun esa yozma adabiyotni ham, kino san'atini ham yuksak va ommaviy madaniyatlarga birdek daxldor ijod turlari deyish mumkin. Har bir badiiy asarning inson ma'naviyatiga ta'siri uning yuksak yoki ommaviy madaniyatga mansubligi bilan belgilanadi. Aksariyat zamonaviy detektiv, fantastik va sarguzasht janrlarga oid asarlar katta badiiy-estetik qiymatga ega emas. Ular o'quvchilarning ma'lum "badiiy axborot"ga nisbatan ma'lum ehtiyojini qondirishga, dam oldirib, vaqtini xushlashga mo'ljallangan iste'mol tovarlaridir. Bu, ayniqsa aksariyat kino va telefilmlarga taaluqli. Vampirlar, har xil dahshatli maxluqlar, manyaklar, qotillar, yovvoyi qabilalar qo'lga tushib qolgan kishilar taqdiri va kurashi, giyohvand moddalar yetishtiruvchi guruhlar jinoyati va h.k.larni ko'rsatuvchi filmlar ommaviy madaniyatning tipik mahsulotlaridir. Ular inson didini, ma'naviy ehtiyojlarini o'ziga to'liq bo'ysundirib olishi hech gap emas. Jangari filmlarni, yakama kurashlar, ayovsiz mushtalashishlarni ekranda ko'rib uyg'ongan ayrim yoshlar hatto boks bo'yicha televideniye olib ko'rsatayotgan jahon va qit'a

birinchiligi musobaqalarini, professionallarning chempionlik jangini tomosha qilishdan zerikadi. Chunki real sport musobaqalarida, jangari filmlardagidek, fantastik zarbalar, beshavqatlik, noinsoniy og'riqqa bardosh berish va boshqa giperbolik, mubolag'aviy ko'zbo'yamachiliklar, g'ayritabiylilik, ya'ni gipervoqelik yo'q.

Ommaviy madaniyat mahsuloti insonni voqelikdan har tomonlama chalg'itadi, uning intellektini zanjirga soladi, muammoli narsalar o'rniga qiziqarli narsalarni taqdim etadi. Ommaviy kommunikatsiya vositalarining ko'ngilochar dasturlarga katta o'rin berishi ko'proq shu xolat bilan izohlanadi. Ularning rang-baranligi, aslida, birgina narsani-ommaviy madaniyat andozalari majmuyini tiklash usuli bo'lib chiqadi. Mohiyatan bir xil mazmundagi narsa tashqaridan ko'zga tashlanadigan, har xil shaklda kun-bakun taqdim etiladi. Faylasuf olim A.Erkayev: "Ommaviy madaniyat dunyoda juda tez va keng tarqaladi. Ommaviy mdaniyatda ba'zi bir ijobiy jihatlar bilan bir qatorda salbiy jihatlar ham ko'p. Eng avvalo, ommaviy madaniyat insonni barcha sohalarda, jumladan, madaniyat va dam olish, bo'sh vaqtini tashkil qilish borasida ham individualligini yo'qotgan iste'molchiga aylantirib qo'yadi. Uning iste'mol qilayotgan ma'naviy-madaniy mahsulotlari, san'at asarlari esa standartlashgan, milliy qiyofasiz (pop-art) tovarga aylanadi. Musiqada va ashulachilikda rep, rok kabi janrlar, jangarilik, mistik-fantastik filmlar, trillerlar, blokbasterlar fikrimizni tasdiqlaydi. Ommaviy madaniyat niqobi ostida vaqti-vaqti bilan paydo bo'ladigan turli ijtimoiy harakatlar va guruhlar (xippilar, panklar, rokkerlar hamda geylar(besoqollar) harakati, antiglobalistlar va sh.k.), faxsh va zo'ravonlikni, vampirlik va jodugarlikni targ'ib qiluvchi filmlar, disklar va boshqalar ta'sirida esa inson shaxsini yemirishga, jamiyatni degumanizatsiya qilishga olib keladi... Bunday sharoitda yosh avlodni, milliy madaniyatni qanday himoya qilish kerak, degan masalaning o'zi jiddiy siyosiy, ma'naviy va ilmiy muammoga aylandi"¹.

Chet ellarda zamonaviy agressiv kompyuter o'yinlari ta'sirida ruhiyati yemirilgan ayrim o'smirlar maktabda o'z sinfdoshlari va o'qituvchilariga avtomatik qurollardan o'q ochib, qotillik qilganlari to'g'risida ma'lumotlar bot-bot

¹Erkayev A.- O'zbekiston yo'li. "Ma'naviyat" 2011.215-216-b

tarqalib turadi. Biroq ommaviy madaniyatni faqat jangari filimlar, rok muzika yoki kompyuter o'yinlari tashkil etmaydi. Ko'pchilikda ommaviy madaniyat ommaviy madaniyat agressivlikni emas, balki real hayotga befarqlikni, loqaydlikni, ma'naviy infantillikni tarbiyalaydi, ya'ni kattarganda ham ularda balog'atga yetmagan yosh bolaga xos ruhiy kamchiliklar saqlanib qolishiga, ma'suliyat va mustaqillik tuyg'usi yetarlicha shakllanmasligiga sabab bo'ladi. Bundaylarning hayotiy tutumi "Sen menga tegma, men senga tegmayman. Men bilan ishing bo'lmasin. Menga shunday hayot yoqadi" kabi tamoyillardan tashkil topgan. Ommaviy madaniyat ijtimoiy-ma'naviy loqaydlik qatorida milliy urf-odatlar, an'analar, milliy madaniyat, yanada kengroq qaralsa, milliy mafaatlarga nisbatan befarqlikni zimdan shakllantira boradi. Vatanparvarlik, faol fuqarolik, xalqchilik va milliy o'zlik tuyg'ulari kishida zaiflashib ketadi. U o'zini, nari borsa, dunyo fuqarosi, butun insoniyat farzandi deb hisoblay boshlaydi, amalda ko'pincha bunday o'y-fikrlar ham unga yot bo'ladi. U endi infantil, komformist, befarq va loqayd, shijoati, tashabbusi so'ngan. Hayot oqimi qayoqqa boshlasa, shunga ergashadi. Ijtimoiy holatini o'zgartirishga intilmaydi, oldiga yuksak maqsadlar qo'ymaydi. Shunday qilib, ommaviy madaniyat insonni haqiqiy, real voqelikdan, hayotning real muammolaridan chalg'itadi. Hayotini, turmushini sun'iy lashtiradi, virtuellashtiradi. Bu shaharlararo munosabatlarga ham taalluqli. Begonalashish kuchayib, do'stlik, ulfatchilik, jonli muloqot odamlar o'rtasida, birinchi navbatda yoshlar o'rtasida kamayib ketdi. Muloqot makoni endi-internet. O'zini, o'zligini namoyon etish internetdagi har xil ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladi. Xullas, ommaviy madaniyat ko'plab kishilar hayotida real voqelikni siqib chiqarish, uni virtual voqelik, virtual muloqot bilan almashtirmoqda. Ommaviy madaniyatning inson ma'naviyatiga shunday ta'sirini ham unutmasligimiz, bu ta'sirini imkon qadar minimallashtirish choralarini ko'rmog'imiz lozim. Yoshlarni kitob o'qishga qayta o'rgatmoq, mumtoz va zamonaviy yuksak san'at asarlariga qiziqitirmoq, estetik va axloqiy saviyasini ko'tarmoq kerak. Bolalar adabiyotiga, umuman bolalar uchun mo'ljallangan musiqa, ashula, teatr, kino asarlari yaratishga

e'tibor kuchaytirilishi, jamiyatda bunday asarlarni yaratuvchilar uchun puxta o'ylangan rag'batlantirish tizimi ishlab chiqilishi kerak.

2.2 Iste'molchilik psixologiyasini shakllantirish

Ommaviy madaniyatning ijtimoiy funksiyalaridan eng tez namoyon bo'ladigan va madaniy turmush voqealarini aks ettiradigani bu- iste'molchilik psixologiyasini shakllantirish mexanizimidir. Ommaviy madaniyatning iste'molchilik mafkurasi mexanizimni yaratish to'g'risida gapirganda, u asosan reklama orqali odamlarni muayyan mahsulotni xarid qilishga "majburlashi"ni eslatish lozim. Ushbu mahsulotni sotib olmasang, sen go'yoki o'zingni hozirgi zamondan ortda qolgan, konservativ, didi past kishidek sezasan. Ko'p xollarda iste'molchi uchun mahsulotning haqiqatan unga kerakligi emas, hatto mahsulot sifati ham emas, balki uning iste'molchida mavjudligi, mahsulotning brendi- tovar belgisi, qaysi kompaniya tomonidan ishlab chiqilgani muhim hisoblanadi. Boshqacha aytganda, real ehtiyoj uchun zarur mahsulot, unchalik zarur bo'lmagan mahsulot va modaga kirgan brend bilan almashtirilmoqda.

Ommaviy madaniyat odamlarda va jamiyatda iste'molchilik psixologiyasini rivojlantiradi va iste'mol jamiyatini yuzaga ketiradi. "Iste'mol jamiyati" atamasini ilk bor nemis ijtimoiy psixologi va psixoanalitigi Erix Fromm istifodaga kiritgan. Iste'mol jamiyati ijtimoiy munosabatlar majmuyi bo'lib, unda bozor vositasidagi individual iste'mol muhim rol o'ynaydi. Ehtiyojlar uzliksiz o'sib borgani sayin iste'molga bo'lgan talab ham o'zgaradi. Radio, televideniye va internet orqali tarqatilayotgan reklama materiallari, ko'cha va xiyobonlardagi bannerlarda namoyish etilayotgan ko'rgazmalarda "Faqat siz uchun", "Baxtinga erish", "Xizmat kafolatlangan" kabi chaqiriqlar odamlar ongini boshqarmoqda. Reklamalarning takrorlanaverishi odamlarda shu to'g'ri ekan, sifatli va kafolatli degan fikrni yuzaga keltirmoqda. Shu orqali odamlar va jamiyat ongiga ta'sir o'tkazadi.

Ayni payda G'arbiy Yevropa va AQSH da kishilarning gedonistik intilishlarini, iste'molchilik kayfiyatini oqlovchi, ulug'lovchi ta'limotlar ham rivojlanib bordi. Aniq maqsadga bo'sundirilgan faoliyatni hayotiy strategiyaga aylantirish, aqlni muvaffaqiyatga erishish taktikasini ro'yobga chiqaruvchi qadriyat sifatida baholash, borliq asoslarini aniqlashga emas, muammoviy holatni bartaraf etish imkonini baradigan uslublarni o'ylab topishga intilish haqiqatni ma'lum manfaatga bo'sundirilgan nisbiy tushuncha deb bilish, shaxs ijtimoiy maqomini yaxshilashga xizmat qiladigan oqilona etikadan foydalanish, shaxs ehtiyoj va manfaatlarini birlamch qadriyat deb bilish- instrumentalism, operatsionalizm, pragmatism, pozitivizm kabi ta'limolarning ushbu prinsiplari insoning olamga iste'molchilik munosbatini asoslab berdi, iste'molchilik kayfiyatining keng ildiz otishiga poydevor yaratdi.¹

Bugungi kunda odamlarning ijtimoiy turmush darajasi birxillashib bormoqda. Iste'molga bo'lgan talab ham xuddi shunday asosga ega. Kundalik iste'mol mahsulotlari hammabopligining o'sib borishi nafaqat mahsulot qadr-qimmatini, balki uni xarid qilishning maqomini ham tubdan o'zgartirdi. Avval mahsulot qadri- qimmatini uning betakrorligi bilan belgilangan bo'lsa, endi foydalanilishi me'yori va ko'lami asosida aniqlanadigan bo'ldi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, qaysi mahsulot ko'proq xaridorgir bo'lsa, shu mahsulot qadrliroq sanaladi, uni ishlab chiqarishga e'tibor kuchatiriladi. Iste'molchi zaruriy ehtiyojga qarab emas, davr va moda talabiga qarab harakat qiladigan bo'lib bormoqda. Masalan, talab darajasidagi mashinasi bor odam yangi markadagi mashina chiqsa olishga harakat qiladi. Garchi unda bunga ehtiyoj bo'lmasada. Yo'qsa u o'zini zamondan orqada qolgan, qoloq iste'molchi sifatida his qiladi. Kiyim-kechagu oziq-ovqatdan tortib maishiy texnika vositalari va uy-joyga qadar barcha-barchasi kishilarning ijtimoiy maqomi va turmush darajasini belgilaydigan qadriyatga aylandi. Kishilarga esa ularning e'tiqod va fazilatlariga qarab emas, iste'mol qilayotgan mahsulotlariga qarab baho beradiga bemoqdalar. Bunday holatlarni nafaqat moddiy balki, ma'naviy hayotda ham kuzatish mumkin. Masalan, odamlarning mumtoz

¹Костика А. .Массовая культура как феномен постиндустриального общества,- М.: Изд. LKI, 2011.- С .89-90.

madaniyat na'munalariga eskilik sifatida qarab ayni davrda iste'molda bo'lgan madaniy mahsulot (xit qo'shiq, film, adabiyot)larga ruju qo'yishi. Siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga ham befaqlik kabi munosabat shakllanadi. Boshqacha aytganda, ommaviy madaniyat odamlarni asl maqsad va muddaolaridan uzoqlashtirmoqda. Muammoli masalalarni hal etish, ularning yechimini izlash o'rniga "Mening nima ishim bor, qornim to'q, ustum but" qabilida ish yuritishni taklif etmoqda.

Boshqa tomondan qaraganda, ommaviy kishi o'zining qoloqligini va cheklanganligini tushunadi, ammo bu hol uni o'zini takomillashtirishga rag'batlantirmaydi, ushbu olijanob jarayonga undamaydi, chunki u o'zini ommadan ajratishning butunlay bo'lakcha, yangi imkoniyatga aga bo'ldi.

Ommaviy madaniyat" iborasining keng tarqala boshlashi XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to'g'ri kelishini hisobga oladigan bo'lsak bu davrga kelib texnika taraqqiyotida ham jadallashuv kuztililadi. "Ommaviy madaniyat" an'anaviy madaniyatning ma'lum yo'nalishi sifatida emas, balki madaniyatdagi sifat o'zgarishi, hayot taqazosi asosida yuz berdi. Ommaviy axborot va kommunikasiya (radio, kino, televideniye, ko'p nusxali gazetalar, suratli jurnallar, internet) vositalarining keskin rivoji va tarqatilishi bunga sabab bo'ldi va bu iste'molga bo'lgan talabni ham tubdan o'zgartirdi. Ma'naviy boyliklarni industrial tijorat ishlab chiqarish va tarqatish, madaniyatni demokratlashtirish, aholi bilim darajasi o'sishi bilan birga uning ma'naviy ehtiyojlarida pasayish jarayoni kuzatila boshladi.

Madaniyat industiryasining maqsadi bilimni kengaytirish emas, balki tiyiqsiz iste'mol qilish, binobarin, ommaviy madaniyat bisotining yaratuvchilari va sohiblari uchun daromadni ko'paytirish, tijorat samarasini qo'lga kiritishdan iborat. Eng e'tiborlisi, faqat iste'mol uchun mahsulot ishlab chiqarish, buning uchun fan va texnika mahsulotlaridan foydalanish uslubi madaniyat sohasiga ham kirib kela boshladi. Masalan 1886 yilda linotip va muqovalovchi mashina kashf etildi. Bu

texnika vositalari 8 betlik gazetaning 240 ming nushasini bir soatda tayyorlash imkonini berardi.¹

Ommaviy mahsulotlarning xilma –xil turlari shunga yo'naltirilgan. Masalan, teleseriallar xususiyatlarini tadqiq qilish ularning matnida serialning homiysi bo'lgan firmaning axboroti kodlanganligini ko'rsatadi. U o'zining birinchi variantida-tegishli firmalar "ko'ngilochar" operalarni yaratishni moliyalashtirganda judda muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Ta'sir samaradorligi, ya'ni tovarni sotish ortib borishida televizion seriallarning tijorat loyihasi sifatida mavjud bo'lishining garovi edi. Elitar, an'anaviy xalq madaniyatida, professional san'atda foyda bilvosita jihat hisoblanadi, "madaniyat industiriyasi"da esa u ma'naviy mahsulotni baholashda belgilovchi mezonga ayalandi. Ana shunda u tovar bo'lib qoladi.

Yuqorida qayt etib o'tilganidek bu jarayonni ifodasi va ro'yobga chiqarish funksiyasi bo'lib reklama xizmat qilmoqda. U, xoh tish pastasi bo'lsin, xoh navbatdagi pop-yulduz, yangi kinofilm, muayyan yoki bir yo'la barcha kasalliklarni davolash usullari va vositalari bo'lsin, oson esda qoladigan, darhol topib olinadigan qolip-obrazlar negizida qurilgan. Ommaviy ishlab chiqarish va iste'mol jamiyatida ularning ko'payib borishi tovarni sotish, iste'molni rag'batlantirish, bozorni kengaytirish uchun zarur.

Reklama iste'molchilar ijtimoiylashuvi agentiga aylandi. U nimani qanday iste'mol qilish, tovarni qanday tanlashni, ularni qanday taqqoslashni o'rgatadi va x.k. Ota-onasi muntazam band bo'lgan bola tishni qanday cho'tka va pasta bilan tozalashni, itni nima bilan boqishni, ayollarga nimalar ko'rk bag'ishlashini, atir-upaning ahamiyatini go'dakligidayoq bilib oladi. Shungdek, tovarning xususiyatlari emas, balki uning nufuzi hayot kechirishidagi ahamiyati reklamadan tobora ko'proq o'rin olmoqda. Reklamga ishontirish mexanizmlari yordamida barcha narsa iste'molga bog'liq bo'lib qolgan olamni yaratadi. Binobarin, aholi reklama tufayli virtual iste'mol jamiyatida yashab turgan bo'lib chiqadi.

Ommaviy madaniyatni alohida sotsiomadaniy voqelik sifatida tahlil etish orqali uning asosiy xossalarini ko'rsatish mumkin. Bular: ommaviy madaniyatning

¹ Pulitser Jozef.// <http://ru.wikipedia.org/wiki>.

gegemon auditoriyaga yo'naltirilgani, his-tuyg'ularga qaratilishi, irratsanillika, ongsizlikka tayanishi, jamoaga suyanishi, darrov o'ziga jalb eta olishi, tez unitilishi, me'yorga amal qilmasligi va qiziqarligidir. Shungdek, ommaviy madaniyat targ'ibotchilari olamda go'zallik yo'q, hamma narsa iste'molchiga, undagi subyektiv mezonlarga bog'liq, degan qarashni ilgari suradi. Demak, ular fikricha, insoning subyektiv mezonlari o'zgartirilsa, siz go'zal deb hisoblagan narsani millionlab odamlar go'zal deya boshlaydi.¹

Madaniyat ehtiyojlarni shakllantirish tizimi bo'lib, ommaviy madaniyat iste'molchilik psixologiyasini shakllantiruvchi, ommaviy kishi qiziqishlarini iste'molchilik bilan yo'l-yo'riq beradi. Shu sababli odamlarga taklif etayotgan madaniy matnlar sodda, oson tushuniladigan va, hatto, primitiv hamdir. Ularning vazifasi – tegishli turmush tarzini shakllantirib, insonni iste'molchiga aylantirish. Insonni unga nimani taklif qilishayotgan bo'lsa, o'shani iste'mol qilishga, ya'ni passiv, tanqid qilmaydigan, madaniy va boshqa har qanday mahsulotni: kosmetikani ham, dori-darmon ham, avtomobillarni ham, so'nggi modadagi libosni ham iste'mol qilishga majbur etish. Barcha vositalar, barcha texnik yutuqlar bu maqsadga xizmat qilmoqda. Mahsulot ishlab chiqarishdan ko'ra uni iste'molchisini topish masalasi oldinlab ketmoqda.

Tadqiqotchilar ommaviy madaniyatning dastlabki shakli deb, XIX asrning 30-yillarida adabiyotda paydo bo'lgan va ommalashib ketgan sarguzasht janrini ko'rsatishadi. Asr oxirida haftalik ommaviy axborot vositalari ana shunday asarlarni tinimsiz chop eta boshladilar. Vaqt o'tishi bilan ushbu jarayonga "Yurak matbuoti" yoki "qalb industriyasi" deb nom berdilar.

Bugungi kunda iste'molchi axborot qaramligi iskanjasida qolgan. Tarqatilayotgan ma'lumot va axborotlarning haddan ortiq bo'lganligi, juda xilma-xil vositalar orqali takror va takroro e'lon qilinayotgani insonlarni analiz qilmasdan qabul qilish ko'nikmasini shakllantirmoqda. Ayni vaqtda televideniye ommaviy axborot vositasigina bo'lib qolmay, ijtimoiy ong, estetik didni shakllantiradigan kuchga aylanmoqda.

¹ Madrahimova F. "Tafakkur" 4/2013.88-b.

Asr oxirida Amerika Qo'shma Shtatlarida ommaviy madaniyatning komiks shakli paydo bo'la boshladi. Bu janr boshda faqat bolalar uchun mo'ljallangan bo'lsa, bora-bora kattalar hayotining ham ajralmas qismiga aylandi. Aniqrog'i, "Ommaviy madaniyat"ning keskin rivoji XX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Shu vaqtdan boshlab u keng qamrov va hujumkorlik bilan tarqala boshladi.

Amerikalik atoqli siyosatshunos Zbignev Bjezinskiy: "Agar dunyoga huquqni - Rim, parlamentni - Angliya, madaniyatni - Fransiya bergan bo'lsa, AQSh - fan va texnologik revolyusiyasi bilan ommaviy madaniyatni berdi" - degan edi.

An'anaviy madaniyatda bo'lganidek, ommaviy madaniyatning ham universal xarakteristikasi hamon mavjud emas. Buni shunday tushuntirish mumkin. Gap shundaki, "Ommaviy madaniyat" ilmiy-falsafiy kategoriya sifatida o'ziga yakdil uchta tushunchani qamraydi. Birinchidan, "madaniyat" – alohida xarakterdagi mahsulot. Ikkinchidan, "ommaviylik" – mahsulotni tarqatish me'yori. Uchinchidan, "madaniyat" – ma'naviy boylik.

Ommaviy madaniyat hozir insoniyat hayotining barcha jabhalariga tez kirib bormoqda va o'zi tarqalish uchun qulay makonni shakllantirmoqda. Kommunistik mafkura hukmronligi davrida o'ziga xos komunistik madaniyat – komunistik Sobiq Ittifoq mintaqasida, mafkuraviy temir devor madaniyatga joy qoldirmas edi. Temir devor yiqilgach, ommaviy madaniyat sovet respublikalariga seldek bostirib kira boshladi, shu jumladan O'zbekistonga ham. Shuning uchun ommaviy madaniyatning namoyon bo'lish holatlarini ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilish muhim zaruriyatga aylandi.

AQShda bo'sh vaqt, ya'ni dam olishni sanoat asosiga ko'chirgan. Aholining badiiy jihatdan unchalik yuksak bo'lmagan talablarini qondirish (yoki ushbu talablarni shakllantirish) maqsadida ommaviy badiiy adabiyot (fantastika, sarguzasht, bulvar adabiyoti, "ayollar" romani) dunyoga keldi. Shuningdek, arzon-garov jangari, triller, melodrama va boshqa filmlarning g'oyasi va o'lchami bitta – odamlarning amerikacha munosabatlarini qaror toptirish; musiqa janrida ham asosan ana shu maqsad kuzatiladi.

XX asrda jazning yuzaga kelishi va rivojlanishi bilan dunyo musiqa madaniyatini o'zgartirib yubordi. Jaz XX asr arafasida dunyoga keldi. Uning tomiri negrlarning an'anaviy madaniyatiga borib taqaladi. Musiqadagi ritmik pauzalarning kuchayib, pasayib turishi qora tanlilarning "sprichuels", regtaym va blyuz kabi o'ziga xos o'yinlarini eslatib turadi.

XX asrda o'yin madaniyati mislsiz miqyosda tarqaldi. Jahonni egalladi. U bo'sh vaqtni o'tkazish vositasiga aylandi. Densing va diskotekaga sig'inish yuzaga keldi. Musiqa shaklining rivojlanishi, eskilarining yo'qolishi va o'yinda yangi stil usullarining kirib kelishiga sabab bo'ldi. 1920 yillarda "Charlston" modada bo'lsa, keyinchalik uning o'rmini "step", "chechetka", jazdan ajralib chiqqan irland jigisi keyinroq, 50 yillarda "rok-n-roll", 60 yillarda "sheyk" va "tvist" xitga aylandi va uning ommaviyligini ta'minlashda barcha vositalar ishtirok etdi: gramplastinkalar chiqarildi, televideniye va radiomahsulotlar tarqatildi. Bu "ommaviy madaniyat" tarqatilishidagi eng omadli tijorat loyihasi edi. Disko o'yin yo'nalishi hozirgi kunlarimizgacha yetib keldi, u juda ommaviy bo'lmasa-da, hali bor.

"Ommaviy madaniyat" bugun iqtisodiyotning eng daromadli tarmog'iga aylanib bormoqda. Uni hozir "qiziqishlar industriyasi", "tijorat madaniyat", "pop-madaniyat", "bo'sh vaqtdan foydalanish industriyasi" deb atay boshladilar. Ma'lumki, mehnatkashlarning ma'lum qismida bo'sh vaqt serob. "Ommaviy madaniyat" mazmunini boyitishni taqoza qiladi, chunki mamlakatimizda ishlab chiqarishning tobora sanoatlashishi, avtomatlashtirish jarayonida aholi o'rtasida "bo'sh vaqtni yopish ehtiyoji" ham oshib bormoqda. Ana shu jarayondan hosil bo'ladigan muammolarni hal etish ehtiyoji "ommaviy madaniyatni" yuzaga keltirmoqdaki, bu ayniqsa odamning ongiga, ya'ni adabiyot va san'atning barcha turlariga bevosita bog'liqdir. Keyingi o'n yillikda madaniyatni demokratlashtirishda kino, televideniye, kasseta, sport albatta (uning tomoshabinga taalluqli qismi) juda muhim kanallar hisoblanmoqda. Ular ayni paytda turli toifadagi odamlarning to'planishiga sabab bo'lmoqda. Ko'pincha ularni birlashtirgan istak – o'zlarini psixologik jihatdan bo'shatib olish istagidir.

“Ommaviy madaniyat” madaniy mollar bozoridagi tovarga aylanib, muayyan xususiyatlar kasb etdi. Avvalo u “oddiy” (buni jo’nlik deb atasa ham bo’ladi). Chunki ko’pincha bunday mahsulotlar “ko’cha odami”ga mo’ljallangandir. Ommaviy madaniyat o’z vazifasini to’la bajarishi, ya’ni ishlab chiqarishdagi asabiyliklarni olib tashlashi uchun u eng kamida qiziqarli bo’lishi lozim. Albatta, bunday madaniy mahsulotlar intellektual jihatdan yetarlicha rivojlanmagan odamlar ehtiyojini qondirishi mumkin va inson ongi, kechinmalariga ta’sir etadi. Shuning uchun ham “Ommaviy madaniyat”ning “eng qiziqarli” va hammaga tushunarli mavzulari - muxabbat, oila, karyera, jinoyatchilik va xo’rlash, sarguzasht, qo’rqinch va xokazolardir. Mavzular eksplutatsiyasidan uning egalari katta daromadlar olmoqdalar.

“Ommaviy madaniyat” baynalminal va milliy bo’lishi mumkin. Estrada musiqasi bunga misol bo’ladi: u hammaga tushunarli va barcha yoshdagilarga, bilim darajasidan qat’iy nazar, aholining barcha qatlamlariga moslashtirilgan.

“Ommaviy madaniyat”ning badiiy qimmati xalq madaniyatidan pastroq bo’ladi. Lekin uning auditoriyasi kengroq, chunki u muallifli, u odamlarning shu daqiqadagi ehtiyojini qondiradi, har qanday yangi voqea va hodisalarga hozirjavob bo’ladi. Ma’lum vaqt o’tgach, ular o’z dolzarbligini yo’qotadi, eskiradi va modadan qoladi. Yuksak darajadagi asarlar va xalq madaniyati bunday qismatga uchramaydi.

1917 yili bolsheviklar hukumatni egallagach, avvalo ular madaniyatni isloh qila boshladilar. Badiiy ijod ahlidan proletarlashtirilgan asarlar yaratishni talab etdilar. Ular shunday shiorni olg’a surdilar: “San’at xalqqa tushunarli bo’lishi lozim”. Bolsheviklar bu shiorni nemis marksisti Roza Lyuksemburgga tegishli, deb e’lon qildilar. Keyinchalik u aslida bunday demaganligi ma’lum bo’ldi. Ya’ni u: “San’atni xalq tushunishi lozim!”, deganligi aniqlandi. Birinchi shiorda yuksak madaniyatni ongi jo’n xaloyiq, olomon darajasigacha tushirish nazarda tutilgan. Ikkinchisida xalqni jahon madaniyati darajasiga ko’tarish uchun o’qishga va takomillashishga chaqiradi.

Yoshlar bilan ularga tushunarli bo'lgan o'rtacha tilda muloqot va munosabat qilinishi ommaviy madaniyat usullarining muhim jihati hisoblanadi, bundan tashqari, boshqa kishi ongiga bevosita bog'liq jihatlari ham bor. Masalan, individning ijtimoiy voqea va jarayonlarda ma'naviy va intellektual ishtirok etishni xoxlamasligi. Boshqacha aytganda, ko'pchilik jamiyat a'zolarining ongi passivligi. Bunga yoshlarning ma'lum qismida madaniyat mahsulotlariga, jumladan, ommaviy madaniyatga so'nggi standart deb qarash istagidir.

Axborot texnologiyasi vositalarining roli tobora kuchayib ketganligi bois bo'sh, o'ta sayoz madaniyat mahsulotlari ham bozorga chiqarilmoqdaki, ularning ko'pchiligi ma'naviyatni yuksaltirish maqsadida emas, balki tijorat maqsadida tarqatilmoqda. Natijada an'anaviy madaniyat makonida mumtoz xalq ijodiyoti yonida aholi ongini bilim va tafakkurini o'tmaslashtiradigan ijod mahsullari ham ko'payib bormoqda. Bu borada mamlakatimizda bir qator tashkiliy-ma'rifiy, ma'naviy va moddiy choralar ko'rilmogda, albatta, lekin bunday mahsulotlar hayotimizga selday kirib kelishi hamon to'xtamayotir. Bu esa mutasaddi madaniy va ilmiy jamoatchilik oldiga muhim vazifalar qo'yadi.

2-bob bo'yicha xulosa

1) Ommaviy madaniyat inson va jamiyatni real ijtimoiy voqelikdan chalg'itadi va uning ongini boshqaradi. U mustaqil fikrlaydigan insonni inkor etib ommaviy odamni shakllantirib va iste'molchilik psixologiyasini rag'batlantiradi. Ommaviy odam ongida ne'matlarni hayotiy ehtiyojlarni qondirish uchun emas, balki "nufuzli ne'matlarni" iste'mol qilish yo'li bilan nufuzli maqomga ega bo'lish uchun iste'mol qilish zaruratini asta-sekin shakllantirishdan manfaatdor. Bu jarayonda reklama alohida rol o'ynaydi, chunki tovarni ishlab chiqarish emas, balki xaridorni shu tovarni sotib olishga ishontirish qiyin.

2) XX asr boshlari yengil-yelpi ommaviy madaniyatni yoyish uchun ham foydalanib kelingan axborot makonini reklama bilan tez va qat'iyat bilan egallash davri bo'ldi. Bu esa madaniyat industiriyasi moliya industiriyasi bilan to'g'ridan-to'g'ri qo'shilib ketishiga olib keldi.

Boshqacha aytganda, ommaviy kommunikatsiya vositalari tijorat manfaati nuqtai nazaridan “ommaviy madaniyat”ning soxta mahsulotlarini yarata boshladi: ko’ngilochar hamda tijorat ko’rsatuvlari qanchalik oddiy va arzon bo’lsa, tijorat nuqtai nazaridan shuncha katta muvaffaqiyat keltirardi.

3) Fan-texnika taraqqiyoti natijalaridan foydalanish sanoat ishlab chiqarishning gurkirab rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratdi. Bunday ishlab chiqarish kishilar turmush tarzini shunga muvofiq tashkil etishni talab qildi. Yirik korxonalarning yaratilishi va rivojlanishi kishilarning ommaviy ishlab chiqarish jamoalariga birlashishini hamda ularning cheklangan hududlarda ixcham tarzda istiqomat qilishini taqazo etdi .

4) Ilgari kapital faqat ishlab chiqarish haqida qayg’urgan, iste’mol o’z-o’zidan bo’lgan. Yangi davr boshlangach, iste’mol borasida muammolar yuzaga keldi, binobarin, tovarni ham, talabni ham yaratish, ya’ni iste’molchilarni vujudga keltirish zarurati paydo bo’ldi. Iste’molchilk psixologiyasi asosida mahsulotga mos bo’lgan iste’molchini yaratish masalasi ustalik bilan amalga oshirilmoqda. Did va ta’bni yo’qotish hisobiga mahsulotlarni notanqidiy qabul qilishga o’rgatilmoqda. Ommaviy kommunikatsiya vositalari taqdim etayotgan mahsulotlarning mazmunan sayozligidan shikoyat qilish oddiy holat bo’lib qoldi. Tarqatilayotgan ma’lumot va axborotlarning aksari yosh iste’molchi didiga moslashtirilgan. Ommaviy madaniyatning ommaviy onga o’tkazayotgan ta’siri bugungi kunda ayrim yoshlarimiz xulq-atvorida namoyon bo’lmoqda.

5) Ommaviy madaniyat murakkab mazmunga va tarkibga ega ijtimoiy fenomindir. Uning mazmuni omma ehtiyojlarini qondirishga mo’ljallanganligi, xarakteri esa tijorat bilan bog’liq. U boshqa madaniyat shakllaridan yagona maqsad va barqaror manfaatlardan xoliligi, tez o’zgaruvchanligi, artefaktlarining iste’mol bilan bog’liqligi, vorisiylik prinsipidan xoliligi, shaxs hissiy-emotsional ehtiyojlarini qondirishga yo’nalganligi bilan farq qiladi.

6) Shaxs ijtimoiy qiyofasini ommaviy madaniyatning salbiy ta’siridan himoya qilish uchun ularning ma’naviy madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. Chunki yuksak ma’naviy madaniyatga ega shaxsgina madaniyat artefaktlarini

ularning insonparvarligi, pozitiv xarakterga egaligi, oqilona elementlardan tarkib topganligi, gumanistik axloqiy, siyosiy, mafkuraviy, estetik norma va prinsiplarga mutanosibligiga qarab iste'mol qiladi.

Bu kabi holatlarni e'tiborga oladigan bo'lsak, yoshlarimizda chinakkam ma'naviy-madaniy hamda mafkuraviy immunitetni hosil qilish, milliy qadriyatlarga xurmat hissini uyg'otish zarur va bular ta'lim-tarbiya jarayonida hisobga olinmog'i lozim.

3-bob Yuksak va ommaviy madaniyatlar dialektikasi va jamiyat ma'naviyati

3.1 Diffuziya yuksak va ommaviy madaniyatlar o'zaro ta'sirining bir ko'rinishi va tendensiyasi sifatida.

Zamonaviy xalqaro va milliy madaniy hayotlar o'ta ziddiyatli hodisadir. Buning obyektiv va subyektiv sabablari bor. Bir tomondan, ishlab chiqarish va turli xalqlarning o'zaro savdo- sotiq hamda har xil sohalarda aloqalari intensivlashdi. Ular foydalanayotgan texnologiyalar va kommunikatsiya vositalari bugun bir xil. Natijada turli xalqlarning qarashlarida, ijtimoiy-madaniy hayoti va umuman turmush tarzida obyektiv ravishda umumiy, o'xshash, bir andozali unsurlar ko'paymoqda. Ishlab chiqarish, iqtisodiy soha va madaniy munosbatlarda ham aynan bir xillikni kuzatish mumkin. Milliy madaniyatlar ommaviy madaniyat unsurlarini ko'plab qabul qilmoqda. Ikkinchi tomondan har bir xalqning o'zligini anglash darajasi o'smoqda. Bu esa ularning o'z ma'naviy olami, etnomadaniy xususiyatlari, milliy identligini saqlab qolish zamonaviy talablar asosida boyitib, yangi pog'onaga ko'tarish istagini kuchaytirmoqda. Boshqacha aytganda zamonaviy ijtimoiy hayotning obyektiv tendensiyalari va ko'plab xalqlarning ma'naviy-madaniy hayotidagi subyektiv intilishlari o'rtasida ziddiyat mavjud. Bu ziddiyat ularning madaniyatlari va mintalitetida aks topmoqda. Ommaviy madaniyat mahsulotlari, zamonaviy turmushning qulayliklari xalqlarning an'anaviy qarashlarini, yashash tarzini

o'zgartirishi barobarida milliy madaniyatlarga kosmopolotik mazmun, standartlashgan qiyofa taklif etmoqda. Yuksak madaniyatga ham o'ta ziddiyatli ta'sir ko'rsatmoqda.

Birinchidan, yuksak madaniyat TV, radio, video va audiodikslar orqali nisbatan kengroq tarqalib, ma'lum darajada ommalashmoqda. Ya'ni ma'lumot va axborotlarni tarqatish ko'lami bir necha barobarga o'sib bormoqda. Chunki axborot uzatish tizim sifatida shakllanib, turli vositalardan foydalanilmoqda;

Ikkinchidan, aholining savodxonlik darajasi, turmush farovonligi va madaniy saviyasi yuksalishi jarayonida yuksak madaniyatga murojaat etishi o'smoqda. Bu yuksak madaniyatning TV, elektron va bosma nashrlarda keng tarqalishidagina emas, shuningdek, mumtoz sahna va musiqa asarlarini zamonaviy talqin qilishlarda ham qisman namoyon bo'lmoqda. Lekin, tan olish keraki, keyingi holat doim ham muvaffaqiyatli chiqavermaydi;

Uchinchidan, ayrim yevropalik olimlar to'g'ri e'tirof etganidek, yuksak va ommaviy madaniyatlar o'zaro ta'siri natijasida ularning diffuziyasi, ya'ni bir- biri tarkibiga kirib borishi yuz bermoqda. Haqiqatan, ba'zi sohalarda, ayniqsa virtual muzeylar, galereyalar, kutubxonalar, TV, Internet va softver sohalari misolida ularning diffuziyasini kuzatish mumkin. Teatr, kino, TV sohalarida ham bunday holat yaqqol seziladi. Lekin bu sohalarda ancha murakkab, ko'pqatlamli, qarama-qarshi tendensiyalarga boy. Ularning nutqida dag'al unsurlar, nome'yoriy leksika ko'payib borayotir. Yuksak madaniyat aholi keng qatlamlariga estetik jihatdan tushunarli, iqtisodiy jihatdan cho'ntakbop bo'lishi lozimligi uning demokratlashuviga, xalqchiligi o'sishiga, pirovardida nisbatan ommalashuviga xizmat qilmoqda.

Diffuziya muqarrar tarzda madaniyatning rivojlanishiga uning o'rtalashuviga ta'sir ko'rsatadi. Bugun yuksak gumanistik madaniyat g'oyalari va ba'zi tarkibiy unsurlari ommaviy madaniyatga kirib borishi kuzatilmoqda. Masalan, jahondagi katta maydonlarda, stadionlarda yuksak madaniyat, yuksak san'at vakillari ishtirokida narkamaniyaga qarshi, ocharchilikdan, tabiiy ofatlardan, ichki va tashqi hududiy mojarolardan, urushlardan, epidemiyalardan jabr ko'rgan kishilarni moddiy va ma'naviy qo'llab – quvvatlash maqsadida xayriya konsertlari va turli tadbirlar o'tkazish urfga aylanib borayotir. Bugungi kundagi to'y marosimlarida milliy unsurlar

bilan bir qatorda zamonaviylik belgilarini ko'rish mumkin. Jahon bo'ylab TV orqali uzatilayotgan har xil san'at festivallari, bienallelar, zamonaviy ko'rgazmalar ham, bir tomondan, yuksak madaniyatga dahldor bo'lsa, ikkinchi jihatdan, ommaviy madaniyat xodisalaridir. Masofadan o'qitish, masofadan ilmiy va amaliy konferinsiyalar o'tkazish, dunyoning Internetga ulangan istagan kutubxonasi, arxivi, muzeyi va boshqa madaniy, ilmiy muassasadan kerakli axborotni olish, nusxa ko'chirish imkoniyatlari, elektron hujjatlar, kitoblar va kutubxonalar- bular hammasi ommaviy madaniyatga yuksak madaniyatning kirib borishi va madaniyatning o'rtachalashuvidir. Aynan shunday o'rtachalashgan madaniyat ko'proq o'rta sinflarning ehtiyojiga mos. Uni o'rta sinfga mansubdir desak, ehtimol xato qilmasmiz. Yuksak va ommaviy madaniyatlarning o'zaro ta'siri aslida juda rang-barang. Uni bir tomonlama ijobiy yoki salbiy, deb baholash noto'g'ri. Shak-shubhasiz, kurrai zaminda aholining axborot texnologiyalari va vositalarini o'zlashtirishi, Internetning keng tarqalishi turli-tuman axborot izlash va olish imkoniyatlarini tubdan o'zgartib yubordi. Axborot sohasida chegaralar nisbiy bo'lib qoldi. Odamlarning u yoki bu hodisaga, jumladan, madaniyat hodisalariga munosabt bildirishi faollashmoqda. Jamoatchilik ongida inson huquqlari va demokratik qadriyatlar, ijtimoiy taraqqiyot masalasi tobora muhim o'rin egallamoqda. Bu yuksak madaniyatga xos ayrim gumanistik, demokratik g'oyalarning omma ongiga va madaniyatiga kirib borishi oqibatidir. Axborot va iste'mol bozoridagi raqobatning kuchayishi ommaviy madaniyatning professionallik darajasini o'stirmoqda. O'z navbatida yuksak madaniyat tor tabaqaviy madaniyatga aylanib qolmasligi uchun keng aholining ba'zi bir ehtiyojlariiga, yaxshi rivojlanmagan didiga, tayyorgarlik darajasiga moslashishga majbur bo'layotir. Kino ekranlari va teatr sahnalarida personajlarning intim munosabatlari tobora ochiq ko'rstilayotir. Yuksak va ommaviy madaniyatlarning diffuziyasi va keng ma'nodagi o'zaro ta'siri natijasida, yuqorida ta'kidlanganidek, ularning o'ralig'ida yangi o'rtachalashgan madaniy qatlam vujudga kelayotir. Ta'kidlash joizki, o'rtachalashgan qatlam yuksak va ommaviy madaniyatlarni almashtirmaydi, siqib chiqarmaydi. O'z navbatida ularning mexanik tarzda qorishuvi ham emas. Unga qandaydir eklektiv madaniyat deb qaramaslik kerak. O'rtachalashgan madaniyat o'rta sinf ehtiyojlarini, uning maishiy turmushda seriyali

mahsulotlarni emas, balki ekskulyuziv mahsulotlarni iste'mol qilishga intilishlarni va unda bunday imkoniyat vujudga kelganini aks ettiradi.

Didlar, odatlar fikrlash tarzi standartlashtiriladi, unda bir qolipdagi narsalar hukumronlik qiladi. Ko'pchilik kishilarning turmush tarzi o'rta darjaga keltiriladi, ma'lumoti, kasb-kori darajasi va h.k.ga bog'liq bo'lmagan tarzda birxillashtiriladi.¹

“Ommaviy madaniyat” biror xalq yoki millatning madaniyati emas. Agar u biror-bir xalq yoki millatga mansub bo'lganida edi, ularning tarixiy va zamonaviy ideallari asosiga qurilgan bo'lar edi. Hech shubhasiz, bunday ideallar har bir xalq va millat madaniyatida bor. Biz komillika intilamiz. Ulug'larga havas qilamiz. Chunki milliy madaniyat- vertikal (yuqoriga), ommaviy madaniyat esa gorizantal, yonga o'sishni taklif etadi. O'zbek milliy tarbiyasi azldan yetuk, komil insonni andaza qilib olgan. “Ommaviy madaniyat”- robotdek bir xil o'ylaydigan, bir xil narsaga qiziqadigan o'rtamiyona odamlar madaniyati. Dunyoda o'rtamiyona odamlar qancha ko'p bo'lsa, bu madaniyatning bozori shuncha baroridan keladi. Shuning uchun ham o'rtamiyona odamlar sonini ko'paytiradi. Tarbiyalab yetishtiradi. Shunday qilmasa, uning umri tugaydi. U insonni o'tkinchi narsalarni sevish ruhida tarbiyalaydi.

“Ommaviy madaniyat” muxlisiga aylangan o'rtamiyona odamda hamma narsa o'rtamiyona bo'ladi. Bilim, imon, insof, hayo, sadoqat ham...

“O'rtamiyona odamning qilgan ishi ham, aytgan gapi ham o'tamiyona. Uning vatanparvar, fidoyi, rostgo'y, insofli bo'lishi qiyin. Chunki odam bunday bo'lishi uchun u erkin firlashi kerak. Mustaqil fikrlovchi, talabchan odamlar qancha ko'p bo'lsa, “ommaviy madaniyat” ning bozori shuncha kasod bo'ladi. Ular o'zlariga taklif etilayotgan bemaza, sayoz, betayin madaniyat va san'at asar (mahsulot, tovar) larga qayrilib ham qaramaydi. “Ommaviy madaniyat” chilar ularni asrash uchun “yulduz” larni, olimlarni yollaydi. Shuning uchun ham “ommaviy madaniyat” ning oq degan narsasi oq emas, yaxshi degan narsasi yaxshi emas, rost degani rost emas, choy degani choy emas. Oqqa, rostga, choyga o'xshagan narsalar, surrogatlardir”² Mazakur ta'rifda ommaviy madaniyatning diffuziya jarayoniga biryoqlama munosabat bildirilgan.

¹ Sh. Goyibnazarov. Ommaviy madaniyat.-T.: “O'zbekiston”. NMUI, 2012.- 35-b.

² M.Quronov, F.Esonov. Gibrid olmadan...gibrid odamgacha.” Muharir”. 2010. 13-b.

Ommaviy madaniyatning milliy madaniyatga ta'sirini faqat salbiy jihatdan baholash noto'g'ri bo'ladi. Chunki milliy madaniyatlarning ko'plab ommaviy madaniyat unsurlarini qabul qilib o'zgarib, boyib bormoqda.

Ommaviy madaniyat ixtisoslashgan onga emas, balki oddiy, reflekslanmagan, aglangan narsa notanqidiy o'zlashtirilgan sxemalarga muvofiq shaklan o'zgaradigan ongga murojaat etish bilan elitar madaniyatdan farq qiladi. Ommaviy madaniyat asarlari ularning estetik qimmatini nuqai nazaidan, an'anaviy san'at singari, durdona asarlarga emas, balki o'rtamiyona (muhimi, pul keltiradigan) asarlarga yo'naltirilgan madaniyat sifatida baholash odat tusiga kirgan.¹

O'rtamiyonalik undan daromadi oshadigan guruhlar millionlab nusxa o'rtamiyona mahsulotlarni "zo'r" berib o'tkazib pullashi uchun kerak. Shu maqsadda avallo odamlarning didi o'ldirilib, ular asl qadriyatlardan begonalashtiriladi. "Bizga shu ham bo'laveradi" deydi avom xaridorlar to'dasi yaratiladi. Aqlli, talabchan, ziyrak odamlar o'zlari yeydigan, ichadigan, kiyadigan, eshitadigan, ko'radigan, o'qiydigan mahsulotlarga yuksak talab qo'yishadi. Yaxshi mahsulot ko'p mablag', vaqt, yuksak aql, yangi texnologiyalarni talab qiladi. Bunda "ommaviy madaniyat"ning ishlab chiqaruvchilariga foyda kam tushadi. Ularga esa foyda juda kerak. Juda tez va ko'p kerak. Qanday qilib ommaviy madaniyat turli irqqa, millat va dinga, madaniyatga, har xil yosh va kasbu-korga mansub millionlab odamlarning madaniy ehtiyojlarini egallab olayotir? Bu savol orqali bizga "ommaviy madaniyat"ning ishlash mexanizimini o'zimizga tasavvur etgandek bo'lamiz. Buning birinchi yo'li didni birxillashirish. Bu bolalikdan boshlanadi. Bolalar yaxshi narsalarni emas birovlariga yoqadigan narsalarni yaxshi ko'rishga o'rgatib boriladi. Yangi narsami, demak, hozir eng yaxshi narsa – shu. Bugungi kunda biz ommaviy kommunikatsiya, targ'ibot va axborot vositalarining go'daklar, o'smirlar va yoshlar psixikasiga o'ta salbiy ta'siriga e'tibor qaratishimiz darkor. Turli ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki giyohvand moddalar to'g'risidagi axborotni tarqatishda OAVlari bosh ro' o'ynamoqda, ya'ni o'smirlarning 56,6 foizi giyohvand moddalar haqidagi dastlabgi ma'lumotni aynan OAVdan

¹ Sh. G'oyibnazarov. Ommaviy madaniyat. "O'zbekiston" NMUI, 2012. 12-b.

olishini, 31,1 foizi-OAVdan axborot oladigan tengdoshlaridan olishini ishonch bilan ta'kidlagan.¹

Bolaning savodi chiqqach, u real odamlarga emas, supermenlarga, avval o'ylab, keyin ish qiluvchilarga emas, tavakkalchi avantyuristlarga o'xshashga o'rgatila boshlanadi. Chunki minglab komikslar, bolalar telejurnarlari shunga qaratilgan. Shu tariqa "ommaviy madaniyat" bolani xalqidan, millatidan tortib oladi. Milliy tarbiya tizimi buziladi. O'z tovarlarini sotib oluvchi iste'molchilarning yangi avlodlari yetishib chiqadigan inkubatorlarni yaratadilar. Ongini "ommaviy madaniyat" egallagan yigit-qiz hayotida mo'tadillik, marom, orom yo'qoladi. U shoshib yashaydi, shoshib ishlaydi, shoshib o'ylaydi, shoshib ovqatlanadi.

Garvard universitetining meditsina fakulteti ma'lumotlariga ko'ra, amerikalik bola 18 yoshga to'lgunicha televizor ekranida 180 ming martadan ko'proq jangari filmlarni ko'rar, shundan taxminan 80 mingtasi qotillik ekan. Boshqa ma'lumotlarga qaraganda, AQSHda bolalar uchun ko'rsatuvlarning 66 foizida zo'rvonlik sahnalari bo'lib, televideniye to'rtidan uch xolatda zo'rvonlik also zajolanmaydigan dasturlarni namoyish etar ekan. Hozirgi kunda aynan amerikaparstlik milliy madaniy madaniyatimizga ham kirib kelmoqda. Ko'r-ko'rona nusxa ko'chirilishi yoki eng yomon na'munlariga taqlid qilinishini hisobga oladigan bo'lsak masalaning qanchalik jiddiy ekanligini ko'ramiz.

Madaniyatlar diffuziyasi va OKV natijasida madaniy mahsulotlar tarqalish doirasi ancha kengaydi. Avvallari bir gladiator yoki olimpiada g'olibi bo'lgan sportchining shuhrati Gretsiya yoki Qadimgi Rim chegarasidan tashqariga chiqmagan, o'rta asrlar truppasi o'z shahri hududini tark etmagan bo'lsa, endi Yevropada istiqomat qiluvchi muallifning asarini Osiyoda ham, Amerika qit'asida ham o'qish imkoniyati vujudga keldi.

Dunyodagi har bir xalqning o'ziga xos an'analari, urf-odatalari milliy qadriyatlari bor. Shu jihatlarga ko'ra ma'lum xalqlar biri ikinchisidan farqlanadi, ijtimoiy hayotida o'ziga xoslik kuzatiladi. Aslida haqiqiy ommaviy madaniyat namunlari

¹Спорт против наркотиков\\ Физическая культура\http: Sport protiv narkotikov// Fizicheskaya kultura/ http: sportedu.ru/press/fktov/. 1999. № 3-4/p61-63/htm.

har bir xalq hayotida mavjud. Ommaviy madaniyat degani keks-yu yosh, turli toifa vakillari, va butun omma uchun birdek qiziqarli bo'lgan madaniyat deganidir. Muayyan zaminda yuzaga kelgan, necha yuz yillar davomida shakllangan va sayqal topgan ma'naviy mezon va me'yorlar, madaniy meros shu millatning, shu xalqning bebaho boyligi hisoblanadi. Zamonaviy taraqqiyot va davlatlar o'rtasidagi har tomonlama (iqtisodiy, siyosiy, makkuraviy, madaniy va h.k) yaqinlashishning tezlashuvi mumtoz madaniyatga va ma'naviy qadriyatlar sistemasiga sezirali ta'sir ko'rsatmoqda. Hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan texnika va texnologiyalar, globallashuv jarayonlari bunday boylikning mohiyatini yanada chuqurroq anglashni taqazo etmoqda. Ma'naviy va mafkuraviy tahdidlar turli ko'rinish, shakl va mazmunda namoyon bo'layotganini hisobga oladigan bo'lsak, unga nisbatan keskin choralar ko'rish uni oldini olish zaruratga aylandi. Bugun keskin tus olayotgan "ommaviy madaniyat" ning salbiy ta'siri ham ma'naviy tahdidlardan biridir. Ommaviy madaniyat nimani tarqatishni va ommalashtirishni maqsad qilsa, uning asosiga shunday g'oyani qo'yadi. Masalan bugungi kunda ma'naviyatning birlamchi asosini tashkil etuvchi axloq va axloqiy me'yorlarning zaiflashib, qashshoqlashib borishi jarayoni ko'zga tashlanmoqda. Axloqiy buzqlik va zo'ravonlikni targ'ib qilivchi "ezgu" niqob ostida ishlovchi ayrim shaxslar va guruhlar har qanday axloqiy mezonlar va me'yorlarni inson huquqlari, erkinligi, ozodligi, demokratiya bilan bog'lab asoslashga urunmoqda va aksar hollarda buning ustidan ham chiqmoqdalar. Axloq me'yorlarining huquq normalariga bo'ysundirilishi esa bu boradagi fikrlovchilarning "tegirmoniga suv quymoqda". Misol uchun bugun ayrim G'arb davlatlarida bir jinsli nikohlarning legallashtirilishi (qonuniylashtirilishi) va ularga farzand asrab olishga ham ruxsat berilayotganini aytish mumkin. Bu kabi holatlar axloqni va axloqiy qadriyatlarni deformatsiyaga (buzulishi) uchrashiga va ayrim holatlarda ularning yo'qolishiga (oila va oilaviy qadriyatlar) ham sabab bo'lmoqda. Oilaning jamiyat oldigagi vazifasi nisbiy bo'lib qolmoqda ya'ni avlodlar davomiyligini ta'minlashdek eng muhim fundamental vazifaga befarqlik bilan qaralmoqda. Bu esa ba'zi bir G'arb davlatlarida demografik muammolarning (tug'ulish soning keskin kamayishi,

millatning qarishi) yanada avj olib ketishiga ham sabab bo'lishi mumkin. G'arb davlatlarining o'zida ham bu kabi ma'naviy- axloqiy buzilishlarga salbiy munosabatlar bor albatta, lekin ular yetarli darajada emas ya'ni faqat munosabat sifatida qolmoqda xolos. Mazkur xolatlar nafaqat ma'naviy tanzzulga balki, moddiy- iqtisodiy hayotga ham sezirali ta'sir ko'rsatadi, mehnatga yaroqli aholining kamligi esa ishlab chiqarishga salohiyatiga va shu asosda mamlakatning iqtisodiy quvvatining pasayishiga ham olib kelishi mumkin. Aslini olganda ommaviy madaniyat soyasida kirib kelayotgan axloqsizlik, behayollik, zo'ravonlik va buzuvchilik kabi illatlarning hech biri xalqning milliy madaniyatiga ham, umumbashariy qadriyatlariga ham to'g'ri kelmaydi.

Darhaqiqat, globallashtirish sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongini zaharlaydigan, ma'naviy dunyosiga xavf soladigan mafkuraviy tahdidlar kirib kelishi kuchaymoqda. Yoshlarimiz ma'naviyatini izdan chiqarib, ularni xudbin va johil qilib qo'yayotgan ommaviy madaniyatning o'zi nima va u qachon paydo bo'ldi va nimani masad qilgan degan savollar bugun keng jamoatchilikni tashvishga solmoqda. Ayrim xollarda uning ijobiy jihatlari e'tirof etilsa ba'zida buning aksi kuzatilmoqda. Aslini olganda ommaviy madaniyatga nisbatan o'ta salbiy va bir tomonlama munosabatda bo'lish nazarimizda nohaqlik bo'ladi. Ommaviy madaniyat asilida ma'lum madaniyatning keng ko'lamda qo'llanilishida namoyon bo'lishi, omma tomonidan umumiy ravishda qabul qilinishi va amalda qo'llanilishida namoyon bo'ladi. Hozirgi davr nuqtai nazaridan qaraganda ommaviy madaniyat zamonaviy jamiyat (postmodern jamiyat) mahsuli deyish mumkin. Gap uning kelib chiqish tarixi va shakllanishi haqida ham emas aslida davr o'tishi bilan ommaviy madaniyat asosini ijobiy jihatlardan ko'ra salbiy jihatlarga ko'proq tashkil etayotganida. Ilgarilari uning milliy mintalitetga moslashishi kuzatilsa bugun esa uning aksi (interferensiyasi) kuzatilmoqda. Ya'ni milliy madaniy chegaralarni osongina buzib o'tib uni o'ziga moslashishga, ikkinchi darajaga tushirishga hatto ba'zi hollarda yo'qolishiga ham olib kelmoqda. Chunki u jamiyatni standartlashtirishni ko'zlaydi. Bugun biz yashayotgan turmushning o'zi ommaviy madaniyat namunasi. Bugun hamma narsa

ommaviylik kasb etmoqda. Misol uchun bugun hamma mobil telefon ishlatadi, bir xilda kiyinadi ya'ni ommaviy standartlashuv yuz bermoqda. Bugunga asosan texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, mahsulotlarning sanoat usulida ishlab chiqarilishi sabab bo'lmoqda. Uzoqqa bormaylik bundan 30-40 yillar burun kabelli telefonlar sanoqli odamlar xonadonida bo'lgan. Bugungi texnologiya tuhfalarini qulaylik nuqtayi nazaridan osongina qabul qilamiz va ular ishimizning bir necha barobar tez va samarli bo'lishiga ham yordam bermoqda. Ammo ommaviy madaniyat ijtimoiy hodisa sifatida ma'naviyat rivojiga ayrim hollarda ziddiyatli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari ommaviy madaniyat namunalari milliy madaniyatning rang – barangligiga va uning boyishiga ham xizmat qiladi. Har qanday madaniyatga qotib qolgan narsa sifatida qaramaslik lozim. Bugungi taraqqiyot o'zining zamon bilan hamnafas bo'lishni, u yaratgan yangiliklarga moslashishni talab qilmoqda. U yaratgan mahsulotlar universalligi, ommabop, ixcham, bozor talablariga tez moslashishi bilan odamlar e'tiborni tez jalb qiladi, qiziqtiradi va o'ziga o'rgatadi. Yaratilgan mahsulotlar qulaylik jihatidan tez qabul qilinadi, insonning bo'sh vaqtini mazmunli o'tishiga, dam olishiga yordam beradi. Boshqa tomondan qaraganda esa uning mazmunan sayoz va qiymatga ega bo'lmagan mahsulotlari odamalarga hech qanday foyda bermaydi ularning ongini boyitishga emas boshqarishga qaratilgan bo'ladi. Is'temolchilik psixologiyasining shakllanishi orqali ayni paytda urfda bo'lgan mahsulotlarni xarid qilishga o'rganadi. (reklama qilinayotgan mahsulotlar va xizmatlarni xarid qilish) Ommaviy madaniyat mahsulotlarida milliy qiyofalarning zaifligi yoki mutlaqo yo'qligi milliy ma'naviyatga aks ta'sir ko'rstadigan tahdidlardan biridir. Ma'naviy tahdidlar inson ichki olamiga qarshi qartilgan, uning ongini, dunyoqarashini, ruhiyatini izdan chiqarishga qarshi qaratilgan tahdidlardir. Qizig'i shundaki bu tahdidlar yosh, millat, til din, irq, xalq tanlamaydi. Malakatimiz aholisining katta qismini yoshlar tashkil etishini hisobga oladigan bo'lsak, turli shakl va mazmundagi ma'naviy tahdidlarga qarshi tura olish dolzarb ahamiyat kasb etayotir. Ijtimoiy tarmoqning jadallashuvi asosida uning to'rlari bugun har bir xonadon har bir kishi hayotiga kirib bordi va u uchun zaruriy ehtiyojga

aylanmoqda. Internet xizmatlari mobil telefonning asosiy funksiyasiga aylanib ulgurdi. Bu esa unga to'siq va chegara qo'yish imkonini yo'qqa chiqardi. Zamonaviy sivilizatsiya in'om etayotgan qulaylik va imkoniytlardan voz kechib bo'lmaydi, taraqqiyotdan ham. Lekin masalaning boshqa ziddiyatli va inson ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdigan tomonlari ham borki, insonni o'ylashga va mushohada yuritishga va amaliy ishalar qilishga undaydi. Yoshlarimiz ma'naviyatini boyitish, ayrim kamchiliklarni bartaraf etish bugun keng jamotchilikning vazifasiga aylanmog'i kerak. E'tibor berdigan bo'lsak har qanday madaniyat to'satadan yuzaga kelib qolmaydi, u asta-sekinlik bilan shakllanadi. Kichik bir qaraganda arzimasi bo'lib ko'ringan voqealar orqali odamlarni qiziqtiradi, o'ziga o'rgatadi, ko'niktiradi va ongini ham egallaydi. Eng xavfli tomoni ham shunda. Ommaviy madaniyat taklif etayotgan oson qabul qilanidagan yengil va mazmunam sayoz har qanday namunalar asl madaniyat durdonalari kabi inson bilimi, dunyoqarashi, ma'naviyatini boyitishga xizmat qila olmaydi. Ma'naviyat madaniyat ko'rinishida namoyon bo'ladi ya'ni hodisaga aylanadi. Kurakka turmaydigan tuturuqsiz qo'shiqlar, filmlar, suratlar, turli xildagi roliklar bularning barchasi "usti yaltiroq ichi qaltiroq" mazmundagi materiallar xolos. Bu kabi "madaniy mahsulotlar" insonga bilim bema'iydi, ma'naviyatining boyishiga xizmat qilmaydi. Aksincha insonda nafs va xirsni rag'batlantiradi, befarqlik va loqaytlikni yuzaga keltiradi, fikr qaramligi va milliy ruhning yo'qolishiga olib keladi. Shunday ekan millatimiz, xalqimiz madaniyatiga zid bo'lgan yengil-yelpi "madaniy mahsulotlar" ga tanqidiy munosabtni kuchaytirish kerak. Garchand ularni cheklashning imkoni bo'lmasada. Xalqimiz tabiatiga, mintalitetiga begona bo'lgan, ayrim kishilar "zamon zayli" deb nomlayotgan ma'naviy tanazullga boshlaydigan illatlarga qarshi turishda har bir kishida avallo mafkuraviy ma'naviy-madaniy immunitetni, yuksak vatanparvarlik hissi, chuqur bilim va e'tiqodni shallantirmoq kerak. Shundagina biz ko'zlayotgan kelajagi buyuk ozod va obod vatan qurishdek olijanob maqsadlarimizga to'la- to'kis erishmog'miz mumkin. Bu jarayonda ma'naviyat va madaniyat millatni yuksalishiga, mamlakatni taraqqiyotga boshlaydigan omil sifatida xizmat qiladi. Ma'naviy qudrati yuksak bo'lgan xalqda

bunyodkorlik, ezgulik va vatanparvarlik hissi yanada rivojlanadi tinchlik va osoyishtalik hukm suradi

3.2 Interferensiya yuksak va ommaviy madaniyatlar o'zaro ta'sirining diffuziyasiga qarama-qarshi tendensiyasidir

Yuksak va ommaviy madaniyatlarning o'zaro ta'siri ayrim hollarda ularning nafaqat diffuziyasiga, shuningdek, interferensiyasiga ham olib kelmoqda. Ya'ni ularning o'zaro bir - birini so'ndirishi kuzatilmoqda. Diffuziya va interferensiya yuksak va ommaviy madaniyatlar o'zaro ta'sirining ikki qaram-qarshi - ijobiy va salbiy tendensiyalaridir (albatta, boshqa tendensiyalar ham mavjud)

Interferensiya aslida fizika fani atamasi hisoblanadi. U ikki to'lqin (suv, havo, elektromagnit, yorug'lik to'lqinlari) tebranish ko'rsatgichlari qarama-qarshi bo'lsa, ma'lum sharoitda bir-birini to'liq yoki qisman so'ndirishini bildiradi. Interferensiya faqatgina tabiat hodisalarini emas, shuningdek, o'ziga xos tarzda jamiyat hayotiga ham xos. U lingvistikada anchadan buyon ishlatiladi. Ikki tillilik (bilingvizim) hodisalarida so'zlovchi asosiy tilning ayrim gramatik va lug'aviy xususiyatlari u ikkinchi tildan foydalanayotganda talaffuzda, gapdagi so'zlar tartibida, zarur so'zning aniq ekvalentini topa olmay birinchi tilning elementlarini qo'llashida namoyon bo'ladi. Ushbu holatni lingvistlar interferensiya deb atashni ma'qul topganlar. Ikki tilli insonlar ko'p. Ammo odatda ularning juda ozchiligi har ikki tilni baravar va yaxshi o'zlashtiradi. Ko'pchilik ikkinchi tilni kundalik muloqot darajasida biladi. Shu sabab ularning nutqida turli darajada qisman namoyon bo'ladigan interferensiya ko'p uchraydi.

Aynan shunga o'xshash hodisa boshqa madaniy muhitga tushib qolgan kishilar xul-atvorida, ularning yangi ijtimoiy voqelikka munosabatida kuzatiladi. Ushbuning yorqin misoli – muxojirlar hayoti. Bunda qishloq, provinsial, ko'proq dehqoncha madaniyat va shahar madaniyati o'rtasida, agar muxojir chet ellik bo'lsa, ikki milliy madaniyat o'rtasida o'ziga xos interferensiya yuz beradi. O'tmishda qishloqdan

shaharga yoki bir mamlakatdan ikkinchi mamlaktga ko'chib kelib, yangicha sharoitda ishlashga va yashashga majbur bo'lgan kishi o'z umri va turmush tarzida avvalgi turmush tarzida avvalgi madaniy voqelik unsurlarini ancha saqlab qolgan, yangi voqelikning hamma unsurlarini birdek baravar qabul qilolmagani uchun uning hayotida o'ziga xos mafkuraviy- madaniy bo'shliq (vakum) paydo bo'lgan. Bo'shliq aynan madaniyatlar interferensiyasi tufayli yuzaga keladi.

Shunday qilib, interferensiya bir madaniyatlar doirasida yuksak va ommaviy madaniyatlar, xalq madaniyati (folklor) va ommaviy madaniyat o'rtasida hamda xalqaro miqyosda va yerli xalqlar munosabatlarida ular milliy madaniyatlarining o'zaro ziddiyatli ta'sirida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy insonning estetik, axloqiy, hatto siyosiy ongida yuksak va ommaviy madaniyatlar turli darajada keltirib chiqargan interferensiyani kuzatish mumkin. Masalan, 2008 yilgi prezidentlik saylovida Amerika demokratlari nomzodi Barak Obama elektroat orasida targ'ibotni kuchaytirishda "Facebook" va "Twitter"dan muvaffaqiyatli foydalandi. Mazkur siyosiy eksperimentdan keyingi saylovoldi tashviqotida ijtimoiy tarmoqlar kuchiga tayanish urfga kirdi. 2013 yil fevralgacha Vatikanni idora qilgan Benedikt XVI ham ruhoyinlarga ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibotni kuchaytirishni uqtirgan edi.¹ Yuksak va ommaviy madaniyatlar madaniyatlar interferensiyasi haligacha na respublikamizda, na xorijda alohida ilmiy tadqiq etilgan emas. Eng avvalo qayd etish lozimki, madaniyatlar interferensiyasi- nisbiy tushuncha. U madaniy mahsulotlarga emas, ko'proq jamiyat a'zolarining, san'at ahlining, siyosatchilarning va qonun ijodkorlarining qarashlarida, kengroq olsak, ijtimoiy mo'ljallarga, ya'ni ma'naviyatda namoyon bo'ladi. Masalan, rivojlangan g'arb mamlaktlarida oilaviy qadriyatlarning chuqur deformatsiyaga uchragani, bizning fikrimizcha, ularning ommaviy madaniyat ta'sirida qisman so'ngani va o'zgargani natijasidir.

Yuqorida biz G'arbda «ommaviy madaniyat»ning tarixi, tug'ulish manbalari to'g'risida so'zladik. Hozir-chi? Hozirga kelib esa bu tamoyillar yanada g'ovlab, tomir otyapti. Masalan, «pop-muzika»ga xos o'sha ritmik «bit» (zarb), qo'shiq

¹ Sh .Murodova. Ijtimoiy tarmoq "so'qmoq"lari.//Tafakkur.-2014.-№4to

niqobidagi alahsirash, valdirashga yaqin didsiz «repp»lar ta'siri dunyo miqyosida tarqalib, milliy mumtoz va xalq musiqa san'atidan odamzotni uzoqlashtirmoqda. G'arb davlatlarining ayrimlarida «ommaviy madaniyat» tarqatayotgan «pornografiya» (sharmsizlik, hayosizlik) hamda sadizm (zo'ravonlik) targ'iboti yo'lidagi g'ovlar, qarangki, sud qarorlari asosida, birin-ketin olib tashlanayapti. Hatto AQSh maktablarida «Yangi rok» musiqalari o'quv dasturlariga kiritilgan

Misol tariqasida avval aytib o'tilgan pornindustriyani, seks-shoplarni, striptizlarni, yengil giyohvand moddalarni sotishni, fohishabozlikka ruxsat berib, fohishabozlikka soliq solishga, bir jinsli nikohlarga ruxsat etishga qaratilagan chaqiriqlarni, jinoyatchilik, giyohvandlik, axloqiy buzuvchilik o'sib borayotganini keltirish mumkin. Bu madaniyatlar interferensiyasidan tashqari hozirgi jamiyatda nomoddiy iste'molning o'sishi, odamlarda bo'sh vaqtning ko'payishi bilan ham bog'liqdir. Madaniy xizmat ko'rsatish va dam olish bozorlarida raqobat keskin o'smoqda. Natijada ayrim rejissyorlar ba'zi bir mumtoz dramatik asarlar mazmunini, voqealarni "zamonaviylashtirib", insonning ong osti va biologik instinktlarni qanday yuzaga chiqishini ko'ratuvchi asarlarga yoki absurd tomoshalarga aylantirmoqda. Mumtoz asrlar o'zlarining gumanistik mazmunidan, ezgulik g'oyalaridan mahrum etilmoqda.

San'atkor, albatta, insonning psixologiyasi va ichki dunyosini, shu jumladan, ong osti instinktlarini, muayyan ijtimoiy reallikning, shaxs hayotining absurdligini ko'rsatishga, badiiy tahlil qilishga haqli. Lekin san'atkor doimo ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi chegarani aniq yoki intuitiv his qilmog'i, asarida uni yo'qotib qo'ymasligi, yovuzlik tomonga o'tib ketmasligi kerak. Bundan mutlaqo asarning xulosasi optimistik bo'lishi kerak, degan fikr kelib chiqmaydi. Asar qanday yakunlanishidan qat'i nazar insonpavarlik g'oyasiga xilof kelmasligi lozim. Mumtoz tragediyalarni eslasak, ularning mudom yuksak ideallarga mosligiga amin bo'lamiz.

"Kino inson ongi va xulqiga ta'sir ko'rsatishda o'ziga xos uslublari va imkoniyatlariga ega. Bunday ta'sirning natijalarini kishilarning mashhur qahramonlarga taqlid qilishlarida, ularning xatti harakatlari, qiliqlari va hatto kiyinishlarini tarkorlashga intilishlarida ko'rishimiz mumkin.

O'z davrida mashhur bo'lgan "Tarzan" va "Fantomas" filmlari qahramonlariga taqlidan ularning xatti-harakatlarini takrorlamoqchi bo'lgan ko'plab kishilar halok bo'lgani esa bunday ta'sir hamma vaqt ham ijobiy emasligini ko'rsatadi. Ma'furaviy globallashuv sharoitida ulkan industriyaga aylanib ulgurgan kinomatografiya inson ongi va qalbi uchun kurashning muhim bo'g'iniga aylandi.¹

Ma'lumki, ommaviy madaniyat bozor talablariga va moda asosida rivojlanadi. Aynan ushbu omillar madaniyatlar interferensiyasiga ko'pincha sabab bo'ladi. Teatrlarga tomoshabinlarni jalb qilish maqsadida sayoz mazmunli, sxematik, lekin tomoshabin ehtiroslarini qo'zg'atuvchi sahna ko'rinishlarini, ong osti, mistika, absurd unsurlarni ustalik bilan spektakliga tiqishtirgan asrlar ko'plab qo'yilmoqda. Ular qatorida mumtoz asarlar mazmunini o'ta jo'nlashtirish, ba'zan ochiqchasiga sohtalashtirish, ataylab buzish, asarni modaga mos sxematik andozaga solish, modaga kirgan g'oyalarni asarga tiqishtirish misollari ham ko'p. Aynan shular madaniyatlar interferensiyasiga misoldir. Masalan, P.Chaykovskiy "oqqush ko'li" baletining yangi versiyasida, yosh oqqushlar raqsi yo'llarda qator turib, mijoz kutadigan fohishalar raqsi bilan almashtirilgan. Tabiiyki, balet musiqasining partiturasini ham tegishli joylarda o'zgartirilgan.

Sahna va ekranlarda barcha janrlar va uslublar qorishtirib yuborilmoqda. Agar bu obrazni teranroq ochishga, asar badiiy va etetik saviyasini ko'tarishga xizmat qilganida, uni qabul qilish mumkin edi. Lekin ko'pincha bunday "badiiy vinegret usullari" mumtoz asarni tubanlashtirib yubormoqda. Shunday filmlar paydo bo'ldiki, ularda hamma narsa- sharq yakka kurashini, vampirlarni, faxsh, daxshat, zo'ravonlik, fantastikani h.k.ni ko'rsatish aralash- quralash bo'lib ketgan. Yangicha talqin qilish, asarning zamonaviy versiyalarini yaratish nafaqat teatr va kinoda, balki boshqa san'at turlarida, shu jumladan, badiiy adabiyotda uchramoqda. Freydizm modaga kirganda yozilgan Ayris Merdokning "Qora shahzoda" romani qahramoni Hamlet xatti-harakatini "Edip kompleksi" ning namoyon bo'lishi, ya'ni o'z onasiga nisbatan angalanmagan shahvoniy intilish, o'z otasiga (o'gay otasiga) nisbatan qotillik

¹ Ma'naviy va diniy yetuklik – davr talabi.- T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.- 381-b.

maylining namoyon bo'lishi sifatida talqin qilinadi. Balki roman noan'anaviy jinsiy mo'ljallar modaga kirgan bugungi kunda yozilganida, Hamletning Ofeliya muhabbatini rad etishi, Goratsioga munosabati asar qahramoni tomonidan noan'anaviy shahvoniy intilish sifatida tushuntirarmidi? Agar bunday yondashuvni davom ettirsak, Yagoning Dezdemonaga nisbatan uyushtirgan ig'vosini, tuhmatini uning Otelloni pinhona sevishi va Dezdemonaga rashk qilishi bilan izohlash imkoni tug'iladi. Ba'zi "peshqadam" rejissyorlar shu yo'ldan bormoqda. Butun jahon adabiyoti mazmunini sohtalashtirish mumkin. Madaniyatlar interferensiyasi tufayli qadriyatlar, mezonlar tizimi o'zgarmoqda, san'atda degumanizatsiya (insonpavarlikning yo'qotish) chuqurlashmoqda.

Kapitalizm rivojlanib, ommaviy iste'molchilik jamiyati shakllangani sayin individualizmni jamoaviylikka qarama-qarshi qo'yish kuchaygan. Mumtoz g'oyalar deformatsiyaga ucharay boshlagan. Keskin individualizm XX asrning ikkinchi yarimida gumanizmni asta-sekin antroposentirizm bilan almashtirdi. Gumanizm o'zining dialektik teskarisi - antigumanizmga- egosentirizmga aylanadi. Erkinlik, ma'suliyat bilan mushtaraklik ekanligi unitiladi.

Ma'suliyatsiz erkinlik shaxs ma'naviyatini yemiradi. Ushbu holat, tabiiyki, ommaviy madaniyatning sohta qadriyatlarida o'z aksini topadi. Oqibatda aksilmadaniyatni keltirib chiqaradi. Qotillik, zo'ravonlik, qonxo'rlik (vampirizm), shahvoniylikni ochiqchasiga ko'rsatib, "estetiklashtiruvchi" filmlar, kitoblar ko'payib ketdi. Ularning paydo bo'lishini faqat o'z egalariga katta daromad keltirishi bilangina tushuntirish noto'g'ri. Jamiyatda qadriyatlar tizimi va ijtimoiy mo'ljallar o'zgarmaganda, pornografiya industiriyaning alohida turiga aylanmas, biror korchalon ochiqchasiga mavjud axloqiy qoida va me'yorlarga qarshi turib, zo'ravonlik va boshqa aksilinsoniy xulqni estetikashturuvchi bunday asarlarni ommaviy nusxada ko'paytirmas edi. Insonni qurbonlik qilishni oqlaydigan sektalar, "qora jodugarlik" ning ba'zi turlari, tajovuzkor, agressiv diniy sektalar va shunga o'xshash hodisalarning ko'payishini ham faqat ularni tashkil etgan shaxslarning boylikka, odamlar ustidan hukmronlik qilishiga intilishi, o'ta shuhratparastligi bilan izohlash qiyin. Tan olish kerakki, jamiyatning ma'naviy inqirozi, odamlarning bir qismi ijtimoiy mo'ljallarini

va axloqiy, e'tiqodiy tayanchini yo'qotib qo'yganligi sababli turli sektalar, ekstremistlar, marginal guruhlar tuzog'iga ilinib qolayotir. Bunday kishilarning ko'pchiligini savodsiz, omi odamlar deyish qiyin. Ular orasida, afsuski, yoshlar talaygina. Masalan, bugungi kunda ayrim yoshlarimizning to'g'ri yo'ldan adashib turli ekstrimistik va terroristik guruhlar domiga tushib qolishi yoki diniy aqidaparastlikka berilishi ham interferensiya hodisasi bilan bog'lash mumkin. Bu misollar insonparvarlik, axloqiylikning, e'tiqodiy ma'yorlarning chuqur transformatsiyaga uchrashini, qisman so'nib qolganini bildiradi.

Yuqoridagi xulq-atvorga sabab bo'ladigan barcha ijtimoiy, siyosiy, axloqiy, tibbiy, psixologik, pedagogik va boshqa omillarni aniqlash zarur. Axir bunday xulq kimlar uchun avvalgi qadriyatlardan hafsalasi pir bo'lganing, kimlar uchun tarbiyasidagi nuqsonlarning, yana kimlar uchun jamiyat tomonidan unga yoki yaqinlariga nisbatan adolatsizlik qilinganligining oqibatida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Ammo aksariyat hollarda ular jamiyat ma'naviy inqirozi, madaniyatlar interferensiyasi oqibatidir. 2013 yil bahorida Rossiyaning "Kultura" (madaniyat) taelekanalida boshlovchi M.Shividkoy "Zamonaviy sivilizatsiya madaniyatga ehtiyoj sezadimi?" mavzusida baxs o'tkazadi. Baxslashuvchi muxolifning biri "yo'q, sezmaydi, zamonaviy sivilizatsiyaga bularning kerak emas", degan nuqtai nazarni himoya qildi. O'z fikrini u taxminan shunday dalilladi: "Madaniyat- bu avvalo o'z-o'zini cheklamoqdir. U turli xil axloqiy, diniy va shu kabi ijtimoiy me'yorlar, an'analar tizimidir. Zamonaviy sivilizatsiyaga bularning keragi yo'q, chunki uning rivojlanishiga to'siq bo'ladi". Uning mulohazalariga baho berib o'tirmasdan, qayd etmoqchimizki, u zamonaviy jamiyatning madaniyatga nisbatan munosabatdagi tendensiyalardan birini ancha to'g'ri payqay olgan. Ushbu tendensiyaga muvofiq zamonaviy sivilizatsiyaga madaniyat nari borsa tovar sifatida kerak, zinhor jamiyatning g'oyaviy- intellektual va hissiy- emotsional asosi sifatida emas.

Interferensiya ijtimoiy, siyosiy va huquqiy sohalarda birinchi galda insonparvarlik g'oyasi (demak, ezgulik, adolat, haqiqat, insof, diyonat va h.k. g'oyalar) to'grisidagi tasavvurlarning xiralashuvi yoki sohtalashuvi sifatida namoyon bo'ladi. Natijada

qadriyatlar tizimi o'zgaradi, haqiqiy gumanistik qadriyatlar sohta va antidemokratik qadriyatlar bilan aralashib ketadi, ayrim xollarda almashtiriladi.

Globallashuv sharoitida butun dunyoda zamonaviy ommaviy madaniyat tez tarqalmoqda. Ommaviy madaniyat beo'ylov, bir o'lchovli insonni shakllantib, aholi ongini boshqarishga qodirligi tufayli jahon jamoatchiligi uning yordamida real muammolardan chalg'itmoqda. Aniq ijtimoiy mo'ljallar o'rniga odamlarga sarob, illyuzor, mavhum mo'ljallar go'yoki universal demokratik qadriyatlar sifatida pesh qilinmoqda. Ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlarda keyingi yillarda yuz bergan demokratiya uchun kurashlar fuqarolar urushiga aylanib ketish xavfini tug'dirmoqda (Afsuski, Suriya u fuqarolar urushiga aylanib, yuz mingdan ortiq kishining hayotiga zomin bo'ldi, ulkan vayrongarchilikka olib keldi). Ular ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlarda qonli to'qnashuvlarga, hatto ayrim hollarda xalqaro kuchlar tomonidan bombardirovkalarga sabab bo'ldi (Liviya). Rivojlangan mamlaktlarning o'ta qattiq iqtisodiy sanksiyalari, turli mamlakatlarda ichki va tashqi kuchlar yordamida sun'iy uyushtirilgan to'ntarishlar, sun'iy keltirib chiqarilgan harbiy mojarolar oqibatida qanchadan qancha tinch aholi, ayollar, yosh bolalar halok bo'layotganini, nogironga aylanayotgani, ochlik va kasalliklardan jabr tortayotganini inson huquqlari va demokratiya uchun kurash zarurati bilan qay darajada oqlash mumkin? Inson huquqini himoya qilish uchun uning o'zini o'limiga, azob-uqubatga mahkum qilishi kerakmi? Madsad vositani hech qachon oqlamagan! Nojoiz vositalar tufayli eng olijanob maqsad ham o'zining dialektik qarama-qarshiligiga, teskarisiga aylanmoqda.

Boshqa bir aniq voqeani keltiramiz. U qonli, fojeali emas, balki o'ziga xos ermakdir. 2013 yil oktabrida Chexiya Respublikasida parlamentga navbatdan tashqari saylov bo'lib o'tdi. Saylovoldi tashviqot kompaniyasi avjga chiqqan paytda mamlakat Prezidenti saroyi qarshisida odamlar sayr qiladigan gavjum va so'lim joyda mahobatli skulptura paydo bo'ldi. U o'rta barmog'i balandga ko'tarilgan inson mushti tasviri edi. Shunday haqoratomuz-ig'vogarona usulda haykaltarosh amaldagi hokimiyatga o'z munosabatini bildirgan. Yeronevs kanali xabar berganidek, skulptura ko'pchilikning, ayniqsa yoshlarning olqishiga sazovor bo'lgan.

Har qanday skulpturani, hatto vaqtinchalik va tashviqot xarakteridagini ham, to'g'ri kelgan joyga xoxlagan paytingda o'rnatolmaysan. Tanlangan joy va vaqt nafaqat saylov kommissiyasi, hatto mahalliy hokimiyat (shahar meriyasi) bilan kelishilganiga shubha yo'q. Nima bu – so'z (munosabatni ifodalash) erkinligimi yoki zamonaviy siyosiy madaniyatning bujmaygan aftimi? Ushbular xalqaro siyosiy va huquqiy madaniyatda, jahon jamoatchiligi ongida qadriyatlar va mo'ljallar interferensiyaning sodir va namoyon bo'lgan qismidir.

Bolalar ustidan shahvoniy zo'rlikni amalga oshirishni, pedofilik mazmundagi suratlarni va reklamani ochiq ko'rsatuvchi yashirin saytlarni ayrim kishilar tomonidan Internetga joylashtirish yoki o'zlarining boshqa xildagi salbiy xatti- harakatlari bilan maqtanish – bu, ayniqsa o'smirlar va yoshlarga xos-hozirgi jamiyat a'zolarining bir qismi ayrim asl ahloqiy va huquqiy mezonlarni yo'qotib qo'yganini bildiradi. Axloq va huquq me'yorlarni buzadigan kimsalar barcha jamiyatlarda uchragan. Lekin ular o'z xulqi, xatti-harakati bilan maqtanmagan. Boshqalar bu tarzdagi maqtanchoqlardan hazar qilgan, ba'zan ularni qattiq jazolagan. Bugun esa ko'pchilik bunday hollarda befarq, ayrimlari esa nosog'lom qiziqish bildiradi. Shu sababdan Internet tarmog'idagi bunday yashirin saytlarni yo'qotish qiyin kechmoqda.

Ma'lumki, inson erkinligi va huquqlari – eng oliy umuminsoniy qadriyatlar bo'lib, jamiyat taraqqiyot darajasining asosiy mezonlaridan hisoblanadi. Jamiyat insonga o'zining barcha sog'lom biofiziologik, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini imkon qadar to'laroq qondirishga sharoit yaratmog'i lozim. Sog'lom va nosog'lom ehtiyojlar bir-biridan jamiyatga va boshqa odamlarga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi yoki qondirilish bevosita yoki bilvosita hech kimga zarar yetkazmasa, u jamiyat tomonidan qabul qilinishi, ma'qullanishi mumkin. Aks xolda bunday ehtiyojdan voz kechish kerak.

Insonning ehtiyojlariga va ularni qondirish huquqiga asstrakt gumanizm, asstrakt liberalizm nuqtai nazaridan yondashib bo'lmaydi. Inson o'z ehtiyojlarini jamiyatda qabul qilingan muayyan tartib-qoidalar, me'yorlar asosida qondiradi. Ba'zi bir biofiziologik ehtiyojlar intim vaziyatda qondiriladi. Shahvoniy ehtiyojlar shular sirasiga kiradi. Lekin inson huquqlari va erkinliklariga asstrakt gumanizm va antroposentirizm qarashlaridan kelib chiqib yondashish, ommaviy madaniyatni

insoning har qanday ehtiyojlarini, shu jumladan, nosog'lom ehtiyojlarini qondirishga xizmat qildirish shaxvoniyat masalarida ba'zi hollarda aniq ijtimoiy mo'ljallarning yo'qolishiga sabab bo'lmoqda.

Ayrim g'arb davlatlarida bir jinsli nikohlarning qonuniylashtirilishi, bunday nikohga asoslangan oilalarga farzand asrab olishga ruxsat etilishi inson huquqlari bilan oqlanmoqda. Noan'anaviy seksual mo'ljaldagi kishilarning birga yashashiga qarshilik qilmagan holda, ularga farzand asrab olishlariga ruxsat berilishini, bizning nazarimizda, inson huquqlari bilan mutlaqo oqlab bo'lmaydi. Chunki asrab olinayotgan bolaning ham huquqlarini unutmaslik kerak. U to'laqonli oilada – ham ota, ham ona tarbiyasini olib o'sishiga haqli. Bir jinsli oila qurgan ikki kishining bola tarbiyalash huquqini tarbiyaga olinayotgan bolaning huquqlarini poymol etish hisobidan ta'minlash- antigumanizm, bolaga nisbatan zo'ravonlikdir. U o'zligini, o'zining haq va manfaatlarini, shu jumladan, shahvoniy moyilliklarini hali to'liq anglab ololgan emas. Bir jinsli nikohdagi oilada esa asrab olingan bolaning jinsiy mo'ljali sun'iy ravishda uning asl tabiatiga qarama- qarshi shakllantirilmasligiga hech kim kafolat bermaydi.

Keyingi yillarda gender tengligi masalasi inson huquqlarini ta'minlashning dolzarb sohalaridan biriga aylandi. Bu jumladan hayotiy muhim masaladir. Bu juda muhim masaladir. Osiyo, Afkira, Lotin Amerikasi rivojlanayotgan mamlakatlardagina emas, baliki Yevropa va Shimoliy Amerikaning rivojlanayotgan mamlakatlarida ham, birida ozroq, birida ko'proq, gender muammosi mavjud. Ammo jinslar teng huquqligi masalasi ustalik bilan asta- sekin "gender inqilobi" masalasiga aylantirilmoqda. Emishki, o'zini erkak yoki ayol, deb hisoblash har bir kishining xos huquqi. Shu sababdan bolalarga ota – erkak, ona – ayol, sen o'g'ilsan yoki qiz bolasan, umuman ayol yoki erkak degan narsani o'rgatmaslik kerak emish. Bola ulg'ayib, balog'ataga yetgach, unga qaysi bir jins ma'qul bo'lsa, shunisini tanlab olarmish. Aytishlaricha, Shvetsiyada aynan ushbu tarbiyaviy tamoyilga asoslangan bir jinsli bog'cha faoliyat yuritmoqda.¹

¹ [http:// www.gumer. Info/bibloteke Bukes/ Gum/polikard/03.php](http://www.gumer.info/bibloteke/Bukes/Gum/polikard/03.php).

Bir jinsli nikohlarning va gey-paradlarning OAV orqali ochiqchasiga targ'ib etilishi zamonaviy jamiyatda ushbu masalada haligacha go'yoki mavjud diskriminatsiyaga chek qo'yish istagi bilan tushuntiriladi. Aslida amalda (de - fakto) demokratik mamlakatlarda seksual ozchiligni tashkil etuvchilarning hech qanday diskriminatsiyasi uchramaydi. Tabiiyki, yuridik diskriminatsiya saqlanib qolgan mamlakatlarning jinoyat va protsessual kodekslaridan tegishli me'yorlarni chiqarib tashlash uchun kurashish kerak. Gap bir jinsli nikohlarning qonuniylashtirilishida ham emas, balki tajovuzkor, majburan tiqishtirilayotgan tashviqotlardadir. Fransiyada tegishli qonun qabul qilinganidan keyin ilk bora rasmiylashtirilgan bir jinsli nikohni ro'yxatga olish marosimida 2013 yil may oyi oxiri – iyun oyi boshlarida Yevronevs kanallari orqali tinimsiz ravishda bir hafta davomida ko'rsatildi. Birorta siyosiy yangilikka, ijtimoiy yoki madaniy voqeaga, ilmiy kashfiyotga yoki qirollar "yulduzlar" hayotiga bunchalik efir vaqti ajratilgan emas. Axborotning mazmuni va maqsadni qo'ya turaylik, unga ajratilgan efir vaqti hajmining o'ziyoq bu masalada aniq axloqiy, ijtimoiy mo'ljallar yo'qotilayotganidan dalolatdir. Gey-paradlarning TVda namoyish etilishi haqida ham shunday deyish joiz.

Noan'anaviy jinsiy mo'ljaldagi kishilar, geylar o'tmishda ham bo'lgan. Turli davrlarda jamiyat ularga ham har xil munosabat bildirgan. Totalitar tuzumlar ularni ta'qib qilgan. Ammo ko'pincha, agar jamiyat axloqiga oshkora xavf solmasa, hech kimning geylar bilan ishi bo'lmagan. Yashirinch, intim holatda o'z ehtiyojlarini qondirib yuravergan. Bugun demokratik mamlakatlarning birortasida ular de-fakto ta'qib qilinmaydi, huquqlar chegaralanmaydi. De-yure bir jinsli nikohlar yigirmaga yaqin davlatlarda qonuniylashtirilgan. Lekin geylarning o'z shavoniy ehtiyojlarini, noa'naviy moyilligini tajovuzkor holda mutassiblarcha namoyish etishga intilishlari, ba'zi bir deputatlar va siyosatchilar ularning aksiyalarida ishtirok etishlari (sababi ma'lum – saylovlarda ularning ovozini olishga intilish) axloqiy va siyosiy mezonlarning transformatsiyasidan, bu borada aniq ijtimoiy mo'jallar yo'qolganidan darak beradi. Ushbu aksiyalar, bir tomonidan , shaxvoniyat va "gender inqilob" orqali ijtimoiy – madaniy hayotda ozchilikning ko'pchilik ustidan oila, nikoh va jinsiy aloqalar masalalarida hukmronlik qilishga intilishidir, ya'ni antidemokratik hodisadir.

Bunday agressiv urinishlar jamiyat tinch - osoyishtaligiga, barqarorligiga xavf tug'dirmoqda.. Ba'zi masalalar bo'yicha, inson huquqlari, inson ehtiyojlarini qondirish borasida, shunday qilib, zamonaviy siyosiy va huquqiy madaniyatlar – ikkinchi tomondan, o'zaro qarama – qarshilikka duch keldiradiki, u ularning interferensiyasiga olib keladi.

Gey- paradlar va shunga o'xshash aksiyalar, piar-kampaniyalar juda katta mablag' talab qiladi. Ularga moliyaviy homiylik qiluvchilar topiladi. Gap shundaki, agar gey-paradlar va seksual ozchiliklar huquqini himoya qiladigan boshqa aksiyalarni uyushtiruvchi guruhlar biron bankka, korxonaga yoki tadbirkorga homiylik qilishni so'rab murojaat qilsa, rad javobi berishidan qo'rqadi. Chunki OAV va Internetda uni nodemokratik qarashlarda, inson huquqlarini buzishda va boshqa ko'plab "gunoh" larda ayblovchi materiallar paydo bo'ladi. Homiylikdan bosh tortgan yuridik yoki jismoniy shaxs yomonotliqqa aylanadi, uning biznesi kasodga uchrashi hech gap emas. Har holda mijozlarning anchasidan ayriladi. M.Veller to'g'ri ta'kidlaganidek, norma (sog'lom me'yor) va patologiya (xastalik) o'z huquqlarida tenglashtirilmagan, balki patologiya yana axloqiy ustunlikka ega bo'lmoqda"

Mutaassiblikning har qanday shakli – siyosiy, diniy, axloqiy va sh.k. – insonparvarlik g'oyasiga putur yetkazadi. Mutaassiblik yuksak va ommaviy madaniyatlar interferensiyasiga sabab bo'luvchi omillardan biridir. Tarixdan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin – bolshivizm, fashizm, rasizm, shovinizm. Siyosiy terrorism, diniy ekstrimizm va h.k. Endi ular qatoriga noan'anaviy shahvoniy mo'ljalidagi marginal mutaassibligi ham qo'shish kerakka o'xshaydi.

Yana ikkita misol keltirish bilan cheklansak. Maishiy turmushda nudizm (qip yalong'och yurish) misollari ildizi axloqiy me'yorlarning zaiflashuviga borib taqaladi. Ayrim xotin – qizlarning badanlariga shiorlar yozib yarim yalang'och (toples) holatda jamoatchilik joylarida, siyosatchilarning presskonferinsiyalari va mitnglarida norozilik aksiyalari uyushtirishlari siyosiy maqsadlarga muvofiqlikka axloqiy me'yorlarning qurbon qilinishidir. To'g'ri, toples-protestlarni ommaviy axborot vositalari jon-jon deb yoritadi, chunki u odamlar diqqatini, ayniqsa erkaklar diqqatini jalb qiladi. Namoyishchi ayollarga tekin piar ta'minlanadi, ular mashhur bo'ladi. Bu esa ularning

boshqa aksiyalarda qatnashishi uchun to'lov narxini oshiradi. Gey- paratlarda deputatlar va siyosatchilarning qatnashishi to'g'risida ham shunday deyish joiz: nohaqlik evaziga siyosiy kapital ishlash. Ikkinchi misol – ayrim mamlakatlarda bir jinsli nikohlarga bola asrab olishga ruxsat etilishi munosabati bilan bog'chalarda va maktablarning boshlang'ich sinflarida tarbiya jarayoniga kiritilayotgan (yoki talab qilinayotgan) o'zgarishlardir. Ularga muvofiq normal oilalar bolalari bir jinsli nikohga qurilgan oilalar saqlab olgan bolalarga ota – onasi haqida "noto'g'ri" savol berib qo'ymasligi, eshitgan javobidan o'zlari axloqiy travma olmasliklari va o'rtoqlariga ham yetkazmasliklari uchun shunday tarbiyaviy axborot bermoqda: "Ayrim bolalarga ikki ota bo'lib, ona bo'lmasligi, ayrim bolalarda esa, aksincha, ikki ona bo'lib, ota bo'lmasligi mumkin. Bunga ajablanmaslik kerak. Oilalar har xil bo'ladi " 2013 yilning avgust oyida ba'zi telekanallar shunday axborot beradilar: GFRda bir fuqaro sud qarori bilan bir kunga qamalib chiqqan. Sababi - u o'zining boshlang'ich sinfda o'qiydigan qizalog'ini jinsiy tarbiya mavzusi o'qitiladigan ikki darsga qatnashiga ruxsat bermagan. Ma'lum bo'lishicha, bunday darslarga bolalarga nafaqat erkak va ayol o'rtasidagi intim aloqalar to'g'risida shunigdek, noan'anaviy seksual aloqalar haqida ham "bilim" berilarkan, jinsiy a'zolarining chizilgan sur'atlari va h.k.lar ko'rsatilgan ekan. Ba'zi bolalar dahshatga tushib, gangib qolar, ayrimlari uvdos tortib yig'lar ekan. Tabiiyki, hamma ota - onalar ham yetti – sakkiz yoshli farzandlarini bunday usulda o'qitishga rozilik beravermaydi, bunday darslarni pornografik deb baholaydi. Bu qabildagi beshavqat jinsiy tarbiya darslarini ilmiy – psixologik va pedagogik jihatdan asoslash qiyin. Bolalarning yoshi va tayyorgarligini hisobga olib ularga berish mumkin bo'lgan axborot me'yorini yo'qotib qo'yish axloq sohasidagi interferencesiyaning belgisidir.

Ko'rinib turibdiki, noan'anaviy jinsiy mo'ljallar to'g'risidagi axborotni endi aqli kirayotgan, ko'ngli beg'ubor, jinsiy aloqalar to'g'risida hali hech qanday tasavvuri yo'q bolalarni, jilla qursa, balog'at yoshigacha asrash ba'zi mamlakatlarda zarur hisoblanmayotir. Yoki, aksincha, bolalarga ota - ona, erkak – ayol, o'g'il bola – qiz bola, degan so'zlarni ishlatmaslik, ularni o'rniga "u" olmoshini qo'llash amaliyoti targ'ib etilmoqda (turkiy tillarda gramatik jins yo'qligi uchun ushbu hodisani

tushuntirish biroz qiyinroq. Masalan, rus tilida erkakka nisbatan – ”on”, ayolga – ”ona”, gramatik o’rta jinsni anglatuvchi so’zlarga nisbatan ”ono” olmoshlari ishlatiladi. Bizning tilda gramatik jins yo’qligi uchun barcha hollarda ” u” olmoshi qo’llaniladi. Shevtsiyadagi bir bog’chada otasini ham, onasini ham bolaga, ruschaga tarjima qilinsa, ”ono” deb atashni o’rgatmoqdalar).

Yuqorida keltirilgan misollar hozirgi zamon g’arb ijtimoiy – madaniy hayotining bir qismidir. Ularga tasodifdan va kutulmaganda vujudga kelib qolgan emas. Balki XX asr davomida yuz bergan ijtimoiy – siyosiy fojealar, inqiloblar, urushlar, qaram – qarshiliklar, termoyadro urushi xavfi natijasidir. Urush va o’lim xavfi aholining bir qismida axloqiy immunitetni o’ta zaiflashtirib, jamiyatni yo’ldan ozdirdi. Odamlar o’zini ”o’lib ketguncha, yashab qol” qabilida turib tuban ehtiroslariga erkinlik berdi. Zamonaviy jamiyatning ma’naviy inqirozi, shuningdek, XX asr 60- yillar noroziliklari va seksual inqilobi, seksual ozchiliklarning huquqlari uchun o’ta mubolag’alashgan kurashlar, ma’naviy – madaniy inqirozlar, zamonaviy ilmiy – texnika taraqqiyoti ziddiyatlari, insoning jamiyatdan, fundamental umuminsoniy qadriyatlardan tobora begonalashishi natijasidir. Shuningdek, bular insonni haqiqiy ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy muammolardan chalg’itib, uning miyasini har xil soxta qadriyatlar bilan to’ldirib tashlashga, uning ongini boshqarishga, ijtimoiy noroziliklar oldini olishga qaratilgan, shaklan mafkurasizlashgan ijtimoiy – madaniy amaliyotdir. Bu amaliyot ba’zi yuksak va ommaviy madaniyat o’zaro ta’sirini salbiy tomonga burib, ularning interferensiyasiga sabab bo’lmoqda.

Yuqorida keltirilgan omillarning barchasi ijtimoiy sabablardir. Biz sal ilgariroq ma’naviy sabablar – mumtoz gumanizm mavhum antroposentrizm bilan almashtirilgani, jamoaviylik tamoyili individualizmga to’liq qurbon qilgani to’g’risida gapirgan edik. Yana sabab sifatida F.Nitshening ” xudo o’ldi”, Dostoyevskiy qahramoni Alyosha Karamazovning ”agar xudo yo’q bo’lsa, unda hamma narsa mumkin ekan – da” so’zlarini, oqibat sifatida E.Frommning ”inson ham o’ldi” xulosasini qo’shimcha qilish mumkin. G’arb ma’naviy inqirozining sabablaridan biri – mumtoz qadriyatlar tizimining madaniyatlar interferensiyasi tufayli ancha – muncha

vayron bo'lishi, shu jumldan, insonparvar diniy qadriyatlar va an'nlardan voz kechishdir.

Boshqa tomondan, individualizmni to'liq inkor etib, jamoaviylikka qurbon qilish ham ijobiy natija bermaydi. Jamiyatda turg'unlik boshlanadi, an'anaviylik ustunlik qiladi. Ba'zi xollarda jamoa manfaati uchun o'z hayotini qurbon qilishga tayyor kamikadzelar, shahidlar paydo bo'ladi. Ayonlashdiki, shaxs va jamoa, inson va jamiyat manfaatlari uyg'unligiga erishmoqqa harakat qilish lozim. Buning uchun tarbiya konsepsiyalarini jamiyat va jamoa bilan uyg'un yashash tuyg'ularini shakllantirishni, shu jumldan, muhojirlarning yangi muhitga uyg'un integratsiyasiga yordamlashishni nazarda tutmog'i lozim.

Sho'rolar davrida V.I.Leninning milliy munosabatlarda ikki tendensiya – birinchidan, millatlarning ichki har tomonlama rivojlanishi, milliy davlatlar kuchayishi va, ikkinchidan, milliy chegaralardan oshib o'tib kapitalning jahon maydoniga chiqishi natijasida millatlarning yaqinlashuvi vujudga keladi, degan konsepsiyasi jahon xalqlari aloqalariga, umuman jahon taraqqiyotiga nisbat qo'llanilar edi. Ushbu tendensiyalar kapitalizm sharoitida tarixiy taraqqiyot qonuniyati hisoblanar edi. Bu tendensiyalar SSSR xalqlariga nisbatan ham ijodiy qo'llanilib, sotsializm sharoitida, bir tomondan, millatlarning gullab – yashnashi, ikkinchi tomondan – o'zaro yaqinlashishi yuz berdi. Qardosh xalqlarning o'zaro hamkorligi va barakali ta'siri, yordami, bir – biridan o'rganishi tufayli ularning madaniyatlari o'z qardoshlaridan faqat eng ilg'or yutuqlarni, g'oyalarni va boshqa ijobiy tomonlarni qabul qiladi, boyiydi, deb hisoblanar edi. Yagona ilg'or kommunistik go'yalar va yagona oliy maqsad – kommunistik umuminsoniy jamiyatga intilish ularni yaqinlashtiradi, ular shaklan milliy, mazmunan sotsialistik sovet madaniyati doirasida birlashadi, kommunizm sharoitida esa yagona umuminsoniy madaniyatga aylanadi, degan aqdida qaror topgan edi. Umuman olganda, tarixiy materializmning taraqqiyot konsepsiyasi millatlarning har qanday o'zaro ta'sirida faqat ijobiy tomonlarigina ko'rar edi. Amaliyot esa ushbu aqida o'ta bir yoqlama ekanligini ko'rsatsa-da, sho'ro mafkurachilari milliy madaniyatlar o'zaro ta'siring faqat ijobiy jihatlarigina tan olib, salbiy aloqasi jarayonida nafaqat ilg'or yutuqlari va g'oyalari bilan, shungdek, qoloq,

hatto buzg'unchi g'oyalar va me'yorlar, maishiy turmushdagi qo'pollik va dag'alliklar, tarbiyadagi kamchiliklar bilan ham bir – birini "boyitishi" ni ko'rsatadi. Nozik ta'b, didni tarbiyalash, inja san'atni, yuksak axloqiy me'yorlarni o'zlashtirish, o'rganish dag'allik, so'kinish, ichkilikbozlikni va boshqa illatlarni o'zlashtirishga nisbatan ancha qiyin, albatta. Ba'zi illatlarning o'zi yuqumli bo'ladi, kishidan ortiqcha kuch va g'ayrat talab qilmaydi.

Milliy madaniyatlar o'zaro ta'siri, shunday qilib, ziddiyatli, qarama- qarshiliklarga boy hodisa. Unda, shubhasiz, ko'plab ijobiy jihatlar – yangi yutuqlarni o'rganib, yangi g'oyalarni qabul qilib bir birini haqiqatan boyitish, rivojlanishini tezlashtirish, provinsial va milliy cheklanganlikni yengib o'tish, natijada jahon standartlariga yaqinlashish tendensiyasi mavjud. Bu jarayonda haqiqatan Lenin aniqlagan ikki tendensiya ijobiy mazmunda qisman mujassam ifodalanadi. Ushbu ijobiy tendensiyaning shartli ravishda milliy madaniyatlar diffuziyasi deb atash mumkin. Lekin ayni paytda milliy madaniyatlar o'zaro ta'siri jarayonida diffuziya bilan bir qatorda salbiy tendensiya – interferensiya ham namoyon bo'ladi.

SSSR xalqlari milliy madaniyatlari o'zaro ta'siri, bir – birini boyitib va yaqinlashuvi to'g'risida sho'rolar davrida minglab katta – kichik ilmiy maqolalar, risolalar, monografiyalar chop etilgan, dissertatsiyalar yoqlangan. Bugun ayon bo'lmoqdaki, milliy madaniyatlar aloqalarini faqat ijobiy baholash mumkin emas. Ayniqsa axloqiy, siyosiy va maishiy sohalarida jahon miqyosida milliy madaniyatlar interferensiyasi hollariga misollar ko'p. Milliy madaniyatlar interferensiyasi – alohida o'rganilmagan o'ta murakkab mavzu. Uni o'rganishda juda katta va keng miqyosda qiyosiy va sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish talab qilinadi. Lekin muhojirlar hayoti va yangi voqelikka integratsiyalashuvi qiyinchiliklari ushbu ma'noda mulohaza uchun ancha – muncha material beradi.

Bugun shahar va qishloq hayotida avvalgi asrlardagidek keskin qarama – qarshilik yo'q. Kommunikatsiya vositalari, zamonaviy savdo – sotiq va ommaviy iste'mol vositalari buyumlari ular orasidagi qaram – qarshiliklarni yo'q qildi. Saqlanib qolayotgan tafovut madaniyat va mentalitetda bir – biri bilan kelisha olmaydigan darajada emas, yashash sharoitida esa ko'proq shaharda kundalik turmush

kechirishning sur'atlari, vaqtning zichligi, yashash muhitining odamlar, transport vositalari, shovqin bilan to'lib – toshgani hamda nafas oladigan havoning ifloslanish darajasi yuqoriligi bilan belgilanadi. Lekin urbanizatsiya jarayoni nisbatan kech boshlangan, hali ham davom etayotgan Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi ko'pchilik davlatlarda shahar va qishloq o'rtasidagi, binobarin ular aholisi mentalitetidagi tafovutlar hali ancha kuchli. Bu, albatta, madaniy hayot ziddiyatlarida aks etmoqda.

Iste'molchilikka va ommaviy madaniyatga asoslangan hozirgi zamon bir mamlaktdan ikkinchi mamlakatga kelgan muhojirlar ham yangi muhitga tezroq moslashish imkoniytiga ega. Ammo muhojir qoloq yoki rivojlangan mamlakatdan kelgan bo'lib, uning didini, tili, maishiy turmushi va urf – odatlari, savodxonlik ko'rsatgichi yangi mamlakatdagi aholinikidan keskin farq qilsa, madaniyatlar, mintalitetlar interferensiyasi tufayli ziddiyatlar yuzaga qalqib chiqdi. Muhojir yashash, mehnat qilish va hayoti xavfsizligini ta'minlash uchun yangi muhit talablarini minimal darajada o'zlashtiradi. Lekin uning ba'zi talablarini tushunmasligi, qobiliyati yetishmasligi uchun emas, balki psixologik jihatdan qabul qilolmasligi sababli o'zlashtirmaydi. Chunki ular muhojirning yoshlikdan shakllangan qarashlariga, odatlariga, e'tiqodiga zid keladi. Ayni paytda o'zining avvalgi madaniy qadriyatlariga ham munosabati o'zgaradi. Ularning bir qismidan u voz kechishga majbur, chunki yangi muhitga mos kelmaydi. Ammo qadriyatlar orasida shundaylari ham borki, ulardan u yangi madaniy voqelikka mos kelgani uchun emas, balki o'zining ongida, psixologiyasida yuz bergan o'zgarishlar, dinamik stereotipning sinishi, hayotdan hafsalasi pir bo'lgani, uzoq muddatli noaniqlik holatiga tushib qolgani yoki boshqa ijtimoiy stresslar tufayli foydalanmay qo'yadi. U eski qadriyatlar tizimidan foydalana olmaydi, yangi qadriyatlarning ko'pchiligidan esa foydalanishni istamaydi. Ushbu holatdaga madaniy – psixologik, kengroq – ma'naviy muhitlar interferensiyasi deb qarash mumkin. Yevropa mamlaktlarida afrikalik va osiyolik muhojirlarning o'zlari uchun yangi muhitga yetarlicha integratsiya bo'la olmayotgani, multi-madaniy modellar muvaffaqiyatsizlikka uchragani sabablaridan biri ham, nazarimizda, madaniyatlar interferensiyasidir.

Multe – madaniy modellar samarali bo'lishi uchun muhojirlarga yangi muhitga moslashishlariga yordam beradigan shart – sharoit yaratish, madaniy psixologik interferensiyani minimallashtirish lozim. Bunda aniq maqsadlarga yo'naltirilgan kompleks dasturlar qo'l keladi. Muhojirlarga til va kasb o'rganishdan tortib, to yashayotgan davlatning qonunlari-yu xalqining madaniy an'analari, urf-odatlar, siyosiy va diniy bayramlari to'g'risida zarur minimal bilim berish, ularga nisbatan tolerantlik munosabatini shakllantirish ko'zda tutulmog'i lozim. Ushbu masalada yevropaliklar Isroil tajribasini ijodiy o'rgansalar, foydadan xoli bo'lmasdi. Biroq bu masalning bir tomoni. Ikkinchi tomoni esa g'arb mamlaktalarida o'z aholisining ham muhojirlarga nisbatan tolerantlik munosabatini shakllantirish zaruriyatidir. Ayniqsa yoshlar o'rtasida. Aholining turli qatlamlari orasida muhojirlarga nisbatan ishonqiramay qarash, diskriminatsional munosabati uchrab turadi. Skinxedlar va turli tajovuzkor guruhlar ochiqchasiga dushmanlik munosabatini namoyon etadilar. Bu muhojirlarga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Ularda ham kelgan mamlaktni xalqiga, davlat qonunlari adolatligiga nisbatan ishonch yo'qoladi. Mamlakatning tilini, madaniyatini o'rganish ishtiyoqi so'na boshlaydi. O'ziga xos madaniy – psixologik norozilik, qarshilik paydo bo'ladi. Agar vaziyat o'zgarmasa, norozilik kuchayib ijtimoiy – siyosiy, diniy va etnik – madaniy norozilik darajasiga ko'tartilishi mumkin. Bunday holda jamiyatning ijtimoiy – siyosiy barqarorlik xavf ostida qoladi.

Muhojirlarga yangi muhitga nafaqat begona, balki ba'zan xatarli, dushmanlik muhiti, bo'lib tuyuladi. G'yoki o'zini himoya qilish uchun undan kurashish talab qilinadi. Og'ir iqtisodiy ahvolga tushib qolgan muhojirni yo'ldan ozdirish osonlashadi. Aynan shundaylar orasidan ekstrimistik guruhlar o'z jangarilarini yollaydi.

Bugun voqelikda madaniyatlar interferensiyasi ijtimoiy qadriyatlar va mo'ljallarning kuchli demoformatsiyasiga, ba'zan tubdan transformatsiya bo'lishiga, hatto ayrim hollarda yo'qolishiga olib kelmoqda. Madaniyatlar interferensiyasi – murakkab masala. Uni faylasuflar, sotsiologlar, madaniyatshunoslar, psixologlar, pedagoglar, barcha gumanitar fanlar vakillari o'z yo'nalishlarida tadqiq etsalargina ko'p narsa oydinlashadi.

Biz boshqa xalqlardan ihotalanib, mahdudlashib, zamonaviy aloqa va muloqot vositalaridan voz kechib yashay olmaymiz. Islom Karimov haqqoniy ta’kidlaganidek, ”Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini o’rab – chirmab, uni o’qima, buni ko’rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o’rab olish, hech shubhasiz, zamoning talabiga ham, bizning ezgu maqsad – muddaolarimizga ham to’g’ri kelmaydi”¹

3- bob bo’yicha xulosa.

1) Zamonaviy taraqqiyot mahsuli o’laroq bugungi kunda davlatlar o’rtasidagi hamkorlik munosabatlari ortib bormoqda. Bu esa madaniy munosabatlar rivojiga shu bilan bir qatorda uning yemirilishiga ham jiddiy ta’sir ko’rsatmoqda. Birinchidan, milliy madaniyat ko’plab zamonaviy madaniyat unsurlarini qabul qilib boyib bormoqda. Ikkinchidan esa madaniy hamkorlik natijasida o’rtachalashgan madaniyat namunlari shakllanmoqda. Bu esa yuksak madaniyatga bo’lgan murojaatning kamayishiga va uning inqirozga uchrash xavfini keltirib chiqarmoqda. Albatta, milliy madaniyatni sof xolda uchatish mumkin emas, madaniyatning asosiy yaratuvchisi o’sha xalqning o’zi bo’lsada unda butun insoniyatning, xalqlarning hissasi mavjud bo’ladi.

2) Bugungi kunda mafkuraviy kurash amalda Yer yuzining barcha nuqtalarida olib borilmoqda. Ommaviy madaniyat ushbu kurashda ba’zan reaksiya kuchlar va nosog’lom mafkuralar tomonida turib ishtirok etmoqda. U o’zining sinalgan usullari bilan, aslida insoniyatning ko’p asrlik madaniy tajribasiga hech qanday aloqasi bo’lmagan qadriyatlarni qaror toptirishga urinmoqda. Prezident Islom Karimov Respublika rahbari bo’lgan yillardayoq bu xavfli mafkuraviy muammo haqida ogohlantirgan edi: ”Gap shu haqda borar ekan, ”ommaviy madaniyat” muammolariga

¹ Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T.,2008, 114-bet

ham alohida e'tibor berishimiz lozim. Ayrim kishilarda yallo qilib yashash, zo'ravonlik, harom-harishlik ruhi hukmronidir. Ba'zan odobsizlik, behayolik, ko'ngilni aynitar darjadagi namoyishlardan odamlarning fig'oni oshmoqda. Ular asriy an'analarimiz, diyonat, vijdon, odob borasidagi xalq udumlarini oyoq osti qilinayotganini aytib, bizni muhofaza eting demoqdalar. Biz bu bilan hisoblashmog'imiz kerak".

3) Yuksak va ommaviy madaniyatlar bir davrda faoliyat ko'rsatib, jamiyatning odamlarning turli ehtiyojlarini qondirayotgan ekan, ular bir-biri bilan aloqaga, raqobatga kirishadi, o'zaro bir-biriga ta'sir qiladi. Ularning o'zaro ta'sirida ikki tendensiya kuzatiladi: diffuziya va interferensiya. Ularning birinchisi ijobiy, ikkinchisida salbiy tendensiyalardir.

4) Diffuziya jarayonida yuksak madaniyatda o'rtachalashgan qatlam kuchayadi. Bu jarayonda xalqning madaniy tayyorgarlik holatini ham hisobga olish zarur. Chunki ayrim hollarda yuksak madaniyat iqtisodiy inqirozga uchramasligi uchun o'rtachalashgan madaniyat namunasiga aylanishiga to'g'ri kelmoqda. Demak diffuziya madaniyatlarning bir-biri tarkibiga kirib borishi jarayonidir. Muammoli tomoni shundaki milliy madaniyat ommaviy madaniyat namunlarini ko'plab qabul qilmoqda. Diffuziya jarayonida madaniyat boshqa ko'rinish va mazmunga o'tadi u mutlaqo yo'qolmaydi.

5) Interferensiya hodisasida esa madaniyatlarning biri ikkinchisini so'ndirishi kuzatiladi. Interferensiya bir madaniyatlar doirasida yuksak va ommaviy madaniyatlar, xalq madaniyati va ommaviy madaniyat o'rtasida hamda xalqaro miqyosda va yerli xalqlar munosabatida ular milliy madaniyatlarining o'zaro ziddiyatli ta'sirida namoyon bo'ladi. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Xususan, ayrim G'arb davlatlaridagi oilaviy qadriyatlarning deformatsiyaga ucharishi, degumanizatsiyaning yuzaga kelishi bilan bog'liq muammolarni aynan shu jarayon bilan bog'lash mumkin.

6) Interferensiya jarayonini yanada yorqinroq tasavvur qilish uchun muhojirlar hayotini tahlil qilish orqali batafsilroq anglash mumkin. Bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga kelgan muhojir yangi muhitga tez moslashish uchun ayni hududdagi

madaniy voqelikka o'zini moslashtirishga harakat qiladi. Agar bu jarayonda muhojirning yashagan muhitidan yangi muhit tubdan farq qilsa interferensiya orqali ziddiyatlar yuzaga keladi. U yangi qadriyatlarni o'zalashtirishni va qabul qilishni xohlamaydi, eski qadriyatlardan esa foydalana olmaydi.

7) Diffuziya va interferensiya hodisasi har qanday madaniy taraqqiyot jarayonida majud bo'lib kelgan. Aksar xollarda u madaniyatning rang-baranligiga va uning boyib borishiga xizmat qilgan. Bu jarayon asrlar mobaynida madaniy almashunuv sharoitida sekinlik bilan ro'y bergan. Bugungi kundagi fan texnika taraqqiyotinig tezlashuvi, urbanizatsiya jarayoning mahsuli sifatida bu tendensiya yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Xulosa.

- \
- 1) Bugungi kunda katta ijtimoiy muammolarga va bahs-munozaralarga sabab bo'layotgan ommaviy madaniyat zamonaviy sotsiumning keyingi ikki asr mobaynidagi muhim atributlaridan biriga aylandi.
 - 2) Sanoat inqilobi va urbanizatsiya jarayoni mahsuli sifatida shakllangan ommaviy madaniyat madaniy munosbatlar tizimiga, qolaversa, inson va jamiyat ma'naviyatiga ham sezirali ta'sir ko'rsatmoqda. Endilikda ma'naviy ishlab chiqarishning o'zi ham ommaviy xarakter kasb etmoqda.
 - 3) Ommaviy madaniyat postmodern jamiyatda ijtimoiy fenominga aylandi. Bu hol ommaviy madaniyat nomini olgan nihoyatda murakkab va serqirra fenoming vujudga kelishiga va yangi asr arfasida umumsayyoraviy tus olishiga sabab bo'ldi. Postmodern jamiyatida madaniyat jamiyatning ko'zgusi sifatida namoyon bo'lmaydi, aksincha, jamiyat ommaviy madaniyat ko'zgusiga aylanadi.
 - 4) Shu bilan bir qatorda ommaviy madaniyat ko'plab ijtimoiy vazifalarni ham bajarmoqdaki uni mutlaqo cheklash va to'xtaishning imkoni yo'q. Zamonaviy ommaviy madaniyat mazmuniy, tarkibiy va funksional o'zgarishlarni boshdan kechirib uni shaxs va jamiyatga ta'siri kuchaymoqda. Bularning barchasi ommaviy

madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashni, shaxsni ma'naviyatini salbiy ta'siridan himoya qilishni dolzarb ahamiyatga ega vazifaga aylantirmoqda.

5) Yuqoridagi fikr va mulohazalarga hamda taqdiqotlarga asoslanadigan bo'lsak ommaviy madaniyatning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Yagona masad, barqaror manfaatlardan xoliligi;
- Muvaqqat, tez o'zgaruvchan xarakterga egaligi,
- Artefakt qadr-qimmatning iste'mol qilinishi darajasiga qarab belgilanishi;
- Vorisiylik prinsipidan xoli ravishda rivojlanishi;
- Shaxs hissiy-emotsional ehtiyojlarini qondirishga yo'nalganligi;
- Shaxsning ma'naviy yuksalishiga xizmat qilmasligi, uning ongini

boyitishga emas, boshqarishga qaratilgani.

6) Ommaviy madaniyat jamiyatda qator funksiyalarni bajaradi. **Birinchidan**, u shaxsning turli kundalik ehtiyojlarini qondiradi. **Ikkinchidan**, shaxsni ijtimoiylashtirish mexanizmi vazifasini o'taydi. **Uchinchidan**, rekreatsion funksiyani bajaradi. **To'rtinchidan**, gnoseologik funksiyani bajaradi. **Beshinchidan**, olamning shaxs orzu-umidlariga mos bo'lgan, afsonalshtirilgan psevdorealistik manzarani yaratadi.

7) Albatta, bunday murakkab tarkib va xususiyatga ega bo'lgan murakkab funksiyalarni bajardigan fenomen o'z-o'zidan shakllanib qolgani yo'q. Buning qator obyektiv va subyektiv sabablari bor.

8) Ommaviy madaniyatning yana bir eng katta ijtimoiy vazifalaridan biri iste'molchilik psixologiyasini shakllantirishidir. Ommaviy madaniyat ommaviy insonni shakllantirishni maqsad qilgan holda uning ehtiyojlarini va didini, iste'molini ham shunga moslaydi. U ommaviy kishi qiziqishlarini iste'molchilik bilan cheklovchi yo'l-yo'riq beradi. Insonni unga nimani taklif qilishayotgan bo'lsa, o'shani iste'mol qilishga, ya'ni passiv, tanqid qilmaydigan, madaniy va boshqa har qanday mahsulotni iste'mol qilishga majbur etishdir.

9) Bugun ommaviy madaniyatning globallashtirish tendensiyasi kuchayib bormoqda, uning butun dunyoda, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda "madaniy mustamlakachilik" funksiyasi ortib bormoqda.

10) Zamonaviy ommaviy madaniyat unsurlari mamlakatimizga kirib keldi va keng tarqalmoqda. Albatta, bu tasodifiy hodisa emas. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi, mustaqillik yillarida yuz bergan iqtisodiy o'sish sur'atlari, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, xorijiy adabiyot, tasviriy san'at asarlariga e'tiborning kuchayishi hamda adabiyot va san'atni yaratishda g'arbona yonadashuvning ildiz otishi kabi kabi holatlar milliy madaniyatimizda diffuziya va interferensiya hodisasini keltirib chiqarmoqda.

Bundan tashqari turizmning rivojlanishi, xalqaro savdo aloqalarining shakllanishi, shuningdek, xorijiy mamlakatlardagi yirik nashriyot va tahririyatlar, kinokonseren va kinokompaniyalar, sutudiya va prodyuserlik markazlarining turli mintaqalarda o'z mahsulotlari uchun yangi bozorlar ochishga qaratilgan say-harakatlari, ayrim siyosiy kuchlarning o'z maqsad va manfaatlarini targ'ib qilishda ommaviy madaniyat elementalaridan foydalanayotgani kabi haolatlar ham sabab bo'lmoqda.

11) Tilga olingan omillar ta'sirida ommaviy madaniyatni nuqul ijobiy yoki salbiy nuqati nazardan baholash mazkur hodisani tahlil qilishda biryoqlamalikka olib keladi. Ommaviy madaniyatning axloqiy buzuvchilik, zo'ravonlik, individualizm va egosentirizm kabi salbiy g'oyalari bilan bir qatorda ular orasida ahamiyatga molik mahsulotlar ham majud. Masalan, zamonaviy ommaviy madaniyat ta'sirida shaxsning yangi axborot texnologiyalarini o'zlashtirish qobiliyatlarini jadal rivojlanadi, umumbashariy qadriyatlar haqidagi tasavvurlari kengayadi. Shuningdek, o'zga millatlar hayoti va madaniy turmushi haqidagi ma'lumotlari oshib boradi. Uning inson huquqlari va erkinliklari, demokaratiya to'g'risidagi tasavvurlari kengayadi, siyosiy madaniyati va faolligi o'sadi.

12) Boshqa tomondan qaraganda esa, shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish usullari va xarakteri tubdan o'zgardi, bo'sh vaqtini faqat ko'ngilochar faoliyat bilab band bo'lish orqali o'tkazdi. Asl madaniyat na'munlariga bo'lgan murojaat kamayib ketmoqda. Nosog'lom qarashlarni targ'ib etadigan ommaviy madaniyat niqobi ostidagi salbiy illatlarni o'tkinchi bir ermak, deb bo'lmaydi. Ular tarixiy-ijtimoiy sharoit sabab yuzaga kelgan tasodifiy hodisa, vaqt o'tishi bilan o'z-

o'zidan yo'q bo'lib ketadi, degan fikrlar ham tog'ri emas. Shunday ekan xotirjamgina qo'l qovushtirib o'tirishga haqqimiz yo'q. Davlatimiz rahbari uqtirganidek, "odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikrga ega bo'lgan barkamol inson qilish tarbiyalash, ularni tafakkurida o'zligini unutmaslik, otabobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish, men o'zbek farzandiman deb, g'urur va iftixor bilan yashashiga erishish" bugungi murakkab va tahlikali davrda to'g'ri yo'ldan og'ishmay yorug' kelajak sari dadil odimlamoqning yagona chorasidir.¹

¹ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., "O'zbekiston", 2000, 4-b.

Taklif va tavsiyalar

- 1- Umumta'lim maktablari darsliklarida "ommaviy madaniyat" uning niqobi ostidagi zararli ta'sirlari bilan chalkashtirish xolatlari uchraydi Demak, darsliklarni qayta ko'rib chiqish va ommaviy madaniyatning salbiy va ijobiy jihatlariga xolis baho berish lozim;
- 2- O'rta maxsus ta'lim tizimida ham, oliy ta'lim tizimida ham ma'naviyat va madaniyat masalalari chuqur tahlil etilgan darslik va adabiyotlar yetarli darajada emas.
- 3-Yurtdoshlarimiz, xususan yoshlarda ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri va samarali foydalanish ko'nikmasini hamda madaniyatini shakllantirish lozim. Rivojlangan dunyoning eng so'ngi fan-texnika yutuqlari, g'oya va qarashlarini o'rganish, amliyotga tadbiq etishda esa ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan yuksak axloqiy fazilatlarimizga suyanmoq kerak.
- 4- Milliy adabiyot va san'at targ'ibotini kuchaytirish, yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularda vatanga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish, loqaydlik va befarqlikka yo'l qo'ymaslik.
- 5- Xorijiy ijtimoiy saytlar o'rniga o'zimizning millatimiz mintalitetiga xos, milliy- ma'naviy qadriyatlarimizni, boy madaniy merosimizni mujassam etgan va uni keng targ'ib eta oladigan saytlarni ko'paytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Prezident I.A.Karimov asarlari, ma'ruzalari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent:O'zbekiston, 2000.
2. Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin.// Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Tom 7.- Toshkent : O'zbekiston, 1999.
3. Karimov I.A. Sog'lom xalq, sog'lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi.// O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lamydi. J.13.-Toshkent: O'zbekiston, 2005.
4. Karimov I.A . Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim.// Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. J.14.- Toshkent: O'zbekiston, 2006.
5. Karimov I.A. Ilmu ma'rifat ziyosi hech qachon so'nmaydi.// jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. J.15.-Toshkent:O'zbekiston, 2007.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyatn – yengilmas kuch.- Toshkent: M'anaviyat. 2008.
7. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohotlar va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir.// Mamlakatni moderniztasiya qilish va iqtisodiyotimiznibarqaror rivojlantirish yo'lida. J, 16.- Toshkent: O'zbekiston, 2008.
8. Karimov I.A. mamlakatni moderniztasiya qilish va yangilanishni izchil davom ettirish – davr talabi.// Vatanimiz bosqichma bosqich va barqaror rivojlanishni ta'minlash – bizning oily maqsadimiz. J.17.- Toshkent: O'zbekiston. 2009.

9. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish.// Vatanimiz bosqichma bosqich va barqaror rivojlanishni ta'minlash – bizning oily maqsadimiz. J.17.- Toshkent: O'zbekiston. 2009.
10. Karimov I.A. mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.- Turkiston.- 2010.- 13 noyabr.
11. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.T., "O'zbekiston", 2000,
12. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.: "O'zbekiston", 2011.

2. Monografiya va kitoblar

- 13.Адорно Г. Негативная диалектика.- М.: Научный мир, 2003.
- 14.Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования.- М.: Academia, 2004.
- 15.Беньямин В. Произведение искусства в эпоху его технической воспроизводимости.- М.: Медиум Культурный центр им.Гете,1996.
- 16.Бердяев Н. Философия неравенства.- М.: Има-Пресс, 1990.17Бодрийяр Ж. Америка.- СПб.: Владимир Даль, 2000.
17. M. Qarshiboyev, S.Nishonova, O.Musurmonova, R.Qo'chqorova. milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari:7-sinf: darslik. Toshkent: M'anaviyat, 2015.-62-65-b.
- 18.Бурстин Д. Американцы: демократический опыт.- М.: Изд. группа Прогресс – Литера, 1993.
- 19.Кара-Мурза С.Г.Власть манипуляции.– М.:Академический Проект, 2007.
- 20.Конен В. Третий пласт. Новые массовые жанры в музыке XX века.- М.: Музыка, 1994.
- 21.Костина А. Массовая культура как феномен постиндустриального общества.- М.:Изд. ЛКИ, 2011.
- 22.Лебон Г. Психология народов и масс.- СПб: Макет, 1995.

- 23.Odilxonova Sh. “Ommaviy madaniyat” tahdidi.- Toshkent.- Muharrir, 2010.
- 24.Ортега-и-Гассет Х. Восстание масс.- М.: Аст: Ермак, 2005.
- 25.Тард Г. Законы подражания.- М.: Акад. проект, 2011.
- 26.Токвиль А. Демократия в Америке.- М.: Прогресс, 1994.
- 27.Тоффлер Э. Шок будущего.- М.: ООО “Издательство АСТ”, 2002.
- 28.Турен А. Возвращение человека действующего.- М.: Научный мир, 1998.
- 29.То’rayeva Sh. Ma’naviy tahdid: falsafiy talqin.- Toshkent: Muharrir,2010.
- 30.Фрейд З. Психология масс и анализ человеческого «Я».- М.: Аст:Астрель, 2011.
- 31.Фромм Э. Бегство от свободы.- М.: ООО “Издательство АСТ”, 2011.
- 32.Erkayev A. Ma’naviyat va taraqqiyot.- Toshkent.- M’anaviyat, 2009.
- 33.Quronov M. Esonov F. Gibrid olmadan gibrid odamgacha.- Toshkent: Muharrir.2010. .
- 34.Brzezinski Z. Between Two Ages: America’s Role in the Technotronic Era.- N.Y.,1970.
- 35.Gans H.J. Popular Culture and High Culture: an Analysis and Evaluation of Taste.- N.Y.,1974.
- 36 Ma’naviy va diniy yetuklik – davr talabi.- T.:”Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.- 381-b.

3. Мақолалар

- 37.Белл Д. Массовая культура и современное общество.// Америка.- 1965.- №103.
- 38.Бланшо М. Отсутствие книги.// Комментарии.- 1997.- №11.
- 39.Болховитинов Н. Н. Американская цивилизация как исторический феномен.// Американская цивилизация как исторический феномен: Восприятие США в американской, западноевропейской и русской общественной мысли / Отв. ред. Н. Н. Болховитинов.- М.: Наука, 2001.
- 40.Бояркина Н. Шампунь без пены.// Аргументы и факты.- 2012.- №1.

- 41.Валевич Е. С. «Массовый человек» как патология современного общества // Омский научный вестник.- 2008.- № 1.
- 42.Bafojev. B Markenting-samarali vosita.// jamiyat va boshqaruv.-2010
- 43.Егорова Г.И. Воспитательный и образовательный потенциал интеллектуальной культуры специалиста. Ведущие подходы и принципы функционирования.// Ползуновский вестник.- 2005.- №3.
- 44.Елютин О. Замятин и Оруэлл в одном флаконе // Татьянин День. – 1998. - № 21.
- 45.Iminova N. Axborot riskidan himoyalanişning mexanizimi.// jamiyat va boshqaruv.- 2010.- №2.
- 46.Интернет.// <http://ru.wikipedia.org/wiki>.
- 47.Кинематограф Европы.// <http://clubstudiosfate.ucoz.ru/.../121-1-0-146>.
- 48.Козина В. Урок или проповедь? Интервью с Н. Байтеновой.// Аргументы и факты.- 2012.- №6.
- 49.Комикс.// <http://ru.wikipedia.org/wiki>.
- 50.Musayev Missionerlik va prozelitizm tahdidi.// jamiyat va boshqaruv.- 2011.- №2.
- 51.Nishonova O. Etnomadaniy falsafiy- estetik tadqiqotlar obyekti.// Tafakkur.- 2011ю-2011- №1ю
- 52.Nosirov R, Qodirov B. Ijtimoiy-iqtisodiy ioslohotlar samarasi.// Jamiyat va boshqaruv.-2011-№4..
- 53.Оберемко В. “Беру деньгами”. Интервью с Н. Басковым. // Аргументы и факты.- 2011.- №42.
- 54.Оберемко В. Безумные юзеры.// Аргументы и факты.- 2012.- №17.
- 55.Оберемко В. Россия на коленях?// Аргументы и факты.- 2012.- №2.
- 56.Odilxonova Sh.”ommaviy madaniyat” nima?// Tafakkur-2010-№2ю.
- 57.Полупанов В. “Пою назло многим”. Интервью с Д. Биланом.// Аргументы и факты.- 2011.- №52.
- 58.Послевоенная Америка.//<http://us.info.state.gov>.

59. Primov B. Axborot oqimining axloqiy qadriyatlarga ta'siri.// Jamiyat va boshqaruv.- 2011.-№2.
60. Пулитцер Жозеф.// <http://ru.wikipedia.org/wiki>.
61. Разлогов К.Э. Феномен массовой культуры.// Культура, традиции, образование.- М, 1990.
62. Rahim M, Hayrixoxlik boy mezon bo'lsa. Adabiyotshunos olim Shuhrat Rizo bilan suhbat.//.-2010.- №2.
63. Рахмонов М. Театр Узбекистана: основы.// <http://www.bookinguz.com/ru/iskusstvo-uzbekistana>.
64. Солиева Г. Китоб савдоси хусусиятлари ва уни ривожлантириш.// Жамият ва бошқарув.- 2011.-№2.
65. Средства массовой информации.// www.infousa.ru/media/media.htm.
66. Судебные разбирательства// <http://danieldefo.ru/forum/showthread>.
67. Usmonov Q. Sodiqov M. Burxonov S. O'zbekiston tarixi. // http://el.tfi.uz/pdf/uzbktarixi_uzk.pdf.
68. Quronov D. Romanning yangi umri// <http://quronov.narod.ru/dsuh1.html>.
69. Quronov M. Ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashning ilmiy – uslubiy hamda g'uaviy-mafkuraviy asoslari.// „ma'naviy tahdidlarga va ularga qarshi kurashning ilmiy –uslubiy hamda hamda ma'naviy-mafkuraviy asoslari.-Toshkent:. Muxarrir, 2010..
70. Himmat va shijoat zamoni. Professor G'. Muhamedov bilan suhbat.// 2010.- №2.
71. Xoliqov E. Oyna ortidagi yolg'on dunyo//.- Tafakkur.- 2011.-№1.
72. Честертон Г. О литературе.// Вопросы литературы.- 1981.- №9.- С.219.
73. Choriyev S. Olamaga negativ munosabat: xavfsizlikka tahdid.// Xvfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Resp.ilmiy-naz.konf. mat- Qarshi, 2007.
74. Shermuhammedov G' Hamma gap – qanday yozishda. Dramaturg Sharof Boshbekov bilan suhbat.// Tafakkur.-№4
75. Эгоцентризм.// <http://ru.wikipedia.org/wiki>.

76 Erkayev A. Globallashuv: axborot va ommaviy madaniyat.// Tafakkur.-2008-№4.

77. Sh .Murodova. Ijtimoiy tarmoq “so’qmoq”lari.//Tafakkur.-2014.-№4.

4. Dissirtatsiya va avtorefaratlar

78. Аврамов А. В. Смена научных парадигм в концептуализации феномена «массовая культура». Автореф. дисс. ... канд. филос. наук.- Великий Новгород, 2007;

79. G’aybullayev O.M. Shaxs madaniyatining shakllanish va rivojlanish muammolari. Fals.f.d diss avtoref.- Toshkent: O’zMU, 2011.

80.Климова Л. Е. Массовая культура и личность. Автореф. дисс.... канд. филос. наук.- Ставрополь, 2005.

81.Лебедева В.Г. Исто-ки и становление массовой культуры в России (1860-1940). Автореф. дисс.... докт. культурологии.- СПб, 2008.

82.Ro’ziyeva R.X. Jamiyatning ma’naviy yangilanishida milliy va umumisoniy qadriyatlar uyg’unligini shakllantirishning masalalari.- Fals f.d diss. Avtoref.- Toshkent: O’Zmu, 2012.

83.Choriyev S.A. Siyosiy yetuk shaxsni shakllantirish muammolari. Fals f.d diss. Avtoref.- Toshkent: O’Zmu, 2005.